

ITLARDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLARNI OLDINI OLISH VA DAVOLASH

USLUBIY QO‘LLANMA



Toshkent - 2021


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT BOJXONA QO'MITASI

MILLIY KINOLOGIYA MARKAZI

I. Tangirov, B. Narziyev, T. Mirzayev,
J. Yulchiyev, M. Abdurashitov

ITLARDA UCHRAYDIGAN
KASALLIKLARNING
OLDINI OLISH VA DAVOLASH

Uslubiy qo'llanma



Toshkent – 2021

UO'K: 639.09:636.7(072)

KBK: 48

46.73

I-85

Itlarda uchraydigan kasalliklarni oldini olish va davolash.

Uslubiy qo'llanma. Davlat bojxona qo'mitasi Milliy kinologiya markazi direktori, bojxona xizmati polkovnigi A. Tursunovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: 2021. – 104 bet.

ISBN 978-9943-6393-9-3

UO'K: 639.09:636.7(072)

KBK: 48

46.73

Tuzuvchilar:

- I. Tangirov** – Ixtisoslashtirilgan veterinariya xizmati boshlig'i, bojxona xizmati mayori
- B. Narziyev** – Samarqand veterinariya meditsinasi instituti o'qituvchisi, veterinariya fanlari nomzodi, dotsent.
- T. Mirzayev** – Ixtisoslashtirilgan veterinariya xizmati inspektori, bojxona xizmati leytenanti
- J. Yulchiyev** – Samarqand veterinariya meditsinasi instituti o'qituvchisi, PhD, assistent
- M. Abdurashitov** – O'quv-uslubiy bo'lim inspektori, bojxona xizmati leytenanti

Taqrizchilar:

- S. Saidov** – Sergeli tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i
- O'. Soatov** – Toshkent Davlat agrar universiteti Umumiy zootexniya kafedrasini mudiri, q.x.f.d.

Mazkur uslubiy qo'llanma Milliy kinologiya markazida tahsil olayotgan tinglovchilar, shuningdek kinologlar hamda veterinariya mutaxassislari uchun mo'ljallangan bo'lib, bugungi kunda itlar orasida uchrayotgan kasalliklar, ularning turlari, tarqalishi, tasniflanishi, rivojlanish mexanizmi, belgilari, davolash hamda oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

- © O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasi Milliy kinologiya markazi, 2021-y.
- © «Yuridik adabiyotlar publish» MCHJ, 2021-y.

KIRISH

It qadimdan insonning sodiq do'sti hisoblangan. Inson itlarning o'ta zehniligi, hidlarni o'tkir sezishi, yaxshi ko'rishi, eshitishi, tez chopishi va chidamliligini oldindan sezib, ularni boshqa hayvonlarga nisbatan o'ziga yaqinlashtirgan. Shu bois ham boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar singari bojxona organlarida ham xizmat itlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Jumladan, ish jarayonlarida shubhali holatlarga duch kelinganda, o'tkir sezish qobilyatlaridan inson hayotiga xavf soladigan giyohvandlik vositalari va qurol-yarog', o'q-dori hamda portlovchi moddalarni yurtimiz hududiga kirib kelishini aniqlashda ularning xizmatidan keng foydalaniladi.

It o'z tabiatiga ko'ra kuchli va uzoq muddat xizmat qilish imkoniyatlari zaxirasi, chidamlilik va sharoitga tez moslashish kabi xususiyatlarga ega. Inson foydalanish maqsadida uni parvarishlashi va yaxshi munosabati tufayli it uning ishonchli himoyachisi va xizmatdagi hamrohiga aylangan. Biroq, ularni parvarishlash, oziqlantirish, saqlash, ishlash tartib-qoidalari buzilsa, xastalanib, oxir oqibat nobud bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari, xastalangan it insonlarga ba'zi yuqumli kasalliklarni yuqtirish manbai hamdir. Ular odatda bir yoshgacha bo'lgan davrida juda tez kasallikka chalinadilar. 2 yoshdan 5 yoshgacha kasallanish darajasi pasayib, 6 yoshdan so'ng yana ortadi. Shunday ekan itlarda uchraydigan kasalliklarni samarali davolash veterinariya mutaxassisleri oldidagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu qo'llanmada bugungi kunda itlar orasida eng ko'p uchrayotgan kasalliklar tasnifi, sabablari, rivojlanish qonuniyatlarininig davom etishi, ularni ertangi bosqichlarda aniqlab to'g'ri tashxis (diagnoz) qo'yish, davolash hamda oldini olish bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Qo'llanmada Milliy kinologiya markazi tinglovchilari, veterinariya mutaxassisleri va hududiy bojxona boshqarmalari kinologlariga xizmat itlarini kasalliklardan himoya qilish bo'yicha bir qator amaliy tavsiyalar berilgan.

IT ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI

Anatomiya – inson va hayvonlar organizmining tuzilishini o'rganuvchi qadimgi biologik fanlardan biridir. «Anatomic» so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib, kesish, qismlarga (bo'laklarga) bo'lish degan ma'noni bildiradi.

Fiziologiya – tirik organizmda kechuvchi hayotiy jarayonlarni o'rganuvchi fandır.

Itlarning anatomiyasi va fiziologiyasi asoslarini puxta o'rganish xizmat itchiligi nazariya va amaliyotidagi asosiy poydevor hisoblanadi. Itning organizmi ham boshqa hayvonlardagi kabi hujayralar shaklidagi tirik moddadan tashkil topgan. Tirik organizm hujayralari juda kichik bo'lib, ularni oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Hujayra protoplazma va yadrodan tashkil topadi. Protoplazma strukturasi bo'yicha juda murakkab tuzilgan rangsiz oqsil tabiatli modda. Protoplazma tarkibiga oqsil, yog'lar, uglevodlar, suv va neorganik moddalarni hosil qiluvchi ko'p miqdordagi turli nisbatlardagi kimyoviy elementlar kiradi. Hujayraning yadrosi uning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Yadro hujayraning ko'payishida asosiy rol o'ynaydi. Hujayralar ko'payishi ularning bo'linishi yo'li bilan sodir bo'ladi.

To'qimalar. To'qima deb, umumiy tip, tuzilishi, moddalar almashinuvi va ma'lum bir funksiyani bajarishga moslashgan hujayra va nohujayraviy tuzilmalarga aytiladi. Hayvonlar organizmida to'rt tipdagi to'qimalar ajratiladi. Bular: epiteliy to'qimasi, tayanch-trofik to'qima, muskul to'qimasi va asab to'qimasi.

Epiteliy to'qimasi – tananing tashqi yuzasi, barcha kovak organlar (ularning bo'shliqlari), bezlar epiteliy to'qimasi bilan qoplangan.

Tayanch-tropik to'qimasi – turli funksiyalarni bajaradi. Shulardan eng asosiysi trofik, ya'ni oziqlantiruvchi funktsiya hisoblanadi. Tayanch-trofik to'qima qon va limfa, biriktiruvchi to'qima, tog'ay to'qimasi va suyak to'qimalarini o'z ichiga oladi. Muskul to'qimasi uzunasiga cho'zilgan hujayralarning yig'indisidan iborat bo'lgan muskul tolalaridan tashkil topgan bo'lib, ular qisqarish xususiyatiga ega va ma'lum bir ishni bajaradi. Muskul tolalari tutamlarni hosil qilib ustidan qobiq bilan o'raladi va muskul to'qimasini hosil qiladi. Muskul to'qimasi ko'plab asab oxirlari va qon tomirlariga ega.

Asab to'qimasi eng yuqori tabaqalashgan to'qima hisoblanadi. U ko'plab o'simtalarga ega bo'lgan asab hujayralaridan tashkil topgan. Hayvonlarning yorug'likka bo'lgan reaksiyasi, tovushni, hid bilishni va boshqalarni his qilish, rang bilish bevosita asab to'qimasi tomonidan amalga oshiriladi. Asab to'qimasi barcha a'zolar funksiyalarining birgalikda uyushib ishlashini ta'minlaydi. Uning yordamida hayvonlarning ruhiy faoliyati amalga oshiriladi. Organlar tananing bir qismi bo'lib, turli to'qimalardan tashkil topadi va ma'lum bir funksiyani bajaradi. Barchasi uchun umumiy bo'lgan ma'lum bir ishni bajaruvchi bir qancha organlar yig'indisi organlar sistemasini hosil qiladi. Hayvonlar organizmida quyidagi organlar sistemasi mavjud:

- harakatlanish organlari sistemasi;
- ovqat hazm qilish organlari sistemasi;
- nafas olish organlari sistemasi;
- qon aylanish va limfa aylanish organlari sistemasi;
- siydik ajratish organlari sistemasi;
- ko'payish organlari sistemasi;
- ichki sekretiya;
- teri qoplami;
- asab sistemasi;
- sezgi organlari.

Itlarning har bir zoti ayrim a'zolari va tizimlarning tuzilishiga (va vazifasiga) ko'ra, bir-biridan o'ziga xos tomonlari bilan farqlanadi. It organizmi quyidagilardan tashkil topgan:

- suyaklar (skelet), paylar va muskullar, harakat apparati;
- ichki organlar – nafas olish, ovqat hazm qilish, ayirish va jinsiy a'zolar;
- barcha a'zolar ishini birlashtiruvchi (integratsiyalovchi) tizimlar: qon-limfa aylanuv, himoya (immunitet), ichki sekretiya (gormonal), teri qatlami, sezgi va asab sistemalaridan tuzilgan.

Harakat apparati – Harakatlanish organlari sistemasi skelet va muskullardan iborat.

Skelet. Itning skeleti 250-282 ta suyakdan iborat. Skelet harakatlanish organlar sistemasining passiv apparati hisoblanadi. Skelet bir-biri bilan boylamlar yordamida bog'langan suyak va

tog'aylardan tashkil topgan. Skelet hayvon organizmining tayanch apparati hisoblanadi. Tanaga ma'lum bir shakl beradi, yumshoq organlarni himoyalab turadi. O'z ichida qon yaratish organi hisoblangan qizil suyak iligini saqlaydi va mineral tuzlar deposi hisoblanadi. Suyak tashqaridan yupqa biriktiruvchi to'qimadan iborat qobiq bilan qoplangan. Bu qobiq ko'p miqdordagi qon tomir va asablarga ega.

Katta yoshdagi itlarda naysimon suyaklar bo'shlig'i oziq moddalar zaxirasiga boy bo'lgan sariq suyak iligi bilan to'lgan. Suyakning g'ovak moddasida qizil suyak iligi mavjud.

Asosiy va periferik suyak skeletlaridan iborat.

Asosiy skelet bosh yoki kalla suyagi, gavda va dum skeletlaridan tashkil topadi. Periferik skelet: juft oldingi (ko'krak), orqa (tos) suyaklaridan iborat.

Gavda skeleti o'z navbatida: bo'yin, ko'krak, bel, dumg'aza va dum qismlariga bo'linadi. Gavda skeleti tarkibiga alohida umurtqalar kiradi. Bo'yin umurtqasi – 7 ta, ko'krak umurtqasi – 13 ta, bel umurtqasi – 7 ta, dumg'aza umurtqasi – 3 ta va dum umurtqasi – 23 tadir. Gavda skeleti asosini umurtqa ustuni tashkil etadi.

Periferik skeletda oldingi va orqa oyoqlar har bir jufti yelka kamari, tos kamari va erkin qismlardan iborat. Har bir ko'krak umurtqasiga bir juft qovurg'a birlashgan. Itlarda 13 juft qovurg'a bo'ladi. Ko'krak suyagi, qovurg'alar va umurtqaning ko'krak qismi birlashib birgalikda ko'krak qafasini tashkil etadi.

Bosh skeleti (kalla suyagi). Kalla suyagi ichida bosh miya, ko'rish organlari, muvozanat organlari, burun bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i organlari joylashadi. Kalla suyagining barcha suyaklari bir-birlari bilan paylar yordamida mustahkam bog'lanadi, faqat pastki jag' suyagi va til osti suyagi bundan mustasno. Yuqorigi va pastki jag' suyaklarida tishlar joylashadi. Bular ovqatni tishlab, og'iz bo'shlig'iga kiritish va maydalash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, itlarning o'z-o'zini himoya qilish va tashlanish quroli hisoblanadi. Katta itda 42 ta doimiy tishlar, kichik yoshdagi itlarda esa 28 ta sut tishlari ya'ni vaqtinchalik tishlar mavjud.

Barcha tishlar funksiyalari, tuzilishi va joylashishiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi.

- 1) Kesuvchi tishlar – 12 ta, har qaysi jag'da 6 tadan.
- 2) Kurak tishlar – 4 ta, har qaysi jag'da 2 tadan.
- 3) Oziq tishlar – 26 ta, yuqori jag'da 12 ta, ikkala tomonda 6 tadan, pastki jag'da 14 ta, ikkala tomonda 7 tadan.

Tishlashi bo'yicha itlarning bir yoshdan besh yoshgacha bo'lgan yoshi aniqlanadi. Pastki kesuvchi tishlarning yuqori kesuvchi tishlariga nisbatiga qarab itning tishlashi aniqlanadi. Itlarda sut tishlari tug'ilganidan 2 hafta o'tgach rivojlana boshlaydi. Itlar 3,5–4 oylik bo'lganda sut tishlari doimiy tishlari bilan almashina boshlaydi. Bu jarayon 8 oylik bo'lgunga qadar davom etadi.

Bo'g'imlar – suyaklarning bir-biri bilan birikkan sohasi bo'g'im hisoblanadi, suyaklar birikkan joyida suyaklararo bo'g'imlar mavjud bo'ladi. Bo'g'imlar suyaklarning bo'g'in yuzalaridan hosil bo'lib, ular bo'g'im tog'ayi bilan qoplangan. Suyak yuzalari bo'g'im tog'ayi bilan qoplanadi. Bo'g'imlar ustidan bo'g'im kapsulasi bilan o'raladi. Bu kapsula suyakning suyak usti pardasi bo'lib davom etadi. Shu bo'g'im kapsulasi ichida sinovial suyuqlik mavjud bo'lib, u suyak yuzalarini namlab turadi, ularni, ya'ni, suyak yuzalarini bir-biriga ishqalanishidan himoyalaydi.

Mushaklar muskul sistemasini hosil qilib, hayvonlar harakatini amalga oshiradi.

Ovqat hazm qilish tizimi. Hayvonlar organizmi hayotini ushlab turish uchun moddalar almashinuvida zarur organik va mineral moddalar kerak bo'ladi. Oqsil, yog', uglevodlar, mineral tuzlar hayvon organizmiga ozuqa orqali kiradi. Biroq ular to oshqozon-ichak traktida osonroq parchalanuvchi, kimyoviy parchalanishga va qonga oson so'riluvchan holida bo'lgan tarkibiy qismlarga bo'linmay turib, organizm hujayralari tomonidan so'rilmaydi.

Og'iz bo'shlig'i ovqat hazm qilish traktining boshlang'ich qismi hisoblanadi. Funksiyasi: ovqatni qamrab, og'iz bo'shlig'iga kiritish, maydalash va so'lak yordamida namlab, hiqildoqqa o'tkazishdan iborat. Bundan tashqari og'iz bo'shlig'i ozuqaning ta'mini bilish funksiyasini ham bajaradi.

Og'iz bo'shlig'i organlariga: lablar, yonoqlar, tishlar, milklar, qattiq va yumshoq tanglay, til va so'lak bezlari kiradi.

Til og'iz bo'shlig'ining eng tubida joylashuvchi, o'ta harakatchan mushakli a'zo.

Til muskullari bilan pastki jag' va til osti suyagiga birikadi. Tilning vazifalari turli-tuman bo'lib, suv va suyuq ovqat ichishda, chaynash va ozuqani yutishda, termoregulyatsiyada ishtirok etadi.

Halqum og'iz bo'shlig'ining davomidir. U voronkasimon shaklga ega bo'lib, nafas yo'llari va ovqat hazm qilish yo'llari kesishgan bo'shliqdir.

Qizilo'ngach halqumning davomi hisoblanib, naysimon shaklda bo'lib, halqumdan boshlanib, avval bo'yin, so'ngra ko'krak bo'shlig'iga va keyin diafragmani teshib o'tib, qorin bo'shlig'iga kiradi va voronkasimon kengayib oshqozonga ochiladi.

Oshqozon ovqat hazm qilish payining qopsimon egilib, kengaygan qismini tashkil qiladi. Itlarda o'rtacha 2-2,5 l hajmda bo'ladi. Oshqozonga tushgan ozuqalar oshqozon shirasi ta'siriga uchraydi, ya'ni bu erdagi fermentlar ta'sirida oddiyroq molekulalarga parchalanadi. Parchalanishda o't suyuqligi, oshqozon osti bezi sekretlarining ham ahamiyati kattadir. Keyingi parchalanishlar ichaklarda davom etib, qonga so'riladi. Qoldiq mahsulot esa yo'g'on ichaklar orqali axlat tarzida chiqariladi.

Nafas olish tizimi – Nafas olish organlari organizmga kislorodni kiritib, karbonat angidrid gazini chiqarib yuborishdan iborat, gazlar almashinuvida ishtirok etadi.

Nafas olish organlari tizimiga: o'pka va havo o'tkazuvchi yo'llar kiradi (ya'ni, burun bo'shlig'i, halqum, traxeya).

Bu a'zolar shilliq pardalarida ko'plab qon tomirlarining mavjudligi nafas olinayotgan havoni isitadi (30-32 C gacha).

Hiqildoq nafas olish nayining boshlang'ich qismi bo'lib, u bir-biri bilan harakatchan bo'g'imlar, boylamlar va muskullar bilan birikkan tog'aylardan iborat kovak organ hisoblanadi. Hiqildoq yon devorlaridagi shilliq qavat burmalarni hosil qiladi.

Traxeya o'pkaga havo o'tkazish va undagi havoni chiqarish vazifasini bajaradi. Hiqildoqdan boshlanib, butun bo'yin bo'ylab o'tib, ko'krak bo'shlig'iga kiradi va yurak asosi ustida ikkita diametri kichikroq bo'lgan naylarga, ya'ni bronxlarga bo'linadi.

Bronxlar o'pkaga kirib mayda bronxlarga tarmoqlanadi, ya'ni bronxiolalarga tarmoqlanadi. Bronxiolalarning oxirgi tarmoqlari

alveolaga o'tish joyida havo o'tkazish yo'llari tugab, o'pkaning nafas olish qismi boshlanadi. Alveola o'pkaning morfofunktsional birligi bo'lib, alveola tashqaridan ko'plab kapillyar qon tomirlar to'ri bilan qoplangan. Shu yerda gazlar almashinuvi sodir bo'ladi, organizmda gazlar almashinuvi diffuziya qonunlariga asoslangan. Itda tinch holatda nafas olish daqiqasiga 14 tadan 24 tagacha bo'ladi. Yosh kuchukchalarda kattalariga qaraganda nafas olish ko'proq bo'ladi.

O'pkalar – nafas olish organining asosiy qismi hisoblanadi. O'pkalarda tashqi muhit bilan qon o'rtasidagi gazlar almashinuvi sodir bo'ladi. O'pka uchi kesilgan konussimon shaklda bo'lib, teng ikkiga bo'linib o'ng va chap o'pkalarni hosil qiladi. O'z navbatida, har bir o'pka chuqur kesmalar yordamida alohida bo'laklarga bo'linadi. Chap o'pka uch bo'limga, o'ng o'pka esa to'rt bo'limga bo'linadi.

Barcha a'zolar va to'qimalar ishini birlashtiruvchi tizimlar

Qon va limfa aylanish a'zolar sistemasi.

Murakkab tuzilgan organizmning har bir hujayrasiga kislorod va oziq moddalarni yetkazib berish va unda hosil bo'lgan chiqindi moddalarni tegishli a'zolar orqali chiqarib yuborishda qon va limfa aylanish sistemasi a'zolari xizmat qiladi. Ular qon, yurak, limfa va qon hosil qiluvchi a'zoldan tuzilgan. Qon aylanish sistemasi qon tomirlar, ularning ichidagi qon va qon haydovchi a'zo, ya'ni yurakdan tashkil topgan. Qon tomir sistemasining eng muhim qismi yurak bo'lib, uning tinmay ishlashi natijasida qon, qon tomirlari bo'ylab uzluksiz harakatlanib turadi. Tanada harakatlanayotgan qon ikkita, ya'ni katta va kichik doira bo'ylab aylanadi, buni birinchi marta ingliz olimi Garvey 1638 yilda aniqlagan.

Qon organizmning eng muhim to'qimalaridan biri. U qizil rangda, sho'r ta'mli, yopishqoq suyuqlikdir. Qonning tarkibida shaklli elementlar, ya'ni qizil qon tanachalari (eritrotsitlar), oq qon tanachalari (leykotsitlar) va qon plastinkalari (trombotsitlar) mavjud. Qonning qizil rangi undagi rang beruvchi modda – gemoglobin bilan bog'liq. Sho'r ta'mi esa undagi tuzlar miqdoriga bog'liq.

Qon hayvon organizmida muhim vazifalarni bajaradi: moddalar almashinuvida qatnashadi, ichaklardan shimib olgan ozuqa moddalarni va suvni butun organizm bo'ylab tarqatadi; keraksiz, zaharli

moddalarning organizmdan chiqib ketishini ta'minlaydi. Qonning shaklli elementlari orqali organizm (fagotsitos yo'li bilan) himoya qilinadi va immunitet bilan muhofazalanadi. Qonning ivuvchanlik xususiyati ham himoya funksiyasi bo'lib hisoblanadi, chunki hayvon jarohatlanganda u qon oqishini to'xtatishga yordam beradi. Qon it tana vaznining 5-8 % ini tashkil qiladi. Katta miqdorda qon yo'qotish organizm uchun o'ta xavlidir.

Yurak – konus shaklidagi organ bo'lib, ko'krak qafasining III-VI-VII qovurg'alari ro'parasida, o'pkalar oralig'ida joylashadi. Yurakning asosiy qismi umurtqa pog'onasining chap tomonida bo'ladi. Yurak bo'shlig'i ichki tomondagi ko'ndalang to'siq orqali chap va o'ng bo'limlarga bo'linadi. Ular ham o'z navbatida klapanlar yordamida yana ikkiga bo'linadi. Yuqoridagilar chap va o'ng yurak oldi bo'lmalari deb ataladi, yurakning pastki qismida esa chap va o'ng qorinchalari joylashadi. Shunday qilib, itlarning yuragi to'rt kamerali, ya'ni ikkita yurak oldi va ikkita yurak qorinchalaridan tuzilgan.

Yurakning o'ziga xos asosiy funksiyasi venalardan bo'lmalarga tushgan qonni aortaga, undan esa arteriyalarga uzluksiz sur'atda chiqarib turishdir. Yurak navbatma-navbat ikki bosqichda ishlaydi. Yurakning ikki fazada ishlashi tufayli, qon organizm bo'ylab faqat bitta yo'nalishda, ya'ni yurak bo'linmalaridan qorinchalarga, ulardan tomirlarga qarab harakatlanadi. Yurak muskullarining qisqarishi *sistola*, kengayishi *diastola* deb ataladi. Bu ikki bosqich yurak ishining bir sikli bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi fazadan keyin pauza, ya'ni yurakning umumiy bo'shashi boshlanadi, bu vaqtda yurak muskullari dam olganday bo'ladi. Yurakning bunday o'ziga xos jarayoni, unga sutkada 8-10 soat zo'r berib ishlashga imkoniyat yaratadi, boshqa vaqti esa dam olishga sarflanadi. Itlarning yuragi me'yor bo'yicha har bir daqiqada 70-120 martagacha qisqaradi.

Qon tomirlar har xil diametrli naychalardan iborat bo'lib, ular tuzilishi va funksiyasi jihatidan arteriya, vena va eng mayda qon tomirlarga (kapillyarlarga) bo'linadi. Umuman qon tomirlarning vazifasi qonni butun organizmga tarqatish va to'qimalarni kerakli moddalar bilan ta'minlash hamda moddalar almashinuvi natijasida paydo bo'lgan keraksiz moddalarni tashqariga chiqarib yuborishdan iborat. Yurakdan chiqadigan qon tomirlar arteriya, yurakka qon olib

keladigan tomirlar esa vena qon tomirlari deb ataladi. Tomirlar yurak devorining faoliyati tufayli ritmik ravishda to'liqsimon harakat qilib turishiga puls yoki tomir urishi deyiladi. Itlarning pulsi son arteriyasida yaxshi aniqlanadi va uning soni bir daqiqada 70-120 taga teng.

Tanadagi qon ikkita doira, ya'ni katta va kichik qon aylanish doiralari bo'ylab harakat qiladi. Kichik qon aylanish doirasida qon yurak bilan o'pka o'rtasida, katta qon aylanish doirasida esa yurak bilan butun tana oralig'ida oqadi. Katta qon aylanish doirasida chap qorinchadan chiqqan aorta butun organizmni qon bilan ta'minlaydi. Undan tarqalgan tomirlar va ularning kapillyarlari to'qimalarga boradi va qondagi kerakli moddalar va kislorodni berib, moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'lgan keraksiz moddalarni va karbonat angidridini vena kapillyarlariga o'tkazadi. Butun organizmdan yig'ilib kelgan vena qon tomirlari keyingi va oldingi kovak venalarni hosil qilib, yurakning o'ng bo'lmasiga quyiladi.

Kichik qon aylanish doirasini hosil qiladigan o'pka arteriyasi yurakning o'ng qorinchasidan chiqib o'pka negiziga kiradi va har ikkala o'pka bo'lmasiga bo'linib ketadi. O'pkadagi har bir arteriya alveolalarda tugaydi. Shu yerda aytish joizki – o'pka arteriyalarida venoz qon oqadi va u o'pkada kislorodga boyib, o'pka venalariga o'tadi. O'pka venasi yurakning chap bo'lmasiga quyiladi.

Limfa sistemasi ham qon aylanish sistemasiga o'xshab, barcha a'zolarga tarqalgan bo'ladi. Bu tizim ham moddalar almashinuvida ishtirok etib, muhim vazifani bajaradi. Limfa sistemasi qon tomirlarining qo'shimchasi hisoblanadi. Limfa sistemasiga limfa bo'shliqlari, limfa kapillyarlari, yirik tomirlar, limfa tugunlari va limfa to'qimasi kiradi. Limfa tomirlaridan to'qimalararo suyuqlik – limfa oqadi.

Limfa – toza suv ma'nosini bildiradi. Limfa tomirlar bo'ylab harakat qiladigan rangsiz suyuqlik bo'lib u tana og'irligining 5/1- 6/1 ni tashkil etadi. Uning tarkibiga qonning elementlaridan limfotsitlar kiradi. Limfotsitlar organizmning himoya vositasi bo'lgan immunitetni hosil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Limfa sistemasi organizmdagi oqsil, yog' va vitaminlar almashinuvida faol qatnashadi. Limfa tomirlarining yo'nalishi bo'ylab

limfa tugunlari joylashadi, ular filtrlash va qonni hosil qilish vazifasini bajaradi. Itlarda 60 ta limfa tuguni aniqlangan.

Qonni hosil qilish a'zolariga – taloq, qizil ilik va limfa tugunlari kiradi. Taloq qorin bo'shlig'ining chap tomonida, yetim qovurg'a ostida joylashgan. Uning asosiy vazifasi limfotsitlarni ishlab chiqarish va yashab bo'lgan eritrotsitlarni parchalashdan iborat. Bundan tashqari taloq organizmdagi 16 % qon uchun rezervuar (depo) vazifasini bajaradi. Suyakdagi qizil ilikda eritrotsit va leykotsitlar hosil bo'ladi, ya'ni u asosiy qon ishlab chiqarish a'zosi bo'lib hisoblanadi.

Ayirish a'zolari.

Tirik organizmlarda doimiy ravishda moddalar almashinuvi jarayoni sodir etiladi. Buning natijasida organizm uchun keraksiz moddalar (jumladan siydik) paydo bo'ladi. Siydik ayirish a'zolari siydikni qondan ayirish, vaqtinchalik saqlab turish va keyinchalik tashqariga chiqarib yuborish uchun xizmat qiladi. Siydik bilan suv, ammiak, mochevina, siydik kislotasi, keratin va azotli moddalar ajralib chiqadi. Bir sutkada sog'lom it 0,5-2 l atrofida siydik ajratadi. Siydik ayirish a'zolariga – buyrak, siydik chiqarish yo'li, siydik pufagi va siydik chiqarish kanali kiradi.

Buyraklar juft a'zo bo'lib, bel umurtqalari yonida joylashgan. Itlarning buyragi loviyasimon, qisqaroq va yumaloq, og'irligi esa 45-60 g ga teng. Siydik yo'li uzun, ingichka nay shaklidagi organ bo'lib, u buyrak jomidan boshlanadi va qovuqda tugaydi. U buyrakda ishlangan siydikni o'tkazish uchun xizmat qiladi.

Qovuq muskul pardadan hosil bo'lgan xaltacha bo'lib, tos bo'shlig'ida, to'g'ri ichak ostida joylashgan. Uning eng asosiy vazifasi siydikni vaqtincha saqlashdan iborat.

Siydik chiqarish kanali qovuqda to'plangan siydikni tashqariga chiqarish uchun xizmat qiladi.

Ko'payish a'zolari.

Ko'payish a'zolari erkak va urg'ochi hayvonlar jinsiy a'zolariga bo'linib, nasl qoldirish vazifasini bajaradi.

Erkak itning ko'payish a'zolariga urug'donlar, urug'don xaltasi, urug' yo'li, qo'shimcha jinsiy bezlar va jinsiy a'zo kiradi. Urug'don juft jinsiy bez bo'lib, erkaklik jinsiy hujayralarni, ya'ni urug' ishlab chiqarish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari urug'don ichki

sekretsiya bezlari sifatida jinsiy gormonlar ishlab chiqarib, organizmni jinsiy uyg'otishda muhim rol o'ynaydi. Urug'don urug'don xaltasida joylashadi. Urug'don xaltasi teri burmasidan tashkil topgan bo'lib, chov sohasida ikkita xaltacha shaklida o'rin egallaydi. Itlarda u orqa chiqaruv teshigining pastida joylashgan. Urug' yo'li uzun, ingichka nay shaklidagi a'zo bo'lib, urug'donda hosil bo'lgan urug'ni chiqarish uchun birdan-bir yo'l hisoblanadi.

Qo'shimcha jinsiy bezlarga pufakchasimon, prostata va piyozchasimon bezlar kiradi, ular urug'dondan chiqayotgan urug'ni suyultirish va uning harakatlanish tezligini oshirish uchun xizmat qiladi. It spermatozoidlarining harakat tezligi 1 daqiqada 2,6 mm ga teng.

Jinsiy a'zo murakkab tuzilgan bo'lib, muhim vazifani bajaradi: urug'donda ishlab chiqilgan jinsiy hujayralarni (urug', sperma) urg'ochi hayvonning ko'payish a'zosiga kiritish va siydikni chiqarish uchun xizmat qiladi. It jinsiy a'zosi old qismining asosida 8-10 sm uzunlikda suyak joylashadi.

Urg'ochi itning ko'payish a'zolariga tuxumdon, tuxum yo'li, bachadon, qin, qin dahlizi va tashqi lablar kiradi. Tuxumdon juft a'zo bo'lib, qorin bo'shlig'ida III-IV bel umurtqalarning ro'parasida joylashadi, uning og'irligi 1 g atrofida bo'ladi. Tuxumdon tuxum hujayralari va jinsiy gormonlarni ishlab chiqaradigan a'zo. Tuxum hujayralari tuxumdonda yetilib, tuxum yo'lga tushadi. Tuxum yo'li egri naycha shaklida bo'lib, tuxumdon bilan bachadon shoxi o'rtasida joylashadi. U tuxumdonda yetilgan tuxum hujayralarini bachadonga o'tkazish uchun xizmat qiladi, itlarda uning uzunligi 4-10 sm ga teng.

Bachadon – kovak a'zo bo'lib, tana va ikkita shoxdan tashkil topgan, unda homila rivojlanadi. Itlar ko'p bola tug'adigan hayvonlar guruhiga kirganligi uchun ham, ularning bachadoni uzun hamda ko'p burmalangan bo'ladi.

Qin – pardasimon muskulli naycha bo'lib, jinsiy qo'shilish a'zosi va tug'ish yo'li hisoblanadi.

Qin dahlizi (siydik – jinsiy dahliz) urg'ochi hayvonlar jinsiy a'zolarining eng keyingi bo'limi bo'lib, tashqi lablar bilan tugaydi.

Kuyikish davrida va erkak it bilan qovushishda urug' urg'ochi itning jinsiy yo'llariga kiritiladi. Tuxumdon yo'lida tuxum va urug'

hujayrasi uchrashib birlashadi ya'ni otalanish sodir etiladi. Otalangan tuxum bachadonga tushib, homilaning rivojlanish davriga asos solinadi. Itlarda bo'g'ozlik davri 57-65 kun davom etadi. Bu davrda urg'ochi it organizmida murakkab o'zgarishlar vujudga keladi.

Sut bezlarining asosiy funksiyasi – yangi tug'ilgan it bolalariga ozuqa yetkazib berishdir. Urg'ochi itlarning sut bezlari 4-5 juft bo'lib, qorin va ko'krak devorining pastki qismida joylashadi. Ulardan 1,5 oygacha sut kelib turadi.

Asab sistemasi.

Asab sistemasi organizmning muhim bo'limi hisoblanadi. U organizmdagi barcha tizimlarni ishga soladi, ularni idora qiladi. Organizm asab sistemasi yordamida tashqi muhit bilan doimiy aloqada bo'lib turadi. Asab sistemasining asosiy funksiyasi – turli qo'zg'atuvchi ta'sirlarni qabul qilish va aksincha ularga javob reaksiyasini qaytarish. Javob reaksiyasi reflekslar orqali amalga oshiriladi.

Asab sistemasining asosini asab hujayralari, ya'ni neyronlar tashkil qiladi. Neyronlarning tuzilish shakli va kattaligi g'oyat xilma-xil bo'lib, ular tana qismi va o'simtalari – akson va dendritlardan tashkil topgan. Ta'sirlardan qo'zg'alish va uning oqibatida, asab impulslarini vujudga keltirish hamda bu impulslarni boshqa, qo'shni hujayralarga o'tkazish neyronlar faoliyatining mazmunini tashkil qiladi. Asab hujayrasi qitiqlovchi ta'sirni qabul qiladi va qo'zg'alish jarayonida uni faol ravishda qayta ishlaydi. Asab hujayralari biriktiruvchi to'qimalar yordamida birlashib, tutamlarni, ya'ni asablarni hosil qiladi.

Umuman olganda asab sistemasi ikki qismga bo'linadi: markaziy asab sistemasi – uning tarkibiga bosh va orqa miya kiradi; periferik asab sistemasi – bunga markaziy asab sistemasidan chiqib atrofdagi a'zolarga tarqaladigan asablar kiradi. Asab o'simtalari retseptor, ya'ni qabul qiluvchi va effektor, ya'ni javob qaytaruvchi tolalarga bo'linadi. Markaziy hamda periferik asab sistemasidan tashqari, somatik va vegetativ asab sistemalari ham mavjud.

Somatik asablar harakat a'zolariga, xususan orqa va bosh miyadan chiqib, teri hamda skelet muskullariga boradi. Vegetativ asab sistemasi esa ichki a'zolari (yurak, qon tomirlar, silliq muskul to'qimalari, teri, bezlar va boshqalarni) ta'minlaydi. Vegetativ asab

sistemi joylashishi va funksiyasiga qarab, simpatik va parasimpatik qismlarga bo'linadi.

Markaziy asab sistemasi.

Orqa va bosh miya – markaziy asab sistemasiga kiradi. Bosh miya kalla suyagining bo'shlig'ida joylashadi. U asosan, katta miya, kichik miya va uzunchoq miyaga bo'linadi.

Katta miya – ikkita yarim sharlardan iborat. Ular oq va kulrang moddalardan tuzilgan. Bosh miyaning kulrang moddasi tashqi tomonda, oq moddasi esa ichki qismida bo'ladi. Katta miyaning kulrang moddasi (po'stlog'i) butun asab sistemasining eng yaxshi rivojlangan qismi, unga butun organizm bo'ysunadi, u hamma boshqaruv ishini boshqaradi. Miya po'stlog'ida a'zolarining son-sanoqsiz markazlari joylashgan. Miyaning oq moddasida ta'sir o'tkazuvchi bir qancha asab o'simtasi bor. Bosh miyaning po'stloq qismi xilma-xil shakldagi bir nechta hujayralardan tuzilgan va u olti qavatdan iborat.

Katta yarim sharlar po'stlog'i va po'stloq osti tuzilmalarining muqarrar ishtiroki bilan reflektor reaksiyalar, ya'ni shartli reflekslar hosil bo'ladi. Demak, shartli reflekslar po'stloq faoliyatining asosini – oliy asab faoliyatining mazmunini, mohiyatini tashkil qiladi va organizmning xulq-atvorini belgilaydi. Miya po'stlog'ining faoliyati tufayli organizm uzluksiz o'zgarib turadigan tashqi muhit shart-sharoitlariga doimo bekami-u ko'st moslashadi, turli ta'sirlarga qarshi esa eng qulay vaziyatni egallaydi.

Bosh miyaning po'stlog'ida reflektor markazlari – reflekslarni boshqaruvchi markazlar joylashadi. Oraliq miya – miyaning asosida, hidlov miyasining orqa tomonida joylashadi. Bu miyaga ko'rish bo'rtig'i, kulrang do'nglik, epifiz kiradi. Ko'rish bo'rtig'ida tashqi va ichki a'zolarining sezgi markazlari joylashadi. Barcha qo'zg'aluvchi ta'sirlar bosh miyaning katta yarim shar po'stlog'iga yetib borguncha ko'rish bo'rtigidan o'tadi, bu yerda moddalar almashinuvi, tomirlar, issiqlik va boshqa markazlar joylashgan.

O'rta miya oraliq miyaning orqa tomonida joylashib, katta miya oyoqchalaridan, miya to'rt tepasidan tuzilgan. Bu miyaning asosini to'rt tepa hosil qiladi. U kulrang moddadan tuzilgan. Old tepa qismi ancha yaxshi rivojlangan bo'lib, ko'rish a'zolari bilan, orqadagi kichik tepachalar esa eshitish a'zolari bilan bog'langan.

Kichik miya yoki miyacha uzunchoq miyaning ustki qismida joylashib, shakli deyarli yumaloqsimon. Yuzasi kulrang, ichki qismi esa oq moddadan iborat. Miyachaning funksiyasiga harakat koordinatsiyasi va muskullar tonusini boshqarish vazifasi kiradi.

Uzunchoq miya – orqa miyaga ulanib ketadi. Tuzilishi bo'yicha orqa miyaga o'xshash, undagi kulrang va oq moddalarning chegarasi aniq ko'rinmaydi. Bu miyada hayotiy muhim markazlar: nafas olish, ko'rish, qusish, yo'talish va boshqalar joylashgan. Bundan tashqari, undan sakkiz juft bosh miya asablari chiqadi. Uzunchoq miyadan muvozanat va eshitish asablari, ichki a'zolari harakatlantiruvchi asablar chiqadi.

Orqa miya uzun, silindr shaklida bo'lib, umurtqa kanalida joylashadi. U uzunchoq miyadan ajralib, bo'yin, ko'krak va bel hamda dumg'aza bo'limlariga, aniq ifodalanmagan darajada bo'linadi. Orqa miyaning ikkita yo'g'onlashgan joyi bo'lib, ulardan oldingi va orqa oyoqlarga asablar chiqadi. Orqa miyada oddiy yoki shartsiz reflekslar hosil bo'ladi, ya'ni unda harakat, ichki a'zolar muskullari va siydik chiqarish markazlari joylashgan.

Periferik asab sistemasi.

Periferik asab sistemasi markaziy asab sistemasining bir bo'limidir. Periferik asablar orqa va bosh miyalardan chiqib, a'zolarga tarqaladi. Bu asablarning ba'zilari chetdan kelgan ta'sirni bosh miyaga (retseptorlar), ba'zilari esa bosh miyadan ta'sirga tegishli javobni a'zolarga yetkazib beradi (effektorlar). Bunday asablar muskul hujayralariga borsa effektorlar yoki harakatlantiruvchi bezlarga borsa sekretor asablar deyiladi.

Ta'sirni sezuvchi asablar retseptor asab o'simtlaridan hosil bo'lib, orqa miya va bosh miya asablari tugunchalariga kirib turadi. Retseptor asab o'simtlari periferiyaga effektor asablar bilan birga boradi. Shunday qilib, neyronlar tanasini saqlovchi gangliylar hamma hayvonlarda sezuvchi asablar qo'shilishidan hosil bo'ladi. Retseptor va effektor asablar orqa miyaning kulrang moddasining shoxchalaridan boshlanadi, sezuvchi asablar uning yuqorisidan, javob qaytaruvchi asablar esa pastki tomonidan chiqadi. Butun tana, oyoq va ko'ndalang-targ'il muskullarga boradigan harakatlantiruvchi asablar somatik asab, silliq muskul to'qimalariga (qon tomirlar), ichki

a'zolar, teri va boshqa a'zolarga boradigan asablar esa visseral yoki vegetativ asablar deyiladi.

Vegetativ asab sistemasi simpatik va parasimpatik asab sistemalariga bo'linadi. Asab sistemasining simpatik qismi umurtqa pog'onasining ostida, zanjir shaklidagi uzun simpatik asab tarmog'ini hosil qiladi va barcha ichki a'zolarni inasabatsiya qiladi. Parasimpatik asab tolalari periferik asab tolalari shaklida tarqaladi. Parasimpatik asablar o'rta miya, uzunchoq miya va orqa miyaning dumg'aza bo'limidan chiqadi. Ular qorachiq, ko'z yoshi, so'lak bezlari, nafas olish a'zolari va tos bo'shlig'ida joylashgan a'zolarni inasabatsiya qiladi.

Sezgi a'zolari (analizatorlar).


Bosh miyaning kulrang moddasi ichki va tashqi ta'sirotlarga javob berishi bilan birgalikda analizatorlik vazifasini ham bajaradi. Jumladan u sezgi a'zolari orqali ichki va tashqi muhitdan doimiy ravishda kelib turadigan ta'sirotlarni qabul qiladi hamda ularni tahlil etadi. Har bir analizatorlarning ta'sirini qabul qiluvchi va o'tkazuvchi, shuningdek bosh miyaning po'stloq moddasiga kelgan ma'lumotlarni sintez qiluvchi bo'limlari mavjud.

I.P. Pavlovning ta'kidlashiga ko'ra, har bir analizator uch qismdan: periferik, o'tkazuvchi va markaziy bo'limlardan tashkil topgan. Markaziy analizatorlar bosh miyaning po'stloq qismida joylashgan. O'tkazuvchi analizatorlar berilayotgan ta'sirni o'tkazuvchi yo'llar orqali uzatadi. Periferik analizatorlar retseptor apparatlardan iborat bo'lib, ular fizik, mexanik va kimyoviy ta'sirlarni qabul qiladi hamda ularni bosh miyaga yuboradi. Ichki va tashqi ta'sirlarni qabul qilish xususiyatiga qarab retseptor va analizatorlar ikkita asosiy guruhga: ekstroretseptorlar va introretseptorlarga bo'linadi.

Ekstroretseptorlar – tashqi muhitdan kelayotgan aniq ta'sirotlarni qabul qiladi. Ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va muvozanat retseptorlari kimyoviy va boshqa turdagi ta'sirlarni qabul qilish xususiyatiga ega.

Introretseptorlar – ichki ta'sirlarni, ya'ni a'zolar to'qima va hujayralarning ish faoliyati mobaynida vujudga kelgan turli xil normal va patologik o'zgarishlarni aniqlab, bosh miyaga etkazib beradi.

Organizmida quyidagi analizatorlar aniqlangan: ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va sezgi.



Qon-limfa aylanuv tizimi. Bu tizim asosan transport vositasi vazifasini bajaradi. Ular a'zo va to'qimalarni ozuqa moddalari va kislorod bilan ta'minlab tanadan hosil bo'lgan zararli moddalarni chiqarib tashlaydi. Qon aylanuv tizimi qon, yurak va arteriya, vena kapillyarlar kabi turli qon tomirlaridan tashkil topgan. Limfatik tizim esa limfa tomirlari va tugunlardan iborat. Bu tizim to'qimalarda yig'ilib qolgan ortiqcha suyuqlikni chiqarib yuboradi.

Asab tizimi. Uning asosiy vazifalari:

1) sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, ta'm, hid, sezish, teri qatlami) yordamida organizmning tashqi muhit bilan o'zaro aloqani amalga oshirish;

2) organizmning o'zida barcha a'zo, to'qima va hujayralar ishini muvofiqlashtirish va tartibga solish.

Bosh va orqa miya asab tizimining markaziy qismini tashkil qiladi. Har bir umurtqa pog'onasidan o'ng va chapga orqa miya asab tolalari ajralib chiqadi hamda butun tananing yuqori va pastki qismiga tarqaladi. Bosh miyadan ko'p sonli teshiklar orqali 12 juft asab tolasi ajralib bosh miyani og'iz, burun, ko'krak, qorin bo'shliqlari. Asablar esa o'ziga xos tolalar bo'lib, bosh va orqa miyani boshqa a'zo va to'qimalar bilan bog'laydi. Asab hujayralari neyronlar asab to'qimalarining asosini tashkil etadi.

Teri qatlami. U tanani tashqi muhitdan ajratib turadi. Teri – epidermis, asl teri va teri osti to'qimasi (kletchatka)dan iborat. Undan turli qalinlikda jun tolalari o'sib chiqadi va ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) qoplama jun hosil qiluvchi yo'g'on va uzun suyak jun tolalari;

2) kalta, momiq va mayin jun;

3) juda uzun va qattiq, ko'z, yonoq, chakka va yuqori lablarda joylashgan sezuvchi jun tolalari.

Itlar yilda ikki marta – odatda kuz va bahorda tullaydi. Tullash davrining bahor faslida ularning qishki yungi yozgiga, kuzda esa yozgi yungi qishkisiga almashadi.

Bundan tashqari, terida junlarni yaltiratib moylovchi, qayishqoq etuvchi yog' bezlari qon kapillyarlari (mayda tomir) va asab tolalari-ning uchida joylashgan. Teri tana faoliyatida katta ahamiyatga ega. U modda almashinuvi jarayonini amalga oshiradi, tashqi muhitning

zararli ta'siridan himoya qiladi, termoregulyasiya haroratni bir me'yorda ushlab turadigan jarayonini yo'lga qo'yadi. Shu sababli teri har doim toza va sog'lom bo'lishi talab etiladi.

Tananing yagona qismi-faqat oyoq (panja) terisida ter chiqaruvchi bezlar mavjud. Itlar terlamaydi, shu sababli termoregulyasiya jarayonlari og'izni katta ochib, tilni osiltirib nafas olish orqali amalga oshiriladi. Tanadagi suyuqlik esa tez-tez nafas olish natijasida og'iz orqali bug'lanib chiqib ketadi.

Ichki sekretiya a'zolari tizimi. Bunday a'zolarga gormonlar deb ataluvchi, maxsus kimyoviy moddalar ishlab chiqaruvchi bezlar guruhi kiradi. Gormonlar bevosita qon va limfaga kelib tushib, tanadagi fiziologik jarayonlarni tartibga soladi. Epifiz, gipofiz, qalqonsimon, oshqozonosti, buyraksimon bezlari, urug'donlar (erkak itlarda), tuxumdonlar (urg'ochi itlarda) ichki sekretiya a'zolaridir.

ITLARNING YUQUMLI KASALLIKLARI

Itlarning yuqumli kasalliklari deb, mayda ko'zga ko'rinmas mikroorganizmlar tomonidan chaqirilib, kasal itdan sog'lom itga kontakt, havo tomchi va boshqa ta'surotlar natijasida o'tadigan kasalliklarga aytiladi. Yuqumli kasalliklar tabiatiga ko'ra yuqumsiz kasalliklardan farq qiladi. Bu kasalliklar birinchidan, organizmga kasallik qo'zg'atuvchi bakteriya, zamburug' yoki virusning kirishi oqibatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, qo'zg'atuvchi kasal itdan sog'lom itga o'tishi bilan xarakterlanadi. Ayrim yuqumli kasalliklar nafaqat itdan itga balki, itdan insonlarga ham o'tadi. Bunday kasalliklarga zooantroponoz kasalliklar deyiladi.

Yuqumli kasalliklar oqibatida ba'zi kasallikning turi qo'zg'atuvchining patogenlik xususiyatiga ega bo'lib, ayrim hollarda itning o'limi bilan yakunlansa, ba'zida kasal itlar tuzalib ketishi ham mumkin. Itlarning yuqumli kasalliklardan tez tuzalishi ko'p omillarga bog'liq, jumladan itning yoshi, oziqlantirish sifati, saqlash va parvarish qilishdagi shart-sharoitlar, it organizmining chidamliligi va immunitetiga bog'liq. Itlarni sifatsiz ozuqalar bilan oziqlantirish, organizmda vitaminlarning yetishmasligi, shamollash, qattiq charchash, sharoitning yomonligi kabi salbiy holatlar organizmning

yuqumli kasalliklarga qarshi immunitetini susaytiradi. Yuqumli kasalliklarni oldini olish maqsadida itlarni o'z vaqtida kerakli vaksinalar bilan emlash it organizmining chidamliligini oshirib, itda kasallikka qarshi immunitetning hosil bo'lishiga zamin yaratadi. Shuningdek, itlarni to'la qiymatli oziqlantirish, saqlash sharoitini yaxshilash va gigiena talablariga rioya qilish yuqumli kasalliklarni yuqish xavfini kamaytiradi.

Itlarning viruslar tomonidan chaqiriladigan kasalliklari

Quturish

Quturish – barcha sut emizuvchi hayvonlar, qushlar va odamlarning virusli kasalligi bo'lib, markaziy asab sistemasining og'ir shikastlanishi bilan kechadi. Kasallikni neyrotrop viruslar qo'zg'atadi.

Epizootologiyasi. Quturish dunyoni barcha davlatlarida qayd etiladi. Eski zamonda o'rmon Quturishi deb atalar edi. Asosan yovvoyi hayvonlar – bo'ri, tulki va boshqa hayvonlar kasallanadi. Ulardan kasallik qishloq xo'jalik hayvonlari va insonlarga yuqishi mumkin. Quturishga ayniqsa itlar oilasiga mansub hayvonlarda sezuvchanlik yuqori. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 90% holda it, hayvon va odamlarga quturish kasalligini yuqtiradi.

Kasal hayvon kasallik qo'zg'atuvchi manbai hisoblanadi. Virus kasal hayvon so'lagi orqali sog'lom hayvonga o'tib, kasallikning klinik belgisi 8-10 kundan keyin namoyon bo'ladi. Kasallik asosan bevosita kontakt yo'li bilan yuqadi. Quturgan it sog'lom itni tishlaganda virus so'lak orqali sog'lom itga o'tib, kasallik qo'zg'atadi. Hamma tishlangan itlar ham kasallanavermaydi. Bu so'lakning organizmga tushishi, virusning soni va virulentligiga hamda tishlangan jarohatning xarakteri va topografik joylashishiga bog'liq. Tishlangan joy miyadan qancha uzoq bo'lsa, kasallikning belgilari kechroq namoyon bo'ladi. Tishlanganda jarohatning chuqur bo'lishi va undan kam qon oqishi juda xavflidir. Bosh sohasidan yoki asab tolalarining tutamlari o'rnashgan joyidan tishlangandagi

jarohat ham o'ta xavfli hisoblanadi. Ba'zan kasallik teri shilinganda, yorilganda, tirnalganda, ko'zning shilliq pardasi orqali ham yuqadi.

Kasallik belgilari. Yashirin davr tishlangan joyga, jarohatning xarakteriga, virusning soni va virulentligiga bog'liq. Qisqa davri 7-10 ko'p bo'lib, 3-8 haftaga cho'zilishi mumkin. Ba'zan 6-12 oy davom etishi ham kuzatiladi. Lekin bunday holat juda kam uchraydi. Kasallik ko'pincha o'tkir kechib, klinik belgilari turlicha bo'ladi. Itlarda aksariyat, tipik holatda o'tadi. Kasallik shiddatli va tinch (paralitik) shaklda, shuningdek, abortiv va atipik holatda namoyon bo'ladi.

Kasallikka xos tipik belgilar sifatida itlarning jahldor bo'lishi, ko'zlarining qizarishi, og'zidan so'lak oqishi va suvdan qo'rqish – *gidrofobiya* hisoblanadi.

Falajlanish shakli 2-4 kun davom etadi. Itlar o'zini tinch tutadi, ishtahasi saqlangan bo'ladi. Pastki jag', halqum va orqa oyoqlar falajlanadi. Itning tomog'iga suyak tiqilganday ta'surot paydo bo'ladi. Shu holatda veterinariya mutuxassisi yoki hayvon egasi suyakni olib tashlash jarayonida quturishni yuqtirishi mumkin. Ayrim paytlarda itda gemorragik gastroenterit rivojlanadi.

Kasallikning atipik shakli yarim o'tkir kechishi, qo'zg'alish bosqichining yo'qligi bilan xarakterlanadi. Bunda ozish, motor muskullarning atrofiyasi ayrim paytlarda gastroenterit kuzatiladi.

Kasallikni abortiv shakli ikkinchi bosqichni boshlanishida kasallik to'satdan to'xtab qolishi bilan xarakterlanadi.

Tashxis. Quturish kasalligiga diagnoz epizootologik ma'lumotlar, klinik belgilar, patomorfologik, serologik tekshirishlar va bioproba asosida qo'yiladi.

Qiyosiy tashxis. Quturishni itlar o'lati, ensefalit, meningit va etsefalomielit, stomatit kabi kasalliklardan farqlash kerak. Itlar o'latining asab shaklining ayrim klinik belgilari ko'zg'aluvchanlik, orqa oyoqlarini falajlanishi quturish belgilariga o'xshash, lekin o'latda hech qachon pastki jag'ni falajlanishi kuzatilmaydi. Itlarda meningit va esefalomielitda qisman tajovuzkorlik va tishlashga intilish kuzatiladi.

Davolash. Kasallikni davolash usullari ishlab chiqilmagan.

Oldini olish va kurashish choralari. Quturish kasalligini oldini olish maqsadida O'zbekiston hududida barcha hayvonlar va shu jumladan itlar ham kasallikka qarshi emlanadi. Buning uchun itlar

3 oylik yoshidan boshlab har yili bir marotaba «Belrab», «Biokan-R», «EtoDEKS» kabi quturishga qarshi vaksina bilan veterinariya vrachlari tomonidan muntazam emlab boriladi.

Agar itda kasallik belgilari paydo bo'lishi veterinariya mutaxassislari tomonidan tasdiqlansa, kasallik paydo bo'lishi bilan itlarni maxsus karantin zonalarga olib borib saqlash amalga oshiriladi. Kasallikdan o'lgan itlarning boshi laboratoriyaga tashxis qo'yish uchun olib boriladi. Kasallikdan o'lgan it jasadlari maxsus pechlarda kuydirib yo'q qilinadi. Kasal hayvonlar turgan joylar ishqor eritmasi bilan dezinfeksiyalanadi. Agar it odamni yoki hayvonni tishlagan bo'lsa 10 kunga karantinga qo'yib kuzatiladi va bu to'g'risida Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markaziga xabar beriladi.

Itlar o'lati

O'lat – o'tkir, yuqumli virusli etiologik kasallik bo'lib, isitma, shilliq pardalarning yallig'lanishi, pnevmoniya, teri ekzantemasi va asab sistemasining zararlanishi bilan xarakterlanadi.

Epizootologik ma'lumotlar. O'latga barcha yoshdagi itlar sezuvchan, ayniqsa, it bolasi va yosh itlar. Kuchuklar sut emish davrida kamroq kasallanadi. Kolostral immunitet onasidan ajratilgandan keyin ikki haftagacha zararlanishdan saqlaydi, shundan keyin agar emlash olib borilmasa o'lat bilan kasallanishi mumkin. O'lat bilan kasallanishga sabab zoogigienik sharoitlari va oziqlantirishning yomonligi bo'lishi mumkin. Itlarda o'latga sezuvchanlik zotiga ham bog'liq. Itlarda gijjalari invaziyasi, matsioning yo'qligi, avitaminoz, sovuq, nam ob-havo, sifatsiz oziqlantirish kasallikning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Kasallik tez tarqaladi va qisqa muddat ichida boshqa itlarda ham kasallik rivojlanishi mumkin. Infeksiyaning asosiy manbai bo'lib kasal va o'lat bilan kasallanib sog'aygan itlar, shuningdek kasallikning yashirin davri kechadigan hayvonlar hisoblanadi. Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, o'latdan sog'aygan itlar 2-3 oygacha virus tashuvchi hisoblanadi. Kasal va sog'lom hayvonlar bir-biri bilan yaqin munosabatda bo'lsa itlar o'latini yuqtirishi mumkin, bundan tashqari to'shama va buyumlar orqali ham o'tishi mumkin. Kasal itdan sog'lom itga virusni odam, kemiruvchilar,

qushlar va hasharotlar tashib o'tishi mumkin. Infeksiya havo yo'llari va oshqozon-ichak trakti orqali organizmga kirib boradi.

Kasallik belgilari – kasallikning yashirin davri 2-3 hafta bo'lishi mumkin, bu hayvonning zotiga, yoshiga, saqlash va oziqlantirish sharoitiga hamda virusning virulentligiga bog'liq bo'ladi. Kasallik tana haroratining 1-3^o ga ko'tarilishi bilan boshlanadi. Bir yarim oylik it bolalarida kasallik atipik kechib tana harorati ko'tarilmasdan kechishi mumkin. O'lat kataral, asab va ekzantematos shaklida bo'lib, ular o'ta o'tkir, o'tkir va abortiv kechishi mumkin.

O'ta o'tkir kechgan vaqtda kasallik 2-3 kun davom etadi. Kasallikning boshlanish davrida tana harorati keskin ko'tariladi, hayvon ozuqasini rad etadi, komatos holatga tushib it o'ladi. Kasallik o'tkir kechgan vaqtda isitma bilan xarakterlanadi, tana harorati 39,5-41^o ko'tariladi va shu holatda 10-15 kun saqlanishi mumkin, ayrim hollarda 2-3 kundan keyin tushib, o'zgaruvchan isitma ko'tarilishi mumkin. Bunday vaqtda itning holati susaygan, oldin ishlab chiqilgan shartli reflekslar yo'qoladi, qaltirash kuzatilib, harakatchanlik yo'qoladi. Itni chaqirganda e'tibor qilmaydi, qorong'i joyga yashirinishga harakat qiladi, ovqatlanishga bo'lgan xohish yo'qolib, faqat oz miqdorda ta'mli ovqatni eyishi mumkin. Ayrim hollarda qayt qilish alomati paydo bo'ladi. Burnining terisi quriydi, yorilib, terisi ajralib tushadi. Bir-ikki kundan keyin tana harorati yuqori bo'lganligi uchun ko'zning ichki burchagidan seroz suyuqlik ajraladi, keyinchalik u yiringga aylanadi. Bunday holda qovoqlar yiring bilan yopishib, ko'zlar yopilib qoladi. Konyuktivit bilan birga rinit ham rivojlanadi. Burun teshiklaridan oldin seroz, keyin yiringli suyuqlik ajralib chiqadi. Buning ta'sirida burun teshiklari yopishib nafas olish qiyinlashadi, yo'tal paydo bo'ladi. Burun qichishi natijasida itlar uni oldingi oyoqlariga yoki biror-bir narsaga ishqalashga harakat qiladi. Shundan so'ng oshqozon-ichak tizimida kataral jarayonlar rivojlanadi, ich keta boshlaydi. Axlati suyuq, sariq yoki kulrang-sariq rangda, keyinchalik jigar rang bo'lib, yomon hid ajratadi. Ayrim paytlarda axlat massasida qonning ivigan parchalarini uchratish mumkin. Bunday hollarda to'g'ri ichakni shilliq pardasida gemorragik yallig'lanish rivojlanadi.

Asab sitemasi kasallikning oxirida, ayrim holatlarda boshlang'ich davrida ham zararlanishi mumkin. Bunday hollarda

qisqa qo'zg'alishdan keyin chaynash muskuli, bosh muskullari va oyoqlar tebranib qisqaradi. Shundan so'ng parez va orqa oyoqlarning falajlanishi rivojlanadi, itlar epilepsiya holatiga tushib, ko'p miqdorda so'lak ajraladi. Epilepsiya rivojlanganda kasal itlar qisqa vaqt ichida o'ladi.

Kasallik 3-4 haftadan bir necha oygacha cho'zilishi mumkin. Bunday vaqtda tana harorati asta-sekin pasayadi, ishtahasi o'zgaruvchan, ayrim paytlarda ich ketib, yo'tal paydo bo'ladi. Ko'rish, eshitish va ta'm sezish pasayadi. Ayrim itlarda holatining yaxshilanishi kuzatiladi, lekin 2-3 haftadan keyin bunda charchash, sovqotish alomatlari yuzaga kelishi mumkin. Asab tolalarining qo'zg'alishi natijasida og'riq paydo bo'ladi, uning kuchayishi natijasida kechalari itlar nolish tovushini chiqaradi. Bunday holda oxir oqibat kasallik itni o'limiga olib keladi. O'lat abortiv shaklda kechganda 1-2 kun ahvoli bir oz susayadi, keyinchalik sog'ayib ketadi.

Tashxis. O'lat kasalligi bilan kasallangan hayvonning hayotidagi tashxisi epizootologik ma'lumotlar va kasallik (seroz, yiringli konyunktivit, rinit) belgilariga asoslanib quyiladi. Kerak bo'lgan hollarda gematologik tekshirishlar va bioproba qo'yiladi.

O'latga o'lgandan keyingi tashxis patologo-anatomik o'zgarishlarga asoslanib qo'yiladi. O'lat kasalligi uchun xarakterli bo'lgan o'n ikki barmoqli ichak, to'g'ri ichak va qovuqdagi qon quyilishlar kabi belgilarga e'tibor berish lozim.

Qiyosiy tashxis – quyidagi kasalliklarning kasallik belgilari itlar o'latiga o'xshash bo'ladi: leptospiroz, pirop plazmoz, quturish, yuqumli gepatit va gijja invaziyasi.

Leptospiroz – gemorragik va sarg'ayma shaklida kechadi, birinчисida harorat 40-41⁰, va stomatit rivojlanadi. Itlar 2-3 kunda o'ladi. Sarg'ayma shaklida butun tana sarg'ayib ketadi.

Pirop plazmoz – o'tkir shaklida harorat 40-42⁰, nafas olish tezlashgan, siydigi qon aralash, shilliq pardalar sarg'aygan. Qon surtmalarida pirop plazmalar aniqlanadi.

Quturish – o'latning asab shaklidagi kasallik belgilariga o'xshash bo'ladi, ayniqsa so'lak oqishi. Quturgan itlarning oshqozonida begona jismlar bo'ladi. Gistologik tekshirishda Babesh-Negri tanachalari aniqlanadi.

Yuqumli gepatit – yuqori harorat bilan kechadi, asosan 1 yoshgacha bo'lgan itlar kasallanadi. Qayt qilish kuzatiladi, jigar kattalashgan bo'ladi.

Gijjalari invazyasi-toksokaroz, toksokaridozda ayrim paytlarda qayt qilish kuzatiladi.

Davolash. Kasallikning boshlanish davrida o'lat, gastroenterit, gepatitga qarshi polivalent zardoblar, Giskan-5, Kinoron biopreparatlarini qo'llash ham mumkin.

O'lat virus kasalligi bo'lganligi uchun immunitetni kuchaytiruvchi preparatlardan – anandin, immunomodulin dori vositalarini qo'llash tavsiya qilinadi.

Ikkilamchi infeksiyaning rivojlanishini to'xtatish maqsadida keng ta'sir etuvchi antibiotiklardan: *gentamitsin*, *oksamp*, *sefazolin*, boshlanish davrida sutkasiga 1-2 gr, 2-3 kundan keyin miqdori kamaytirib boriladi. Veterinariyada taklif etilgan antibiotiklar: *oksivet*, *oksitetratsiklin*, *tilozin*, 5 % li *enrofloks* va boshqalar 1 ml 10 kg tirik vaznga;

Nitrofurani preparatlardan: *furazolidon* 2 mg/kg kuniga 2 mahal;

O'lat bilan kasallangan itlarni himoya-moslashuv reaksiyasini oshirish maqsadida vitaminlardan askorbin kislotasi, V guruh (V_1 , V_6 , V_{12}) vitaminlaridan;

Kasal itlar organizmining modda almashinuvini yaxshilash uchun *katozal* 0,2-5 ml, *gamavit* 0,2-5 ml va boshqalar qo'llaniladi.

Kasal hayvon organizmida hosil bo'lgan toksin, zaharli moddalarni chiqarish va ularni neytrallashtirish maqsadida infuziya yo'li bilan: 5 % li *glyukoza*, 0,9 % li *natriy xlor*, *disol*, *atsesol*, eritmalari yuboriladi. Qayt qilish alomatlari kuzatilsa hayvon organizmiga uni to'xtatish maqsadida *seruglan*, *metokaprolamid* yuboriladi.

Simptomatik davolash uchun 50 % li *analgin*, 10 % li *kalsiy glyukanat*, 20 % li *kofoin* qo'llaniladi.

Ko'zda konyunktivit rivojlanganda kuniga 2-3 marta qora choy bilan yuviladi, ko'z tomchilaridan *levomitsetin*, *sofradeks*, surtmalardan *tetratsiklin*, *eritromitsin* qo'llash tavsiya etiladi.

Muskullar falajlanishida teri ostiga *prozerin* 0,5-1 ml. Miyadagi qo'zg'alishni pasaytirish va qon aylanishini yaxshilash uchun *glutamin* kislotasi 0,5-1 tab. 2 mahal beriladi.

Kasallik davrida parhez oziqlantirishga e'tibor berish lozim, kasal itga go'sht qiymasi, tvorog, guruch qaynatmasi berish tavsiya qilinadi.

Kasallikning oldini olish va kurashish choralari. Itlar saqlanadigan pitomniklarda dezinfeksiya ishlarini o'tkazish katta ahamiyatga ega, buning uchun 2-3 % li natriy ishqori, 2-3 % li xlorli ohak, 3 % li lizol qo'llaniladi, itning idishlari, buyumlari 2 % li xloramin eritmasida yuviladi.

Umumiy oldini olish tadbirlariga quyidagilar kiradi:

1) itlar o'lati kasalligi tarqalgan pitomniklardan kelgan itlarni olib kirmaslik;

2) pitomnikka yangi keltirilgan itlarni 30 kunlik karantinda saqlash;

3) ko'rgazma, musobaqalar tashkil qilinishidan oldin barcha itlar o'lat va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi emlanishi kerak;

4) saqlash va oziqlantirish qoidalariga rioya qilish;

5) muntazam ravishda dezinfeksiya ishlarini o'tkazish.

Barcha sog'lom itlar o'latga qarshi emlanadi. Emlash 2 oylik it bolalaridan boshlanadi, ular 14-21 kunda revaksinatsiya qilinadi. Birinchi marta emlashdan oldin it bolalari albatta degelmintizatsiya qilinishi kerak. Katta yoshdagi itlar bir yilda bir marta emlanadi. O'zbekiston hududida o'lat kasalligining oldini olish maqsadida «*Biovak*», «*Nobivak*», «*Multikan-4*», «*Multikan-6*», «*Multikan-7*» kabi vaksinalar qo'llaniladi.

Itlarning bakteriyalar tomonidan chaqiriladigan kasalliklari

Itlarning salmonellyoz kasalligi

Salmonellyoz – itlarning o'tkir kechuvchi yuqumli bakterial kasalligi bo'lib, asosan sutdan ajratilgan yoshdagi it bolalarida uchraydi.

Epizootologik ma'lumotlar: kasallik hamma joyda tarqalgan, ayniqsa nosog'lom xo'jaliklarda, 1-6 oylik it bolalari ko'proq kasal bo'ladi. Katta yoshdagi hayvonlar bakteriya tashuvchi hisoblanadi.

Kasallik yil davomida uchraydi va ko'p kina hollarda yashirin shaklda kechadi. Masalan, urg'ochi it bakteriya tashuvchi bo'lsa, sut emizish davrida kasallikni it bolalariga yuqtiradi. Itlarda kasallikni yuqtirishning asosiy manbai bu kasal hayvonlar, bakteriya tashuvchilar, bakteriya ajratuvchilar, salmonellyoz bilan kasallangan hayvonlardan olingan go'sht va go'sht mahsulotlari, mayda kemiruvchilar va axlatxonalaridagi tashlangan axlatlar hisoblanadi, ayrim ozuqalar: qon, go'sht-suyak, baliq unlari va kombikormlarda ham salmonellyoz qo'zg'atuvchilari topiladi. Bu ozuqalarni yegan hayvonlarda salmonellyoz kasalligi rivojlanishi mumkin. Kasallikning kelib chiqish omillariga quyidagilar kiradi: kichik maydonda ko'p hayvonlarni saqlash, oshqozon-ichak kasalliklarining mavjudligi, gijjalarning invaziyasi, ozg'inlik va it bolalarining oddiy ozuqaga o'tish davri. Bakteriyalarni tashuvchi hayvonlar muhim sanitar-epizootologik ahamiyatga ega. Bunday hayvonlar tashqi ko'rinishidan sog'lom bo'lib, ular salmonellalarni axlati va siydigi bilan tashqi muhitga chiqarib turadilar. Itlar orasida salmonellalarni tashish miqdori 1-18 % ni tashkil qiladi. Bunday hayvonlar organizmining rezistentligi pasayadi, bu esa infeksiyon jarayonning tarqalishiga olib keladi.

Kasallik belgilari. Kasallikning belgilari bir tomondan hayvonning yoshiga, umumiy holatiga, individual mustahkamligiga, ikkinchi tomondan qo'zg'atuvchining miqdori va virulentligiga bog'liq bo'ladi. It bolalarida kasallik o'tkir kechadi. Inkubatsion davri 3-5 kun. Ularda haroratning ko'tarilishi, ishtahaning yo'qolishi, umumiy susayish belgilari kuzatiladi. Kasal hayvonlar og'riqdan nolish qiladi, og'zidan ko'pik ajralib chiqadi. Ko'pgina hollarda hayvon ovqat yegandan keyin qayd qiladi. Hayvonlar vaznini tez yo'qotib, yurganda chayqaladi. Oshqozon-ichak trakti zararlanganda ich ketish paydo bo'ladi, axlati o'ta hidli, shilimshiq va ko'pgina hollarda qon aralashgan bo'ladi. Ko'p hollarda oshqozon-ichak trakti faoliyatining buzilishi, nafas olish organlarida asoratlarning rivojlanishi bilan bog'liq. Bronxopnevmoniya rivojlanib, burundan yiringli suyuqlikning ajralib chiqishi kuzatiladi. Nafas olish qiyinlashadi, o'pkada xirillash paydo bo'ladi. Ayrim hollarda asab belgilari paydo bo'lib, qo'zg'atuvchilik oshadi. Kasallikning bunday kechishida ko'pgina kasal it bolalari nobud bo'ladi.

Salmonellyoz kasalligining toksikoinfeksiya shaklida oshqozon-ichak trakti funksiyasini vaqtinchalik buzilishi kuzatiladi. Qisqa muddatli ich ketish, ishtahaning pasayishi, sustlik paydo bo'ladi. Oxir-oqibat hayvonlar sog'ayib ketadi.

Tashxis – Tashxis qo'yish vaqtida epizootologik ma'lumotlar, klinik belgilar va patologoanatomik o'zgarishlar inobatga olinadi. Diagnostika aniq qo'yish uchun qo'zg'atuvchini aniqlash maqsadida mikrobiologik tekshirishlar olib boriladi.

Davolash. Salmonellyozda keng doira ta'sir etuvchi antibiotiklarni, sulfanilamid va nitrofuran preparatlarini qo'llash tavsiya qilinadi. Bunday antibiotiklarga levomitsetin, tetratsiklin, siprofloksatsin kiradi. Veterinariyada qo'llaniladigan preparatlardan farmazin-50, enrofloks, oksitetratsiklin, makrolan, oksivet va boshqalar kiradi. Ularni qo'llash miqdori 1 ml 10 kg vaznga. Ichakdagi bakterial muhitni tiklash uchun bifidium bakterim, lakto bakterim, Lineks dori vositalaridan foydalanish mumkin. Suvsizlikning oldini olish maqsadida itlarning venasiga 0,9 % li fiziologik eritma, disol, atsesol eritmalarini belgilangan miqdorda 5-10 ml tana vazniga yuborish tavsiya qilinadi. Suvning o'rniga kaliy permanganatni past foizli eritmasini berish mumkin.

Tuberkulyoz – Sil kasalligi

Tuberkulyoz – surunkali yuqumli kasallik bo'lib, tugunchalar – tuberkulalar hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ayrim paytlarda saqlash va oziqlantirish sharoitlari buzilganda yoki ob-havoning sovuqlashishi va namlikning oshib ketishi natijasida kasallik o'tkir shakliga o'tadi.

Infeksiya manbai: itlar tuberkulyoz bilan kasal qoramollarning ichki organlarini, o'pka, nafas yo'llari organlarini xom ravishda eyishi natijasida o'ziga tuberkulyozni yuqtiradi. Bundan tashqari kasallik sut va sut mahsulotlaridan ham yuqishi mumkin, ya'ni tuberkulyozni yuqtirish yo'li – alimentar. Itlar tuberkulyoz bilan nafaqat ozuqa orqali, balki kasal odamlarning so'lagi va balg'ami orqali ham kasallanishi mumkin.

Tuberkulyoz bilan kasallangan itlar axlati va siydigi orqali qo'zg'atuvchini tashqi muhitga ajratib chiqaradi va undan odam va ayniqsa bolalar kasallikni yuqtirishi mumkin.

Kasallik belgilar. Tuberkulyozda klinik kartina organlarning zararlanishi va kasallikning kechish darajasi bilan bog'liq. Agar biror-bir organ zararlangan kasallikning belgilari aniqlanmaydi. Organizmning ko'p organlari zararlangan unda klinik belgilar yaqqol namoyon bo'ladi. Tuberkulyoz bilan kasallangan itlarning umumiy harorati yuqori bo'ladi. Yaxshi oziqlanishiga qaramasdan itlar nafaqat semirmaydi, balki oriqlashi mumkin. Hayvonlar tez charchaydi, ko'proq yotishga harakat qiladi. Agar o'pka zararlangan nafas olishi qiyinlashadi va yo'tal paydo bo'ladi. Ozuqa yeganidan keyin qayd qilishi mumkin. Agar ichak charvisidagi limfa tugunlar zararlangan, palpatsiya qilganda bu tugunlarning kattalashgani aniqlanadi. Bunday itlarda qorin bo'shlig'ida suyuqlik to'planadi.

Oldini olish va qarshi kurashish. Go'sht va go'sht mahsulotlarini astoydil tekshirish lozim. Tuberkulyoz bilan kasal qoramollardan olingan go'sht mahsulotlarini yaxshi pishirib berish kerak. Pitomniklarda itlar tuberkulyozdan o'lgan bo'lsa, boshqa itlar tuberkulinizatsiya qilib chiqiladi. Tuberkulyozga ijobiy reaksiya bergan itlar ajratilib o'ldiriladi. Ular turgan volyer va qafaslar dezinfeksiya qilinadi, to'shamalar yoqib yuboriladi.

ITLARNING INVAZION KASALLIKLARI

Invazion kasalliklar bu tabiatda keng tarqalgan kasalliklar guruhi bo'lib, ularni xo'jayin organizmida parazitlik qilib kun kechiruvchi kattaligi bir necha mikrondan bir necha metrgacha etadigan jonzorlar – bir hujayrali parazitlar, chugalchanglar, o'rgimchaksimonlar, hasharotlar va boshqa sinf hayvonlari chaqiradi. Chugalchanglar, ya'ni gelmintlarni o'rganadigan fan *gelmintologiya* deyiladi. Hasharot va o'rgimchaklarni o'rganadigan fan *araxnoentomologiya*, kanalarni o'rganadigan fan esa *akarologiya* deyiladi. Gelmintlar turli shaklda bo'lib, asosan ikkita katta sinf – yumaloq va yassi chugalchanglardan iborat.

Itlarning gelmintos kasalliklari

Gelmintozlar (gijja) – gelmintlarning itlar organizmiga biologik ta'siri natijasida rivojlanadigan kasallik. Ayrim gelmintlar

ham insonlarda, ham hayvonlarda parazitlik qilib kasallik chaqiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim gelmint turlari itlardan insonlarga o'tib, kasallik qo'zg'atishi mumkin. Jumladan exinokokkoz kasalligi odamlarda og'ir kechadigan, inson hayotiga tahdid soladigan kasallik jumlasidandir. Ko'rinib turibdiki ushbu kasallikni o'z vaqtida bartaraf etish nafaqat iqtisodiy, shu bilan birga ijtimoiy ahamiyatga ega.

Gelmintozlar 3 guruhga bo'linadi:

1. Nematodalar – yassi chualchangsimon gijjalar (askarida, exinokokk).

2. Trematodalar – so'rg'ichli chualchangsimon gijjalar (opistorxoz, fatsiolyoz)

3. Sestodlar – lentasimon gijjalar (gimenolepidoz)

Nematodlar – yumaloq shaklga ega parazit chualchanglar turkumiga kiradi, ingichka ichak va oshqozonda parazitlik qiladi. Uzunligi 6 mm dan 100mm gacha keladigan hajmdagi chualchanglar bor. Ular kovakli bo'lib, urg'ochisi erkagiga nisbatan yirikroq. Urg'ochi chualchanglar it axlati orqali tuxum yoki qurtlarini tashqariga chiqaradi. Kasallik og'iz, ozuqa yoki suv, chualchangning lichinkalari esa teri orqali o'tadi. Ular tanada oraliq «xo'jayin»siz rivojlanadi. Bu turdagi chualchanglar turkumiga: Taksokaroz, Askaridoz, Trixinellyoz kabi gelmintlar kiradi.

Trematodlar yassi chualchanglar turkumiga kirib, jigarning o't yo'llarida, o't pufagida, oshqozon va oshqozon osti bezi yo'llarida va ichaklarda yashaydi. Uzunligi 2,5 sm. dan 15 sm. gacha boradi. Barcha trematodlar germofroditlardir, oraliq (suv mollyuskalari)va qo'shimcha (baliqlar, hasharotlar) hujayralar ishtirokida rivojlanadi.

Sestodlar lentasimon chualchanglar turkumiga taalluqli. Katta chualchanglar it ichagida, qurtlari esa baliq, uy hayvonlari va hatto odam ichagida ham uchraydi. Uzunligi 0,6 sm. dan 15 sm gacha bo'lgan sestod ham germofroditlardir. Ular oraliq «xo'jayin» ishtirokida rivojlanadi. Gijja tuxumlari tashqariga itning axlati bilan chiqadi, keyinchalik ular o't va suvga aralashib ketadi. Ularni yegan uy hayvonlari (sigir, qo'ylar) kasallik yuqtirib oladi. Oraliq «xo'jayin» sifatidagi uy hayvonlari va odam organizmida qurtlarni o'z ichiga olgan kichik pufakcha shaklida faqat lichinkalar rivojlanadi. Itlarga bu kasallik kasal hayvonlarning go'shti va ichki a'zolarini iste'mol

qilganda yuqadi. Shuningdek, burga va kuyalar ham ushbu invazion kasallikning tarqatuvchilari hisoblanadi. Parazit chuvalchanglarning exinokokkoz, alveokokkoz, dipilidioz kabi gelmintlari parazit chuvalchanglarning ushbu turkumiga kiradi.

Gijjali kasalliklar yuqishining oldini olish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

– itlarni hayvonlar va baliqlarning xom ichki a'zolari bilan oziqlantirmaslik;

– ektoparazitlar (burga, kuya)dan saqlash uchun muntazam ravishda ularning tanasini tekshirib, tozalash, ishlov berish (obrabotka);

– itni boshqa it, hayvonlar va ayniqsa daydi kuchuklar bilan bevosita aloqa qilishiga yo'l qo'ymaslik;

– kasallikning belgilari paydo bo'lganda (itning axlatidan gijja topilsa) bu haqda veterinariya shifokoriga zudlik bilan xabar berish,

– har chorakda bir marta hamda emlashdan 10 kun oldin degelmintizatsiya (itlarga gijjaga qarshi dori vositalari berish) tadbiri o'tkazish talab etiladi.

Gijjalar yuqishining oldini olish va davolash uchun quyidagi preparatlardan foydalaniladi: piperazin, azinoks plyus, albeks, prazitabs. Itlar bilan ishlashda kasallikni yuqtirmaslik uchun shaxsiy gigiena qoidalariga qat'iy rioya qilish zarur.

Degelmintizatsiya – gelmintlarni barcha rivojlanish fazalarida yo'qotishga qaratilgan davolash-profilaktika tadbirlari majmui. Gelmintlar yuqqan itlar degelmintizatsiya qilinadi. Bu jarayon farmakologik antigelmintiklar yordamida (Prazitabs, Azinoks) amalga oshiriladi. Itlarni davolash (yilning har qanday davrida gelmintozlarning birdan tarqalishi yuz berganda), profilaktik (rejali ravishda gelmitozlar klinik ko'rinishlarining oldini olish uchun yilning ma'lum davrida); diagnostik (gelmintozlarning bor-yo'qligini aniqlash maqsadlarida) degelmintizatsiya o'tkaziladi.

Itlarning exinokokkoz kasalligi

Exinokokkoz – uzoq davom etadigan gelmintos kasalligi bo'lib, uni it, bo'ri va tulkilarning ingichka ichaklarida parazitlik qiladigan sestoda – *Echinococcus granulosus* qo'zg'aydi.

Epizootologiyasi. Exinokokk lichinkalari it, yovvoyi hayvonlarning axlati bilan yetilgan bo'g'inlar holatida tashqariga chiqib tarqaladi. Exinokokkning yetilgan bo'g'inlari faol harakat qila oladi. Harakat vaqtida bo'g'indan tuxumlar – onkosferalar chiqib, pichan va suvlarga tushadi. Ayrim bo'g'inlari hayvonning orqa chiqaruv teshigi atrofida qolishi ham mumkin. Bo'g'inlar hayvon tanasida o'rimalab yuradi va junida tuxumlarini qoldiradi. Bo'g'inlar harakat qilganda hayvon badani qichiydi. Natijada hayvon orqa chiqaruv organini turli narsalarga ishqalaydi yoki tili bilan yalab, parazit tuxumlarini tumshug'iga va atrofdagi narsalarga yuqtiradi.

Odam it bilan doimiy munosabatda bo'lib turgani uchun exinokokk bilan ko'p zararlanadi. Ayniqsa qishloqlarda egasiz itlar ko'p bo'ladi. Qishloq aholisi veterinariya vrachining ruxsatisiz uyida mol so'yadi va exinokokk pufagi bilan zararlangan jigar, o'pka va boshqa organlarni itlarga beradi. Natijada ular ichak exinokokkozi bilan takroran zararlanadi.

Kasallik belgilar. Itlarda ichak exinokokkozi kasalligining belgilari yetarlicha o'rganilmagan. Tajribadan ma'lumki ko'p exinokokk skolekslari yuqtirilgan itning qorni kattalashadi, ishtahasi pasayadi va ayrim vaqtlarda 1,5-2 oydan keyin halok bo'ladi. Bunday itlar o'ligi yorib ko'rilganda uning ingichka ichaklarida ko'p miqdorda exinokokk lentalarini borligi aniqlanadi.

Tashxis. Itlarning exinokokkoz kasalligi axlatida yetilgan exinokokk lentasi yoki bo'g'inlari borligiga qarab aniqlanadi. Hayvonning ichi ketishi bilan darhol axlati olinib yaxshi berkiladigan shisha idishga solib tekshirish uchun laboratoriyaga yuboriladi.

Oldini olish. Oldini olish uchun birinchidan, daydi itlarni, bo'ri va tulkilarni tugatish; ikkinchidan, so'yilgan chorva mollarning exinokokk pufaklari bilan zararlangan organ va to'qimalarini yo'q qilish yoki yuqumsizlantirish kerak.

Toksokariz va toksoskaridoz

Toksokar tuxumi odamlar uchun xavfli. Odam ichagida toksokara tuxumidan lichinkalar chiqib, ular qon aylanish tizimi bo'ylab harakat qiladi va shu davrda har xil organ va to'qimalarga tushib,

og'ir patologik jarayonni qo'zg'aydi. Shuning uchun odam fakultativ xo'jayin bo'lishi mumkin.

Epizootologiyasi. Askaridatozlar asosan yosh hayvon kasalligi hisoblanadi. Klinik belgilari 17-20 kunlik it bolalarida ma'lum bo'ladi. Ko'pincha invaziya 1-3 oylik itlarda ochiq namoyon bo'ladi. Invaziyaning ekstensivligi juda yuqori darajaga, intensivligi esa bir necha yuz nusxaga yetishi mumkin.

Kasallik belgilari. Itlar askaridatozlarining xarakterli belgilarida itlarning ozib ketishi, shilliq parda anemiyasi, ko'pincha ishtaha yo'qolishi, ich qotishi bilan almashinadigan ich ketishlar kuzatiladi. Ko'pincha qusish, epileptik talvasalanish ko'rinishidagi asab hodisalari namoyon bo'ladi. Yosh hayvonlarning qorni shishib, o'sish va rivojlanishdan orqada qoladi.

Tashxis. Klinik belgilarini kuzatish va Fyulleborn bo'yicha askarida tuxumi borligini aniqlash yo'li bilan tasdiqlanadi. Toksokara tuxumi katakchali, toksakaridlarda esa silliq bo'ladi.

Davolash. Itlar askaridozini davolashda piperazin, azinoks plyus, albeks, prazitabs preparatlari beriladi.

Askaridatozlarga qarshi kurash va oldini olish. It volyerlari va sayr maydonchalaridagi axlatlar o'z vaqtida tozalab turilishi zarur.

Oldini olish choralariga amal qilingan holda askaridalar bilan invaziyalangan hamma itlar gelmintizlantiriladi. Invaziyani o'z vaqtida aniqlash maqsadida yosh itlar har oyda, katta yoshdagilari esa har uch oyda kamida bir marta tekshiriladi.

Yosh itlar tug'ilganidan 25-30 kun o'tgach gelmintsizlantiriladi.

ITLARNING YUQUMSIZ KASALLIKLARI

Hozirgi paytda itlarda uchrayotgan yuqumsiz kasalliklar ham iqtisodiy zarar keltirmoqda. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari asosan itlarni saqlash, oziqlantirish va foydalanish sharoitlari me'yorga mos kelmasligidan deyish mumkin. Maqbul mikroiklim (binoning gaz tarkibi, harorati, namlik, yoritilishi) bilan ta'minlash, muntazam faol sayr, to'yimli va vitaminlarga boy ozuqalar bilan muntazam oziqlantirish, yaxshi parvarishlash, zoogigienik va

veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilish, itlar sog'ligini saqlash bo'yicha doimiy veterinariya nazoratini yo'lga qo'yish, klinik ko'rik va rejali dispanser tekshiruvini o'tkazish, ichimlik suvi va ozuqalarning sifati ustida doimiy nazorat o'rnatish uchun itlar saqlanadigan pitomniklarda ilmiy asoslangan sharoit yaratish imkoniyatini beradi.

Yuqumsiz kasallik deb, individual yoki guruhli holatda, tashqi va ichki omillar oqibatida kelib chiqadigan, kasal itdan sog'lomlariga o'tmaydigan kasalliklar guruhiga aytiladi. Yuqumsiz kasalliklarning kelib chiqish sabablari quyidagilar: mexanik shikastlanish, yuqori yoki past haroratning salbiy ta'siri; yomon parvarishlash, ular bilan qo'pol muomalada bo'lish. Bunday kasalliklar tashqi va ichki a'zolarining kasalliklari kabi guruhlarga bo'linadi:

Yuqumsiz kasalliklar itlarda uchraydigan kasalliklarning o'rtacha 94-96 foizini tashkil etadi. Shuning uchun ham profilaktik tadbirlar veterinariyada va xususan yuqumsiz kasalliklarga qarshi kurashishda asosiy o'rinni egallaydi. Profilaktik yo'nalishning asosiy maqsadi itlarni kasalliklardan saqlash hamda sog'lom, mustahkam konstitutsiyali va modda almashinuv darajasi yuqori bo'lgan xizmat itlarini yaratishni o'z ichiga olgan rejali tadbirlar tizimini amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Veterinariya amaliyotidagi yuqumsiz kasalliklarni davolash bo'yicha asosiy tadbirlardan biri S.I. Smirnov asos solgan guruhli davolash usuli hisoblanadi. Bir xil zot, bir xil ozuqa turi, bir xil modda almashinuvi sharoitlaridan tashqi muhitning noqulay ta'siri itlar organizmida bir xil buzilishlarni vujudga keltiradi. Bunday paytlarda itlarni parhez oziqlantirish, ratsionga vitaminlar va mineral aralashmalar qo'shish orqali guruhli profilaktik davolash amalga oshiriladi.

Yuqumsiz kasalliklar davrida guruhli monitoring qilish va kasallikni muvaffaqiyatli davolash hamda uning oldini olishga erishish uchun kasal hayvonlar quyidagi tartibda o'rganiladi:

- anamnez ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;
- kasallik belgilarini aniqlash maqsadida itni klinik tekshirishlardan o'tkazish;
- organizmdagi funksional o'zgarishlarni aniqlash maqsadida qon, siydik namunalarini laboratoriya tekshirishdan o'tkazish;

- kasallikning kelib chiqish sabablarini aniqlash (etiologiya);
- kasallikning rivojlanish mexanizmini aniqlash (patogenez);
- kasallikning tekshirishlar natijasida aniqlangan belgilarini tahlil qilish, tashxis qo'yish hamda o'xshash kasalliklardan farqlash (qiyosiy tashxis);
- kasallik oqibatini bashorat qilish (prognoz);
- davolash tartibini ishlab chiqish va davolash (terapiya);
- kasallikning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish (profilaktika).

Davolash usullari

Dorilar va davolash vositalaridan ma'lum maqsad vazifani ko'zlab foydalanishga davolash usullari deyiladi. O'zining maqsad va vazifalari yoki ta'siri oqibatiga ko'ra etiotrop, patogenetik, o'rin to'ldiruvchi(vikar), simptomatik, usullar farqlanadi.

Etiotrop usul. Bu usulning maqsadi kasallik sababchisini bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, kasallik chaqiruvchi omil organizmda yashab, hali o'z ta'sirini davom ettirib turgan paytda qo'llaniladi. Masalan, maxsus qon zardoblari, antibiotiklar, kimyoviy preparatlarni qo'llash kasallik chaqiruvchi hisoblangan mikroorganizmlarni o'ldiradi.

Patogenetik usul kasal hayvon organizmi himoyalanish kuchlarini patologik jarayonni yo'qotishga jalb etadi va unga stimullovchi ta'sir ko'rsatadi. Patogenetik usul etiotrop usul bilan birgalikda, a'zolar va to'qimalarning buzilgan funksiyalarini qayta tiklash va ichki muhitni me'yorlashtirish, organizm immunobiologik hususiyatlarni oshirish maqsadlarida qo'llaniladi. Bu ko'pincha etiologik omilning ta'siri tugagandan keyin qo'llaniladi. Shamollash, sinish, chiqish, lat eyish, kuyish, sovuq urish va boshqa shunga o'xshash ko'pgina patologik jarayonlar patogenetik usul bilan davolanadi.

Vikar terapiya (o'rin to'ldiruvchi) organizm hayoti uchun zarur bo'lgan moddalar kam ishlab chiqarilgan yoki tashqaridan kam qabul qilingan paytlarida ularning o'rnini to'ldirishga asoslangan davolash usuli. Itlarda o'tkaziladigan vitaminoterapiya(*vitaminizatsi*

ya) usulini bunga misol keltirsak bo'ladi. Vitaminoterapiya ko'pincha organizmga vitaminlar ehtiyojdan kam miqdorda tushganda yoki oshqozon-ichak kasalliklari oqibatida ularning so'rilishi yomonlashgan paytlarda qo'llaniladi. Masalan, trivit, tetravit, vitaminli baliq yog'i, S, B₁, B₆, B₁₂ vitamini preparatlari yoki vitaminlarga boy diyetik ozuqalarni qo'llash.

Simptomatik davolash usuli ham patogenetik usulga yordamchi usul sifatida kasallikning ayrim belgilarini yo'qotish va kasal itlarning ahvolini yaxshilash maqsadida qo'llaniladi. Bunda balg'am ko'chiruvchi, siydik haydovchi, surgi, haroratni tushiruvchi, og'riqni yo'qotuvchi, yurakka ta'sir etuvchi va boshqa dorilar, fizioterapiya hamda operativ usullardan foydalaniladi.

Hazm qilish organlari kasalliklari

Hazm qilish organlari tizim sifatida bir necha bo'limlardan tuzilgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos funksiyani bajaradi, ya'ni ozuqaga fizikaviy, kimyoviy-fermentativ va biologik ta'sir qilishi natijasida u singishi mumkin. Sog'lom hayvonning hazm qilish tizimi bo'limlari bir-biri bilan uzviy bog'langan holda vazifasini bajaradi.

Hazm organlarida har xil omillar ta'sirida patologik holatlar rivojlanishi yuzaga keladi. Ko'p hollarda bu noto'g'ri ratsion tuzish, ozuqani noto'g'ri kombinatsiya qilish, ularni tez almashtirish, muntazam oziqlantirmaslik, bo'ktirib yuborish, sifatsiz ozuqani berish, mineral yetishmovchilik va boshqalar natijasida kelib chiqadi. Bundan tashqari hazm qilish organlari faoliyatining buzilishi ko'p hollarda jigar, oshqozon osti bezi, buyrak, yurak, ichki sekretsia bezlari va boshqa organlarni zararlanishida kuzatiladi. Hazm qilish organlari kasalliklarining sabablarini, rivojlanish qonuniyatlarini, simptomlarini va davolash usullarini bilish, qisqa muddatda hayvonning sog'ligini tiklashga yordam beradi.

Stomatit

Stomatit – og'iz bo'shlig'ining yallig'lanishi bo'lib, yosh hayvonlarda qarilariga nisbatan ko'p uchraydi. Ular birlamchi, ikkilamchi hamda yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning simptomi

sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ko'pgina hollarda stomatit o'tkir, ayrim paytlarda surunkali kechadi. Kasallik jarayonining xarakteriga qarab kataral, yarali, difteritik, flegmanoz va gangrenozlarga bo'linadi.

Kasallik belgilar. Jarayonning xakteri va kasallikning bosqichlari hayvonning reaksiyasi bilan bog'liq, ya'ni dastlab so'lak oqishi, ozuqani sekinlik bilan olishi va chaynashi, suvni ko'p ichishi kuzatilib, og'iz bo'shlig'ining shilliq pardalari qizargan va kulrang qobiq bilan qoplangan bo'ladi. Agar shilliq parda tish yoki tosh bilan shikastlansa milkdan qon oqadi. Bordi-yu shilliq pardada yaralar hosil bo'lgan bo'lsa ular atrofida qobiqlar hosil bo'lib, atrofida yangi yaralar paydo bo'ladi. Og'izdan qo'lansa hid keladi. Ovqatni chaynash qiyinlashadi. Vaqtida to'g'ri davolash olib borilmasa gangrenoz stomatit rivojlanishi mumkin. Bunday hollarda jarayon shilliq pardaning keng yuzalariga va tagida yotgan to'qimalarga tarqaladi. Kasallik og'ir kechganda lab, lunj, til va suyakni ham zararlantirishi mumkin.

Tashxis. Tashxis qo'yishda anamnez ma'lumotlari va kasallikka xos klinik belgilar hisobga olinadi.

Davolash. Eng avvalo etiologik omillarni shilliq pardaga ta'siri yo'qotiladi. Og'iz bo'shlig'i yuviladi, buning uchun quyidagi eritmalardan foydalanish mumkin: 1-3 % li vodorod peroksidi, 1:5000 furatsilin. O'simliklardan tayyorlangan damlama va qaynatmalardan: moychechak, sariq choy, kalendula, eman po'stlog'ini qo'llash mumkin. Yallig'langan joylrga solkoseril, metragil denta bioral gelini qo'llash tavsiya qilinadi. Mushaklar orasiga keng ta'sir etuvchi antibiotik, sulfanilamid preparatlardan: ampitsillin, oksamp, penitsillin, omaksotsilin, streptotsid va boshqalarni qo'llash mumkin.

Qizilo'ngachning yallig'lanishi

Qizilo'ngach shilliq pardasining yallig'lanishi diffuz yoki o'choqli bo'lib, ishtahaning pasayishi va ozuqa luqmasini yutilishining buzilishi bilan xarakterlanadi.

Etiologiyasi. Itlarga issiq ozuqani berganda o'tkir uchli tovuq, baliq va boshqa hayvonlarning suyagini yutish vaqtida

qizilo'ngachning shilliq pardasini termik kuyishi va jarohatlanishi ta'sirida kelib chiqadi. Ayrim paytlarda qizilo'ngachni tiqilishidan keyingi asorati sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Kasallik belgilar. Qizilo'ngachda yallig'lanish rivojlanishi natijasida hayvon bezovtalanadi, faqat yumshoq ozuqani yeyishga harakat qiladi, yutinishi qiyinlashadi, uni juda sekinlik bilan amalga oshiradi, og'riq bo'lganligi uchun butunlay yutina olmasligi ham mumkin. Og'zidan shilimshiq so'lak oqib turadi, u ko'paygandan keyin it yo'talib chiqarib tashlashga harakat qiladi. Ba'zan qayt qilishi kuzatiladi.

Tashxis. Anamnez ma'lumotlari va klinik belgilarga asoslanib qo'yiladi.

Davolash. Kasallikni chaqiruvchi sabablar bartaraf etilishi kerak. Yutish oson bo'lishi uchun suyuq (sho'rva, bulon), shilimshiq (kisel, guruch qaynatmasi) ozuqa beriladi. Suvga oz miqdorda kaliy permanganat qo'shiladi. Yallig'lanish jarayoniga ta'sir qilish uchun kuniga ikki mahal streptotsid tabletkasi ezib beriladi. Mushaklar orasiga kuniga 2 mahal 250 ming TB ampitsillin yuborib turiladi.

Gastroenterit

Gastroenterit – Oshqozon va ichakning tutashgan yallig'lanishi. U kataral, gemorragik, flegmonoz yoki difteritik bo'lib, o'tkir yoki surunkali kechadi. Gastroenteritlar birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin.

O'tkir gastroenterit – oshqozon va ichakning yallig'lanishi bo'lib, uning ifodalanishi patologik jarayonning og'irligiga bog'liq.

Etiologiyasi. Eng asosiy sababi bu hayvonlarga sifatsiz ozuqa mahsulotlarini ishlatish va noto'g'ri oziqlantirishdir. Masalan hayvonni bo'ktirish, oshqozondagi ozuqaning achishi yoki bijg'ishi natijasida zaharli moddalar paydo bo'ladi, ular ichakka o'tib patologik jarayonni rivojlantiradi. Shu bilan birga doimiy ravishda pishirilgan ozuqa bilan oziqlantirish hazm qilishning buzilishiga sabab bo'lib, keyinchalik gastroenteritning rivojlanishiga olib keladi.

Gastroenteritlar gastroenterotrop zahar natriy florid bilan zaharlanish, kuchli kuyish, yuqumli kasalliklardan o'lat, gastroenteritdan kelib chiqadi. Uzoq vaqt ochlik ham gastroenteritning rivojlanishiga olib keladi. Ratsionning keskin o'zgarishi izsiz qolmaydi. Ko'p hollarda gastroenterit it bolalarida, ayniqsa ona sutidan oddiy ozuqaga o'tish davrida kuzatiladi. Bunday holatda oshqozon va ichakning shilliq pardasini yallig'lanishi, mikroblar faoliyati va ozuqa moddalarning parchalanishidan hosil bo'lgan mahsulotlarning ta'siridan kelib chiqadi.

Bunda so'lak ajralishi ko'payib, puls susayadi, qorachiq torayadi. Peristaltika jarayoni kuchayadi, defekatsiya akti tezlashadi, shilliq ko'p ajralib chiqadi. Shilliq ozuqani o'rashi natijasida unga fermentlar ta'sir qilishi qiyinlashadi, bu bijg'ish jarayonini kuchaytirib gaz va organik kislotalar ajralishiga olib keladi. Ichakni kislotali muhiti bilan bir vaqtda oshqozon shirasi giperatsid sekretiysiyasi kuzatiladi.

Ishqorli katar asosida ichakni sekretor funksiyasining etishmovchiligi yotadi, chirituvchi bakteriyalar ustun kelib, yo'g'on ichaklarda ozuqadagi oqsillar parchalanib zaharli moddalar – toksalbuminlar (indol, skatol, parakrezol)ni hosil qiladi. Bu zaharli moddalar ichakni shilliq pardasini qitiqlab yallig'lanish jarayonini chaqiradi. Kuchli shilliq ishlab chiqish boshlanadi, u fermentlarni ozuqa massasiga ta'sirini kamaytiradi, bu esa chirish jarayonining rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Ishqorli katarda simpatik inasabatsiyaning ta'siri kuchayadi. Natijada shilliq pardalar qurib, suvsash kuzatiladi. Puls tezlashishi, arterial bosimning yuqori, ichaklarning peristaltikasi susayishi, defekatsiya kamayganligi, axlati esa yaxshi shakllangan va shilliq bilan o'ralgan bo'lib, toksik moddalarning ta'sirida eritrotsitlar gemolizga uchraydi. Bu esa shilliq pardalarning sarg'ayishiga olib keladi.

Kislotali va ishqorli katarda eritrotsit va gemoglobinning kamayishi va leykotsitlar sonining ko'payishi kuzatiladi. Kislotali katarda limfotsitlar, ishqorlida neytrofillarning soni ko'payadi.

Gastroenteritlar zaharlanish, terining kuchli kuyishida, nefritda, sovuq qotganda, o'latda, yuqori haroratda rivojlanishi mumkin.

Kasallik belgilar. Yengil shaklida itlar sust, qulog'i va dumi tushirilgan bo'ladi. Vaqti-vaqti bilan nolish qiladi, qorong'u joylarga

yashirinishga harakat qiladi. Yuqori haroratda bo'ladi. Qon aralash qusishi mumkin. Jarayon ichaklarda rivojlansa birinchi o'rinda ich ketish kuzatiladi. Axlati suyuq, hazm qilinmagan ozuqa qoldiqlari bo'lib, hidi sassiq, qon aralash bo'lishi mumkin.

Kasallik og'ir kechganda qusish va ich ketishi kuzatiladi, suvsash kuchayadi, ishtahasi pasayishi yoki umuman bo'lmasligi ham mumkin. Puls tezlashadi, qorin sohasi og'riydi. Davolash olib borilmasa 2-3 kunga borib kollaps rivojlanib, it o'ladi.

Umumiy tushkun holatda it befarq bo'lib yotadi. O'rnidan zo'rg'a turib, umumorganik holsizlik kuzatiladi. Siydik ajralishi kamayadi va unda oqsil aniqlanadi. Shilliq pardalari qizargan, juni xurpaygan bo'ladi. Axlati sassiq, rangi qizil-loyqasimon, tarkibida qon, shilliq, yiring va ko'p miqdorda ichak va shilliq pardaning epiteliy hujayralari bo'ladi. Kasallik bir yoki ikki hafta va undan ortiq ham davom etib, surunkali kechishi ham mumkin.

Tashxis. Anamnestik ma'lumotlar, klinik belgilar inobatga olinadi va axlatini laborator tekshirishlari natijasiga asoslanib qo'yiladi.

Davolash. Kasallikni keltirib chiqaruvchi omilni yo'qotish kerak. Iloji boricha tezlik bilan oshqozon-ichak traktini ozuqa massasidan bo'shatish kerak. Buning uchun sun'iy qayt qildirish mumkin: teri ostiga 0,002-0,005 apomorfin yuborib yoki surgi dorilar – kastor yog'i, senadeks beriladi. Birinchi kun it och qoldiriladi, keyinchalik yengil hazm bo'ladigan parhez ovqat beriladi. Suvga oz-moz natriy karbonat qo'shib beriladi.

Og'riqni kamaytirish uchun 0,2 % li platifilin 1 ml teri ostiga, ketonal 1 ml mushaklar orasiga yoki venaga, 0,1 % li atropin sulfat 1 ml mushaklar orasiga yuboriladi, ranitidin 1 tabletk 2 mahal beriladi.

Antibiotiklardan gentamitsin venaga, metranidazol 100 gr venaga yuboriladi, xlor tetratsiklin 1 tabletk 2 mahal, levomitsetin 0,01-0,05 g/kg, sulfanilamindlardan sulgin 0,5-2 g, ftalazol 1 tabletk 2 mahal, biseptol-480 1 tabletk 1 mahal beriladi. Organizmning suvsizlanishini oldini olish uchun 0,9 % li fiziologik eritma 200-400 gr, 5 % li glyukoza 250 gr vena qon tomiriga yuboriladi.

Klizma qilish ham tavsiya qilinadi. Buning uchun quyidagi eritmalardan foydalanish mumkin: 1 % li ixtiol, 1 % li natriy

gidrokarbonat, harorati 40-43° bo'lib, 2-3 litr miqdorida yuboriladi. Moychechak damlamasidan 200 gr. ham foydalanish mumkin.

Surunkali gastroenterit – Bu sekin rivojlanadigan oshqozon va ichakning yallig'lanishi bo'lib, bunda yallig'lanish jarayoni shilliq parda, shilliq osti kletchatka, muskul qavati va seroz pardaga tarqaladi.

Etiologiyasi. Ko'pgina hollarda surunkali gastroenterit o'tkir gastroenteritning oqibati bo'lib hisoblanadi. Shuningdek o'zi alohida rivojlanishi ham mumkin, ya'ni hazm qilish tizimiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar ta'sirida sovuq yoki haddan tashqari issiq ozuqani bergan vaqtda kasallik rivojlanadi. Surunkali gastroenterit boshqa organ va tizimlarning patologik holatidan ham kelib chiqishi mumkin: asab tizimi, yurak qon-tomir, jigar, oshqozon osti bezi, buyrak, shuningdek avitaminoz, o'smalar ta'sirida fermentlarni ishlab chiqilishi buziladi.

Klinik belgilar. Hayvonlarda progressiv ozish kuzatiladi. Itlarning harakati sustlashib, ozuqani xohlamasdan, majburan yeydi. Og'iz bo'shlig'idagi shilliq pardalar o'zgargan bo'lib, stomatit rivojlanadi va tez-tez qayt qiladi. Unda hazm bo'lmagan ozuqa, shilliq va qon ham aralashadi. Axlati qo'lansa hidli, hazm bo'lmagan ozuqa parchalari bo'ladi. Chirish jarayoni kechsa axlatda ammiak ko'payadi, bijg'ish jarayonida esa organik kislotalar bo'ladi. Kechiktirilgan holatlarda itning sog'ayishi qiyin.

Tashxis. Klinik belgilar va tezakni laborator tekshirishlar natijasiga asoslanib qo'yiladi.

Davolash. Asosiy e'tiborni ozuqaning tarkibi va sifatiga qaratish lozim. Davolashni surgil dorilarini berish va oshqozon, ichaklarni yuvishdan boshlash kerak. Buning uchun chuqur klizma qilinadi. Shundan so'ng qotiradigan va dezinfeksiya qiluvchi moddalar qo'llaniladi: tanin 0,1-0,5 g, eman po'stlog'i 1-5 g, mavrak bargi 3-6 g 3 mahal; moychechak 1-3 g, vikalin 1-2 tabletka beriladi. Oshqozon shirasida kislotalik pasaysa quyidagi tarkibda sun'iy oshqozon shirasi beriladi: xlorid kislota 5 g, pepsin 4 g, distillangan suv 300 g 1 osh qoshiqdan 3 mahal. Ozuqa massasi oshqozon-ichak traktida ushlanib qolmaslik uchun ovqatdan 1 soat keyin 1-2 g karlovar sun'iy tuzi beriladi. Bundan tashqari simptomatik davolash

olib boriladi: biseptol 240, 480 1 tabletkadan 2 mahal, doksitsiklin gidroklorid 1 kapsula 1 mahal, og'ir kechganda 2 mahal, festal 1 tabletkada 2 mahal, tuz-suv balansini tiklash uchun venaga 0,9 % li fiziologik eritma, disol 200 g, S, B₆, B₁₂ guruh vitaminlari qo'llaniladi.

QULOQ KASALLIKLARI

Quloqning yallig'lanishi (otit)

Hayvonlarining eshitish organlari uch qism: tashqi, o'rta va ichki quloqdan iborat.

Tashqi quloq (*auris externa*) quloq suprasi va uni harakatlantiruvchi yordamchi organlardan tuzilgan.

O'rta quloq (*auris media*) tashqi quloqdan keyin kelib, quloq suyagi bo'shlig'ida joylashadi. U nog'ora parda, to'rtta eshitish suyakchasi, muskul va paylardan iborat. Bularning hammasi yordamchi eshitish organlari hisoblanadi.

Ichki quloq (*auris interna*) eshitish organlarining eng muhim va murakkab qismidir. Bu suyak labirint va parda labirintdan iborat bo'lib, parda labirint funksiyasi jihatidan ichki quloqning asosiy qismidir. Suyak labirint bilan parda labirint morfologik jihatdan bir-biriga o'xshash bo'ladi.

Quloqning yallig'lanishi (otit). Tashqi va o'rta quloqlarning yiringli yallig'lanishida hayvonlarda quyidagi klinik belgilar kuzatiladi: itlar kuchli bezovtalanadi, boshini muntazam ravishda qimirlatib turadi. Palpatsiya qilinganda mahalliy harorat va og'riq sezilarli bo'ladi. Quloqdan hidli yiringli eksudat oqib turadi. Hayvonning ishtahasi pasayib, umumiy holati susaygan bo'ladi.

Yiringli otit bilan kasallangan itlarni konservativ usul bilan davolashda quyidagi davolash ishlari olib boriladi: tashqi va o'rta quloq 3 % li vodorod peroksidi bilan yuvilib, dioksidin, gidrokartizon, adrenalinal aralashmasidan 2-3 tomchidan kuniga 2 mahal tomiziladi.

Itlarda quloq kasalliklarini jarrohlik yo'li bilan davolash

Yiringli otitlar vaqtida va davolash mobaynida to'g'ri davolanmasa, yallig'lanish jarayoni surunkali bosqichga o'tadi. Bunday holatlarda itlarda quyidagi klinik belgilar seziladi: quloqdan har doim hidli yiringli eksudat oqib turadi, bu hayvonga bezovtalik olib keladi, yiring eshitish yo'llarida to'planib qoladi. Itning bezovtalanishi natijasida ishtahasi pasayadi, tinmasdan boshini silkitib turadi. Bunday hollarda davolash asosan jarrohlik yo'li bilan olib boriladi. Operatsiya qilishdan maqsad, eshitish yo'llarida ko'p miqdorda to'planib qoladigan yiringli eksudatning tashqi muhitga erkin chiqib ketishini ta'minlashdir.

Ko'rsatma. Operatsiya surunkali yiringli otitlar bilan kasallangan itlarda olib boriladi.

Og'riqsizlantirish. Mahalliy infiltratsion 0,5 % li novokain eritmasi bilan og'riqsizlantiriladi, neyrolepanalgeziya 2,5 % li aminazin 1 ml 10 kg tirik vazniga, ketamin (kolipsol) 0,5 ml 10 kg tirik vazniga vena qon tomiriga yuboriladi.

Asboblari. Har doim ishlatiladigan asboblardan tashqari ko'z qaychisi, skalpel ishlatiladi.

Fiksatsiya. It yonboshga yotgan holatda fiksatsiya qilinadi.

Texnikasi.

Bu operatsiya ikki xil usulda olib boriladi:

1. Eshitish kanalida oqma teshik hosil qilish;
2. Eshitish kanalini to'liqcha ochish.

Birinchi usulda eshitish kanalining pastki qismida teri aylana shaklida kesiladi va kesim eshitish kanalining tog'ayigacha kesib boriladi. Tog'ayning devori ham aylana shaklida kesiladi, qon oqish to'xtatilgandan keyin teriga uzlukli chok qo'yiladi. Jarohat bitgandan keyin shu joyda oqma hosil bo'ladi va undan to'xtovsiz quloqdagi eksudat erkin chiqib ketadi. Bunday holatda surunkali otitning sog'ayishi tezlashadi. Bu usulni asosan itlarda ham bajarish tavsiya qilinadi. Chunki bunda teridagi nuqsonni sog'aygandan keyin tez yo'qotish mumkin.

Ikkinchi usulda eshitish kanalining tashqi tomonidan pastga qaratib teri burchak shaklida kesiladi. Qon oqish to'xtatilgandan

keyin xuddi shunday shaklda tog'ay qismi kesiladi. Shundan so'ng tashqi va ichki teri qavatlari bir-biriga uzlukli chok bilan birlashtiriladi. Jarohat bitganidan keyin o'rta quloqda to'plangan yiringli ekssudatning bemalol tashqariga chiqib ketish imkon tug'iladi. Bu esa surunkali yiringli otitni tezroq sog'ayishiga imkon yaratadi. Chunki itlarda yiringli ekssudat patologik jarayondan to'xtovsiz tashqi muhitga qanchalik ko'p chiqib ketsa, uning sog'ayishi tezlashadi.

KO'Z KASALLIKLARI

Konyunktiva yallig'lanishi mexanik, fizik, kimyoviy va biologik omillar ta'sirida kelib chiqadi.

Mexanik shikastlanishlar – yot jismlar ta'siri, kipriklarning ichkariga qaytib qolishi; qovoqlarning tashqariga va ichkariga qaytib qolishi, yopilmay qolishi va boshqalar.

Konyunktivitlar simptomatik bo'lishi ham mumkin. Masalan: itlar o'lati, inflyuensa, qoramollarning kataral isitmasi, parrandalarning chechak differiti. Konyunktivitlar ko'zning himoya a'zolari (teri, ko'z kosasi, ko'z yoshi bezi, shox parda) kasalliklari oqibatida ham yuzaga keladi va aksincha.

Konyunktivitlarning tasniflanishi: keltirib chiqaruvchi sabablar va ekssudatning xarakteriga qarab: aseptik yoki kataral, fibrinozli, yiringli va spetsifik (tuberkulyozda) bo'ladi. Kechishi bo'yicha o'tkir va surunkali; jarayonning chuqurligiga qarab yuzaki va chuqur (parenximatos yoki to'g'rirog'i flegmonozli); itlarning uchinchi qovoq follikullari zararlanishida – follikulyar konyunktivitlar uchraydi.

O'tkir kataral konyunktivitning etiologiyasi yuqorida keltirilgan. Bu kasallik barcha qishloq xo'jalik hayvonlarida tez-tez uchrab turadi. Bu kasallikda konyunktivaning epitelial qatlami va bazal membranasi yallig'lanadi. O'tkir shaklida ular ekssudat va hujayrali elementlar bilan infiltratsiyalanadi, surunkali shaklida esa u yerda biriktiruvchi to'qima o'sadi.

Klinik belgilar. O'tkir yallig'lanishda blefarospazm – qovoqlarning yopilishi, ya'ni yorug'dan qo'rqish; ko'zning ichki burchagidan

loyqasimon – shilimshiq xarakterga ega ko'z yoshi oqishi kuzatiladi. Konyunktiva qizargan va shishgan, og'riqli, mahalliy harorati oshgan bo'ladi.

Surunkali yallig'lanish hayvon oriqlaganda, qariganda (ko'z cho'kadi), A vitaminning miqdori kamayishi va lizotsimning aktivligi pasayishida rivojlanadi. O'tkir shakliga qaraganda ancha yengil kechadi – yorug'dan qo'rqish belgilari yo'qoladi, ko'z yoshining oqishi doimiy, lekin kam miqdorda, quyuq, shilimshiq bo'ladi; konyunktiva quruq, qizarmagan, ko'kimtir rangda bo'lib, venalar yuzaga bo'rtib chiqadi. Kasallik uzoq vaqt davom etsa kiprik va qovoqlar ichkariga qaytib qoladi.

Oqibati. O'tkir shaklida yengil davolaniladi. Surunkalida esa uzoq vaqt davolashni talab qiladi.

Davolash. Sabablari yo'qotiladi. Ekssudatsiyani kamaytirish uchun qotiruvchi (burishtiruvchi) moddalar 0,25-2 % li sink sulfati, 2-8 % li protargol, 3 % li natriy tetraborati, 1-2 % li rezorsin tomchilari tomizdiriladi. Kuchli og'riq bo'lsa 0,05 % li dikain, 1:1000 adrenalin gidrokloridi qo'llanadi. Undan tashqari retrobulbar novokain qamalini va Filatov usuli bo'yicha to'qimali terapiyani qo'llash tavsiya etiladi.

Yuzaki yiringli konyunktivit shikastlanish, organizmning rezistentligi pasayganda, yuqumli kasalliklarda, gipovitaminozlarda va boshqa holatlarda rivojlanadi. Sun'iy ravishda tuberkulinizatsiya va malleinizatsiyada ijobiy reaksiya sifatida chaqirilishi mumkin.

Klinik belgilar. Kasallangan konyunktiva og'riqli, mahalliy harorati oshgan bo'ladi; yorug'dan qo'rqish holati kuzatiladi. Yuzaki qon tomirlar qizaradi. Konyunktiva shishadi, yuzasi yiringli – shilimshiq ekssudat bilan qoplanadi. Shilimshiq pardada nekroz, yara va eroziyalar uchraydi. Davolash ishlari samarasiz kechadi va davolanish cho'zilib ketganda konyunktiva ko'z soqqasiga qarab o'sib kiradi.

Oqibati. O'z vaqtida davolansa xavotirga o'rin qolmaydi. Davolanish kechikib qolganda esa, jarayon shox pardaga o'tishi, qovoq ko'z soqqasi bilan o'sib birlashishi mumkin.

Davolash. Kataral konyunktivitdagidek, undan tashqari qo'shimcha tez-tez va uzoq vaqt katta konsentratsiyada antibiotik

va sulfanilamidli preparatlar yuboriladi. Kasallik boshlanishi davrida novokainga gidrokortizon, antibiotik qo'shib, retrobulbar qamal qilish yaxshi natija beradi. Og'riqni qoldiruvchi moddalar bilan malham va linimentlar surtiladi. Qovoq va ko'z soqqasi o'sib bir-biriga yopishib ketganda ular kesib ajratiladi, yuzalarini kuydirish uchun kumush nitrat (lyapis) bilan yuvish va so'ng malhamlar surtish lozim.

Chuqur yiringli konyunktivit. Kasallik asosan subkonyunktival to'qimasining flegmonasi shaklida kechadi. Mustaqil tarzda u jarohatlanishda, jarayon yuzada joylashgan to'qimalardan o'tganda va ayrim infeksiyon kasalliklarda rivojlanadi.

Klinik belgilar. Kasallik ikkala qovoqlarni egallab, konyunktivaning kuchli shishishi, quruqligi, yorilishi va yuzasidan qon tomchilashi bilan xarakterlanadi. Konyunktiva to'q-qizg'ish rangga kirib, usti yiring bilan qoplanadi. Keyinchalik absesslar rivojlanadi. Flegmonoz jarayon yiringli – rezorbtiv isitma alomatlari bilan kechadi.

Oqibati. Serozli ekssudatsiya bosqichida jarayonni to'xtatish mumkin. Absesslanishda esa qovoq va ko'z bir-biri bilan yopishishib ketadi. Og'ir holatlarda panoftalmitning rivojlanish xavfi bor.

Davolash. Davolash prinsipi etiopatogenetik terapiyani kasallik bosqichiga mos tartibda qo'llashni ko'zda tutadi. Hayvonga tinch sharoit yaratiladi. Antibiotik – novokain qamali qo'llanadi. Konyunktival xalta iliq dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan namlanadi, unga antibiotikli va sulfanilamidli linimentlar va malhamlar kiritiladi. Absesslarni qovoq chetiga parallel holda kesib ochish lozim. Qovoqlar ko'z bilan yopishishining oldi olinadi. Jarayon sohasida malhamlarni massaj qilib surtish, konyunktiva ostiga natriy xloridning gipertonik eritmasini yuborish taqiqlanadi.

Follikulyar konyunktivit deb uchinchi qovoqning ichki yuzasida limfatik follikullarning yallig'lanishiga aytiladi. Kasallik madaniylashtirilgan it zotlari orasida tarqalgan. Etiologiyasi to'liq aniqlanmagan. Kasallik odatda infeksiyadan kelib chiqadigan intoksikatsiya, modda almashinuvining buzilishi, ultrabinafsha nurlari yoki gul changining ta'siri (allergiya) va gipovitaminozlardan kelib chiqadi deb hisoblanadi.

Klinik belgilar. Dastlab yorug'likdan qo'rqish, ko'z yoshi, keyinchalik esa yiringli – shilimshiq ekssudat oqishi kuzatiladi. Ko'z

atrofi qichishadi. Uchinchi qovoq shishadi, qizaradi; ichki yuzasida joylashgan follikullar kattalashadi, qizaradi. Keyinchalik blefarit, kipriklar to'kilishi, qovoq chetlarining yo'g'onlashishi va ichkariga qaytishini kuzatish mumkin.

Oqibati. Odatda yaxshi. Ammo ayrim hollarda retsidiv bo'lishi mumkin.

Davolash. Tomchi shaklida dezinfeksiyalovchi eritmalar, malham shaklida kortikosteroidlar; A.N. Golikov va S.T. Shitov bo'yicha bo'yinning yuqori yulduzsimon simpatik tuguni qamali, to'qimali terapiya usuli qo'llaniladi. Samarali natija beradigan usul – uchinchi qovoqning ichki yuzasini kumush nitratli tayoqcha bilan kuydirishdir (preparatning ziyodasi 1 % li natriy xlorid eritmasi bilan yuvib tashlanadi). Bu muolaja 2-4 marotaba bajariladi. Kuydirishdan so'ng kuchli reaksiya hosil bo'ladi va u 2-3 kundan keyin yo'q bo'ladi. Qayta kuydirishni 5-7 kundan so'ng takrorlash mumkin. Kuydirish yordam bermasa uchinchi qovoq ekstirpatsiya qilinadi.

Ko'z konyunktivasining shikastlanishi ko'pincha qovoq to'qimalarining jarohatlanishi bilan kechadi. Shikastlanishlarning kelib chiqishiga ko'zga yod moddalarning tushib qolishi ham sabab bo'ladi.

Konyunktival xaltaga tushib qolgan jism odatda katta shikastlanish paydo bo'lishiga olib kelmasada, lekin doim kuchli og'riqli reaksiyani chaqiradi. Shu sababli hayvon kuchli bezovtalanadi va ko'zga kirib qolgan yod narsani chiqarib tashlashga harakat qiladi. Yod jismning yana bir xavfli tomoni – u ko'zning parenximatos qavati va shox pardasini shikastlab, mikrofloraga yo'l ochishi mumkin.

Klinik belgilar. Konyunktival xaltaga yod modda yoki jism tushib uni shikastlaganda yorug'dan qo'rqish alomatlari, ko'z yoshining oqishi, qovoqlarning yopishib qolishi o'ta kuchli bo'lganidan, ba'zida og'riqsizlantiruvchi moddalar yordamida ham qovoqlarni ochish qiyin bo'ladi. Qovoqlar ochilgandan so'ng konyunktival xaltada yod jism topiladi. Konyunktivaning shilliq pardasi qizargan, shishgan va shilimshiq eksudat bilan qoplangan bo'ladi.

Konyunktiva jarohatlangan bo'lsa unda har xil kattalikda va chuqurlikda to'qima butunligining buzilishlari, qon oqishi, og'riq va jarohat chetlarining kengayishini kuzatish mumkin.

Davolash. Konyunktival xalta og'riqsizlantiruvchi dori vositasi (5-10 % li novokain eritmasi) bilan yuvilib, yod modda olib tashlanadi. Uni pinset, ignaning uchi, osh tuzi eritmasiga namlangan kichik tampon yordamida olish yoki antiseptik eritma bilan yuvib tashlash mumkin.

Agar konyunktiva jarohatlangan bo'lsa, u ingichka ipak ligatura bilan choklanadi. So'ngra jarayonga antiseptik kukunlar purkaladi, streptotsidli, sulfatsil natriyli malham surtiladi, ichiga antibiotiklar, furatsilin eritmasi tomizdiriladi.

Qon oqqanda yengil sovuq bog'lam qo'yiladi; gematoma hosil bo'lsa, qonni shpris bilan so'rib olish yoki to'qimani kesib uni oqizib yuborish lozim. Konyunktivaga kuydiruvchi modda tushganda u yuvib tashlanadi (suv, osh tuzining izotonik eritmasi). Undan keyin gidrokortizon, mikroblarga qarshi malham, linimentlar kiritiladi; ko'zning qovoq bilan birgalikda o'sib yopishishini oldini olish maqsadida sulfanilamidlarning glitserinda 1:30 aralashmasi yoki 3 % li natriy sitrati eritmasi qo'llaniladi.

Keratitlar – ko'zning shox pardasi kasalliklari orasida eng ko'p tarqalgan. Shox pardada qon tomirlar bo'lmasa ham u yerda yallig'lanish jarayoni rivojlanadi. Yallig'lanish konyunktival, episkleral va perikorneal tomirlarning yallig'lanish giperemiyasi va shox pardaning vaskulyarizatsiyasi bilan bog'liq.

Tasniflanishi. Keratit turlari yallig'lanish xarakteriga qarab aseptik, yiringli va spetsifik; sababiga ko'ra allergik, neyrodistrofik, maxsus, travmatik; kechishiga qarab o'tkir va surunkali; joylashishi bo'yicha yuzaki, chuqur yoki stromal va uveal bo'lishi mumkin.

Etiologiyasi. Keratitlar har xil mexanik, fizikaviy, kimyoviy va biologik omillar ta'sirida birlamchi, yuqumli kasalliklarda (it va qoramollar o'lati, invazyalar) ikkilamchi bo'lishi mumkin. Shox pardaning anatomik joylashishi unga konyunktiva va rangli parda tomonidan yallig'lanish jarayoni o'tishiga sabab bo'ladi.

Keratitlarning umumiy simptomatologiyasi. Barcha o'tkir kechuvchi keratitlarga xos belgilar: ko'zdan avval ko'z yoshi, keyinchalik esa yiringli – shilimshiq suyuqlik oqishi, blefarospazm, og'riq, shox pardaning yuzaki yoki chuqur vaskulyarizatsiyasi, uning usti har xil qalinlikda oq – sarg'imgir rangli parda bilan qoplanishi, erroziyalanishi; yaralar hosil bo'lishi.

Yuzaki kataral keratit – ko‘z shox pardasi yallig‘lanishining eng yengil shakli bo‘lib, shox pardaning epiteliyi va boumenov qatlami zararlanishi bilan xarakterlanadi.

Klinik belgilar. Zararlangan epiteliy o‘rnidan ko‘chishi sababli shox pardaning tashqi yuzasi oqish tusga kirib xiralashadi. Jarayon og‘ir kechganda bir nechta keng yoki ko‘p sonli erroziyalar rivojlanadi. Undan tashqari yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan belgilar ham kuzatiladi.

Oqibati – yaxshi, ba‘zi hollarda xiralashgan joylarning so‘rilib ketishi uzoq vaqtgacha cho‘ziladi.

Davolash. Birinchi navbatda sababi bartaraf etiladi. Mahalliy kaliy yoditi malhami yoki uning 5-10 % li tomchilari qo‘llaniladi; V.P. Filatov bo‘yicha to‘qimali terapiya, shox parda atrofiga yoki retrobulbar novokain qamali bajariladi, yiringlashning oldini olish uchun antimikrobl preparatlarni qo‘llash lozim.

Yuzaki yiringli keratit – mustaqil kasallik sifatida konyunktivitdan o‘tganda, infeksiya tushganda, itlar o‘latida hosil bo‘ladi.

Klinik belgilar. Asosiy belgilar yuzaki kataral keratitlarga xos: konyunktival tomirlarning giperemiyasi, shox pardaning yuzaki vaskulyarizatsiyasi, yorug‘likdan qo‘rqish, yiringli – shilimshiq ekssudat oqishi. Faqat xiralashish sarg‘ish tusda bo‘ladi.

Oqibati. Ehtiyotkor. Yallig‘langan joyda chandiq qolib, ko‘rish qobiliyati qisman yoki to‘liq buzilishi mumkin.

Davolash. Turli shaklda mikroblarga qarshi vositalar qo‘llanadi, kasallik boshida novokainli va kortikosteroidli terapiya, oxirida esa to‘qimali terapiya va kaliy yoditi malhami qo‘llanadi.

Rikketsiozli konyunktivo–keratit keng tarqalgan kasallik. Rikketsiyalar – ko‘zning shox pardasi va konyunktiva epiteliyi hujayralarining yadro va sitoplazmasida yashaydigan parazitlar. Ular sharsimon, tuxumsimon yoki gantelsimon (sport anjomi) shaklida bo‘ladi. Surtmalarda ular Romanovskiy – Gimza bo‘yicha bo‘yaladi. Kasallik ko‘p hollarda enzootiya va epizootiya shaklida kechadi. Kasallik ko‘pincha yozda, chang va ultrabinafsha nurlari ko‘p bo‘lganda rivojlanadi. Ammo u yilning barcha fasllarida ham kuzatiladi.

Kasal itlar ko'zining shox pardasi va konyunktivasida rikketsiyalar 83 kungacha yashaydi. Kasallik havo va boshqa yo'llar orqali tarqaladi.

Klinik belgilar. M.V. Plaxotin bo'yicha kasallikning 6 bosqichi mavjud:

1 – bosqichda seroz – kataral konyunktivit rivojlanib, u 6-12 kun davom etadi.

2 – bosqichda shox parda xiralashadi, yuzasida eroziyalar paydo bo'ladi, 2-14 kun davom etadi.

3 – bosqich hujayrali infiltratsiya bilan xarakterlanib, shox pardaning yuzasi oqish tusga kiradi. Jarayon 7-14 kun davom etadi.

4 – bosqich shox pardada abscess rivojlanishi va chuqur yiringli keratit belgilari namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi.

5 – bosqich 33 kun davom etib, shox pardada yarachalar paydo bo'ladi.

6 – bosqich chandiqlanish va yallig'lanish alomatlarining pasayishi bilan xarakterlanadi.

Kasallik dastlabki uch bosqichda aseptik, keyinchalik esa yiringli kechadi.

Rikketsiozli telyazioz, A gipovitaminozi va infeksiyon rinotraexitdan farqlash lozim.

Davolash. Bu kasallikning dastlabki 5 bosqichlarida simvoli dori vositalarini qo'llash tavsiya etilmaydi, chunki ular shox parda nekrozini chaqirishi mumkin. Penitsillin ham kor qilmaydi.

Samarali dori vositalaridan sulfanilamidlar (sulfazol, streptotsid, natriy sulfatsili), bitsillin-1, bitsillin-2 va bitsillin-3 hisoblanadi. Tetratsiklin qatoriga kiruvchi antibiotiklar chaqiruvchiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bitsillin bilan penitsillin aralashmasi, polivinil spirtida tetratsiklin eritmasi, baliq moyida eritromitsin, oletetrin, dibiomitsin va sintomitsin emulsiyasi va 15 % li propolisni qo'llash yaxshi natija beradi. Dori vositasining ta'sirini uzaytirish maqsadida M.V. Plaxotin taklif qilgan maxsus ko'z plyonkalari qo'llaniladi.

Retrobulbar novokain qamalini sulfatsil natriyli malham (30 % li) yoki 10 % li sintomitsin emulsiyasi bilan birgalikda qo'llaganda kasallikning kechish muddati qisqaradi.

3-, 4-, 5- va 6 - bosqichlarda 0,2; 0,4 va 0,6 Vt/sm² kuchlanishga ega ultratovushli terapiyani qo'llash kasallikni 2-2,5 marotaba qisqartiradi.

Oldini olish choralari. Kasallik yoppasiga ta'sir qilishi uning faslligi, kasallanadigan hayvonlar yoshi, infeksiya transmission va bevosita kontaktli yo'l bilan yuqishi, ultrabinafsha nurlar ta'siri hisobga olinadi. Itlar harakatlanishi chegaralanadi. Yangi keltirilganlari karantinga qo'yiladi. Profilaktik maqsadda har kuni shartli – sog'lom hayvonlarning konyunktival xaltasiga sintomitsin emulsiyasi yoki sulfatsil natriyli malham kiritiladi.

Panoftalmit – ko'z soqqasi pardalarining birlamchi yoki ikkilamchi o'tkir yiringli yallig'lanishi, ular orasida va bo'shliqda yiring to'planishi va barcha qismlarining buzilishidir.

Etiologiya. Ko'zning yuzaki va kirib boruvchi (ayniqsa ekvator qismida) jarohatlari, alohida qismlarning yiringli jarayonlari, infeksiyon kasalliklar (yirik shoxli hayvonlarning hatarli kataral isitmasi, manqa va boshq.), ko'z rikketsiozining eskirgan yiringli shakllari, qoramollarda tomirli traktning infeksiyon yallig'lanishi va boshq..

Klinik belgilar. Infeksiyaning kirib borish yo'li va birlamchi o'choqning joyi bilan bog'liq holda, jarayon shox parda, sklera, kipriksimon tana, tomirli, rangli va to'r pardalardan boshlanishi mumkin. Yiringli rezorbsiya belgilari – tana haroratining ko'tarilishi, holsizlanish, ishtahaning yo'qligi va boshqa alomatlar kuzatiladi. Qovoqlar va konyunktiva shishadi. Tomirlarning perikorneal in'eksiyasi rivojlanadi. Shox parda sarg'ish rangda bo'lib, diffuz xiralashadi. Yorug'likning qisman o'tkazuvchanligida, ko'zning old kamerasida sarg'ish yoki yashil rangli yiring to'planadi.

Ko'z kameralarida o'zgarishlar kuchli bo'lganda uni qorachiq orqali tekshirish imkoni bo'lmaydi. Ammo u yerda sinn paxchalarning erib ketishi, gavharning xiralashishi va o'rnidan siljishi, shishasimon tana, to'r parda va xorioideyaning yiringli zararlanishi, to'r va tomirli pardalarning asosdan ajralishi hosil bo'ladi. Keyinchalik yiring limfatik yo'llar orqali bosh miyaning pardalar osti bo'shliqlariga o'tadi va meningit, ensefalit, sepsis rivojlanib, hayvon o'limiga olib keladi.

Kasallikning nisbatdan yengil kechishida ko'z ichidagilar fermentolizga uchraydi, ko'z o'z strukturasi to'liq yo'qotadi va atrofiyaga uchraydi.

Itlarda limb, rangli parda, shishasimon tanalar eriydi, gavhar o'z o'rnidan qisman yoki to'liq siljiydi, ko'zning ichi esa granulyatsion to'qima bilan to'ladi. Ko'z atrofiyaga uchraydi, yallig'lanish jarayoni so'nadi ammo ko'rish qobiliyati tiklanmaydi.

Oqibati. Barcha holatlarda xavotirli.

Davolash. Mahalliy va umumiy antiseptik terapiya: sulfanilamidlar, antibiotiklar, Kadikov–Plaxotin bo'yicha kamforali zardob, vena orqali 10 % li kalsiy xloridi eritmasi va boshqa vositalar qo'llanishi shart. Ko'zning ekzenteratsiya va evisseratsiya operatsiyalari tavsiya etiladi. Operatsiyada limb bo'ylab shox parda kesiladi va ko'z ichidagi barcha to'qimalar olib tashlanadi. Bunda qovoqlar va konyunktivaning ham olib tashlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

TERI VA TERI OSTI KASALLIKLARI

Teri itlarning tanasini tashqi tomondan o'rab turadigan murakkab tuzilgan qobiqdir. Teri organizmning tashqi muhit bilan bog'lanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi, itlar o'z terisi orqali tashqi muhit ta'sirini sezadi va unga tegishli ravishda javob ko'rsatadi. Teri tarkibida besh xil retseptorlari ya'ni og'riq, sovuq, issiq, bosim va kuchsiz ta'sirlarni sezish retseptorlari mavjud. It ular yordamida tashqi tomondan berilayotgan biron-bir qitiqlovchi ta'sirotni qabul qilib oladi,

Qitiqlovchi ta'sir etuvchilar natijasida teri retseptorlarida qo'zg'alish paydo bo'ladi va u asablar orqali oldin orqa miyaga, keyinchalik esa bosh miyaning markazlarigacha yetib boradi. Teri retseptorlari asab hujayralarining uchlari orqali ichki a'zolarni tashqi muhit bilan bog'lab, ularning bir butunligini ta'minlaydi.

Ekzema – yallig'lanish xarakteriga ega bo'lgan terining yuza qatlamining kasalligi bo'lib, birlamchi, ikkilamchi toshmalarning ko'payishi va qayta hosil bo'lishi bilan kechadi. Ekzema – yunon tilidan olingan so'z bo'lib «qaynash» ma'nosini bildiradi, ya'ni qaynagan suvning yuzasida hosil bo'ladigan pufakchalarga o'xshash

pufakchalar terining yuzasida paydo bo'ladi. Hayvonlar orasida ko'proq bu kasallik itlarda, keyin otlarda, mushuklarda va shoxli mollarda uchraydi.

Ekzema o'tkir, yarimo'tkir va surunkalilarga bo'linadi. Ular chegaralangan va tarqoq bo'lib ularning har biri nam ekzema shaklida kechishi mumkin. Surunkali ekzema ko'p hollarda quruq bo'ladi. Ekzemalar quyidagilarga bo'linadi: reflektor, nevropatik, jarohat yonidagi yoki paratravmatik.

Etiologiya va patogenez. Ekzemalarning etiologiyasi va patogenezining ko'pgina detallari hozirgacha o'z yechimini topmagan. P.V. Nikolskiyning fikricha, ekzemalarning kelib chiqishida asab sistemasining holati katta ahamiyatga ega. M.K. Petrova axtalangan hayvonlarda dermatit va ekzema tajribada chaqirilgan nevrozda yengil paydo bo'lishini aniqlagan. Ekzemalarni rivojlanishida (ichki sekretiya bezlarini) endokrin sistemasining asab sistemasiga patologik ta'sir qilishidagi roli bilan bog'liqligi, natijasida simpatik neyrotrofik boshqaruvda buzilishlar hosil bo'ladi.

Klinik jihatdan bu eng avvalo fizikaviy, kimyoviy, biologik va boshqa omillarning terini bir qismida qitqlovchi ta'siridan kelib chiqadi. Ekzemani rivojlanishida modda almashinuvining buzilishi katta ahamiyatga ega. Shuningdek nervnotrofik, endokrin, alimentar va boshqa omillar ham mavjud. Chunki teri funksional ichki organlar va ichki sekretiya bezlari bilan mustahkam bog'liq, ularning funksiyalarining buzilishi yoki biror-bir kasallik paydo bo'lishi ekzema va dermatitlarni rivojlanishiga sabab bo'ladi. Buni quyidagicha izohlash mumkin. Oshqozon-ichak yo'llarida me'yorda hosil bo'ladigan zaharli mahsulotlarni asosiy qismi tashqi muhitga chiqib ketadi. Qonga so'rilgani esa jigarda dezintoksikatsiya qilinib buyrak orqali chiqariladi. Oshqozon-ichak yo'llarining to'siq funksiyasi buzilsa, jigar va buyrak kasallansa zaharli moddalarni ko'p qismi teri orqali chaqiriladi. Natijada ular teriga ichki tarafdin ta'sir qila boshlaydi.

Shunday qilib ekzo va endogen zaharli moddalar sistematik ravishda sensibilizatsiyalangan teriga tushib turishi ekzema va dermatitlarni kelib chiqishiga olib keladi.

Ekzogen omillardan quyidagilar ahamiyatga ega:

a) mexanik (ishqalash, qashimoq, parazitlarni ta'siri);

b) terini mikroblar bilan va boshqa ifloslanishi;

v) kimyoviy;

g) nurlanish va termik (qizish, sovqotish).

Endogen omillardan: angiovegetativ nevrozlar, qalqonsimon bez va tuxumdon faoliyatining buzilishi, avitaminozlar, gastrit, nefrit, gepatit, gepatokolitsistit, ich ketishi va qotishi inobatga olinishi kerak.

Kasallik belgilari. O'tkir ekzemalar toshmalarni polimorfizmi bilan xarakterlanadi. Ekzema rivojlangan joyda uning har xil bosqichlarini kuzatish mumkin.

Eritema davrida mahalliy giperemiya, haroratni oshishi va chidab bo'lmaydigan kuchli qichishish paydo bo'ladi. Shu joylariga infeksiya kirib og'irlashadi. Ko'p o'tmay terining shu joylarida tugunchalar hosil bo'ladi (papula) va jarayon papulyoz bosqichiga o'tadi. Tugmacha shaklidagi tugunchalarni rangi qirmizi qizil bo'lib, ular terining yuzasida bo'rtib turadi. Keyinchalik ularning ichida oqimshil seroz eksudat paydo bo'ladi va jarayonda vezikulyoz bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda eksudatsiya kuchayadi va jarayon pustulyoz bosqichiga o'tadi. Bu bosqichda leykotsitar infiltratsiya kuchayadi va tugunchadagi suyuqlikni rangi xiralashib yiringsimon holatda bo'ladi. Bu esa pustula, ya'ni yiring xaltacha hosil bo'lishiga olib keladi. Xaltachalar yorilib yiring tashqariga chiqadi va shu joyda qizil erroziyalar hosil bo'ladi. Teri nam bo'lib qoladi va jarayon kam ekzema bosqichiga o'tadi. Bu bosqichda zararlangan teridagi junlari tushib qoladi, qolgani eksudat bilan yopishib qoladi. Ochiq havoda eksudat qurib qobiqchalar hosil bo'ladi. Qobiqchalarni hosil bo'lishi nam bosqich jarayoni qobiqlanish bosqichiga o'tganligini ko'rsatadi. Bu bosqichda yallig'lanish jarayoni susayadi, qon aylanish tiklanadi va qobiq tagida epidermizatsiya kechadi. Epidermis bilan qoplangan teri yaltirab ustida qozg'oq paydo bo'ladi va jarayon qozg'oqlanish davriga o'tadi. Yallig'lanish tugashi bilan teri asl holatiga qaytib meyoriy jun bilan qoplanadi. Ekzemaning bu jarayoni 2-4 hafta davom etadi.

Davolash. Ekzemada davolashni erta boshlash kerak, bunda kechish bosqichi inobatga olinadi. Mahalliy davolash kam hollarda qisqa muddatda sog'ayib ketishga olib keladi. Shuning uchun

davolashni laborator tekshirishlar natijalariga asoslanib kompleks ravishda olib borish zarur. Olingan natijalarga asoslanib mahalliy va umumiy davolash belgilab olinadi. Unda ekzemani yo'qotishga va uni kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillar yo'qotiladi. Shu bilan birgalikda organizmni desensibilizatsiya qilish maqsadga muvofiq. Buning uchun itlarning vena qon tomiriga 20 % natriy tiosulfat 1-2 ml dan boshlab 20-40 ml ga yetkazib boriladi. Har kuni 1-2 ml qo'shib borilib, jami 10-20 ml in'eksiya qilinadi. Vena qon tomiriga 10-15 ml 5-7 kun davomida 10 % li natriy brom, 10 % kalsiy xlor aralashmasini qo'yish yaxshi samara beradi. Vitamin preparatlaridan retinol, tiamin, riboflavin, riboflavin-mononukleotid, askorbin kislotasi, kalsiy pantotenat itlarni katta-kichikligiga qarab 1-2 ml bir kunda 1-2 marta yuboriladi. Agar ekzema surunkali gastrit, jigar kasalliklari, vegetativ buzilishlardan kelib chiqsa bunday hollarda kasalliklar simptomatik davolanadi. «Ekzema suvdan qo'rqadi», mahalliy davolash o'tkazilganda shuni inobatga olish kerak. Ekzema rivojlangan joy 1 marta suv bilan neytral sovun qo'llab yuvilishi mumkin. Keyinchalik 70 % spirt bilan artib turiladi. Surtmalardan dermazol, seliderm, selistoderm, triderm, sinaflam va boshqalar 1 kunda 2 mahal surtib turiladi.

Dermatit – bu toshma hosil qilmasdan terining yallig'lanishi. Etiologik va klinik belgilariga ko'ra dermatitlar: travmatik, medikamentoz, termik nurlanish (rentgen), jarohat oldi, sugalli, nekrobatsillyozli, parazitlar (qichima, temiratki) kabi bo'ladi.

Davolash. Mahalliy va umumiy ta'sir etuvchi dori vositalar kelib chiqish sabablari va klinik belgilariga asoslanib olib boriladi.

Abscess (xuppoz) – kletchatka yoki boshqa to'qimalarning chegaralangan yiringli yallig'lanishi. Bu jarayon atrofga tarqalmay, sog' to'qimalardan aniq chegara bilan ajralib turadi va atrofi yiringli parda bilan qoplangan bo'ladi.

Uning kelib chiqishiga asosiy sabab organizmda shikastlanish yoki jarohatlanish natijasida to'qimalarning yiring chaqiruvchi mikroblar bilan zararlanishidir. Abscessning paydo bo'lishida yiring chaqiruvchi mikroblar, xususan, streptokokk, stafilokokk, kriptokokk, ko'k yiring tayoqchasi, ichak tayoqchasi, sil tayoqchasi, aktinomitsetlar va boshqa zamburug'lar asosiy rol o'ynaydi.

Ba'zan abscesslar kimyoviy moddalarning organizmga tushishi yoki yuborilishi natijasida hosil bo'ladi. Jumladan, kerosin, skipidar, kroton moyi, xloralidrat.

Tasniflanishi. Abscesslar o'tkir, yarim o'tkir, surunkali; aseptik va infeksiyali; yuzaki va chuqur; bezarar va yomon sifatli (xatarli); metastatik, sovuq va oqma abscesslar bo'lishi mumkin.

Rivojlanish bosqichiga qarab shakllanuvchi, yetiladigan va yetilgan abscesslar bo'lishi kuzatiladi.

Yetilgan yuzaki abscesslar – oson aniqlanib, yengil kechadi va o'z-o'zidan yorilib bitadi. Teri abscesslari chuqur yiringli – nekrotik jarayonlarda (artrit, osteomielit) hosil bo'lishi mumkin.

Chuqur abscesslar – aniqlanishi qiyin bo'lib, og'ir kechadi. Ko'pincha yiring atrof to'qimalarga yoki anatomik bo'shliqlarga o'tishi natijasida asoratlar kuzatiladi. «Uyqudagi» infeksiya o'choqlarini hosil qiladi.

Bezalar abscesslar – jarayon atrofida mustahkam granulyatsion to'siqning rivojlanishi va infeksiya bostirilishi bilan xarakterlanadi. Bunday abscesslar 5-7 kun ichida rivojlanadi. Yiringning rangi sarg'ish bo'lib, spetsifik hidga ega. Yiringxona devorlari pushti rang yoki qizil tusda granulyatsion (piogen) to'qima bilan qoplangan bo'ladi. O'lgan to'qimalar bo'lmaydi. Bunda mikroblar o'ladi.

Zararli abscesslar – generalizatsiyaga moyilligi bor jarayon. Yallig'lanish shishi issiq, tarqalgan, og'ruvchan. Bunday abscesslar tezda flegmonaga aylanishi mumkin. Ular mikrobnining virulentligi kuchli bo'lsa va giperergik yallig'lanishda hosil bo'ladi.

Yiring qo'ng'ir tusda, suyuq, sassiq. Mikroblar tirik holatda. Yiringxona devorlari o'lgan to'qimalar bilan qoplangan. Piogen parda to'liq rivojlanmagan, nekrozga chalingan, abscess bo'shlig'ida to'qimali cho'ntaklar va o'yiqlar mavjud. Kechishi asosan o'tkir, kam hollarda surunkali. Surunkali kechishida ular sovuq bo'lishi mumkin (sil abscessi).

Sovuq abscess – surunkali kechadi va kechikib yetiladi. Yallig'lanish belgilari kuchsiz, mahalliy harorat va og'rik past. U gipoergik yallig'lanish reaksiya asosida kechadi. Devorlarining tuzilishi zamburug'simon, ko'kimtir rangda bo'lib, nekrozga chalingan granulatsiya bilan qoplangan. Abscess yorilgandan so'ng o'rnida oqma hosil bo'ladi.

Oqma abscess – sovuq abscessning bir xili bo‘lib, odatda yiring sovuq abscessdan chiqib qon tomirlar va asablar bo‘ylab muskullar orasiga, fassiyalar ostiga va boshqa bo‘shliqlarga oqib tushishidan hosil bo‘ladi.

Metastatik abscesslar – o‘tkir kechadi. Mikroblar birlamchi o‘choqlardan qon va limfa orqali parenximatos a‘zolarga: taloq, bosh miya, oshqozon va ichaklarga tarqaladi va u yerda metastatik abscesslar rivojlanishini chaqiradi. Bunday abscesslar ko‘pincha metastazli sepsisda kuzatiladi.

Skipidarli abscess – bunday abscessning yiringida mikroblar bo‘lmaydi. Boshqa holatda uning ichiga tananing barcha joylaridan mikroorganizmlar to‘planadi. Buning uchun skipidarli abscessni yana fiksatsion deb ataydilar va ayrim hollarda uni davolovchi usul shaklida qo‘llaydilar.

Flegmona – nekroz jarayonlari yiringli jarayonlardan ustun kelgan holda, teri osti kletchatkasi va boshqa to‘qimalarning chegaralanmagan o‘tkir yiringli yoki chirish bilan kechadigan yallig‘lanish jarayonlariga flegmona deb aytiladi.

Tasniflanishi – birlamchi flegmonalar yuqumli kasallikni chaqiruvchi mikroblar bilan zararlangan jarohatlar va shikastlanishlarda, ochiq suyak sinishlarida rivojlanadi. Ikkilamchi flegmona esa o‘tkir yiringli infeksiya natijasida (xuppoz, yiringli artrit, osteomielit) va infeksiyaning «uyqudagi» shaklining jonlanishida hosil bo‘ladi.

Flegmonalar to‘plangan ekssudatga qarab quyidagilarga bo‘linadi: yiringli, yiringli-gemorragik, chirituvchi va gaz hosil qiluvchi flegmonalar. Topografik joylashishiga qarab: teri osti, subfassial, mushaklararo va g‘ilofli flegmonalarga bo‘linadi.

Yiringli flegmona – eng ko‘p uchraydi va asosan streptokokklar ta‘siri natijasida hosil bo‘ladi. Xarakterli belgilaridan biri – yiringli abscesslar rivojlanib yorilgandan so‘ng o‘rinlarida cho‘ntaklar va o‘yiqalar qoladi. Vaqtida va to‘liq davolanmasa bu jarayon sepsisga aylanishi mumkin.

Teri osti flegmonasi – ko‘pincha seroz va yiringli flegmona shaklida kechadi. Flegmonada hosil bo‘lgan shish yaqqol ko‘zga tashlanib, usti tarang tortilgan bo‘ladi. Abscesslar paydo bo‘lgan joyda flyuktuatsiya seziladi.

Fassiya osti flegmonasi – teri osti flegmonasiga nisbatan og'irroq kechadi va bunda to'qimalar ko'p miqdorda nekrozga uchraydi. Flegmonozli shish yaxshi shakllanmaydi chunki asosiy o'zgarishlar fassiya ostida kechadi. Hosil bo'lgan yiring fassiya qavatlari bo'ylab yoki mushaklar, paylar orasidan suyaklar tomon harakatlanadi. Kuchli og'riq va granulatsion to'siqning juda sekin hosil bo'lishi mikroob toksinlarini organizmga so'rilishini kuchaytiradi va organ faoliyatini yomonlashtiradi. O'z vaqtida operatsiya qilinmasa bunday flegmona sepsisga aylanishi mumkin.

G'ilofli (futlyar) flegmona – fassiya osti flegmonasining bir turi bo'lib, u chuqur, bir nechta fassiyalar ostida joylashadi va shu tufayli yallig'lanish jarayoni e'tiborsiz qolishi mumkin. Kuchli og'riq seziladi, a'zoning faoliyati to'liq buziladi. Fassiyali g'ilof ichidagi mushaklar, qon tomirlar, asablar yemirilishi, natijasida falaj, qon quyilishlari kuzatiladi.

Mushaklararo flegmona – chuqur, sanchilgan, ezilgan jarohatlar, ochiq suyak sinishlari, osteomielit, bo'g'imlarning yiringli yallig'lanishlarida hosil bo'ladi. Bo'yin, yag'rin va sonning orqa qismlarida mushaklararo flegmona juda og'ir kechadi. Mushaklararo flegmona mushaklar orasidan qon va limfa tomirlarining yo'nalishi bo'ylab tarqaladi. Xususan, sag'ri sohasi flegmonasi son va hatto sakrash bo'g'imigacha tushib kelishi mumkin.

ITLARDA UCHRAYDIGAN TURLI XILDAGI SHIKASTLANISHLARNING TURLARI VA ULARNI DAVOLASH

Itlardagi shikastlanishlarda qon ketishi va ularga birinchi yordam ko'rsatish

Qon ketishi – Ko'zning muguz pardasi va tog'aylardan tashqari organizmning barcha to'qimalarida qon tomirlar o'tadi. Shuning uchun to'qima buzilishi odatda qon ketishi bilan kechadi. Qon ketishi arterial, venoz, kapillyarli, ichki va tashqi hamda parenximatozliga bo'linadi. Tashqi qon ketishi oddiy ko'z bilan ko'rinadi. Ichki qon ketishida qon to'qima yoki anatomik bo'shliqqa oqishi tufayli uni aniqlash

mushkul. Qon ketishi birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Birlamchi qon ketish jarohat sodir bo'lgandan so'ng birdaniga, yoki bir necha soatdan keyin boshlanishi mumkin. Ikkilamchi qon ketishi esa qonni to'xtatgandan so'ng bir necha soatdan yoki kundan keyin qayta tiklanadi.

Qon ketishini vaqtincha va batamom to'xtatilishi mumkin. Qon oqishini batamom to'xtatish uchun ko'pincha maxsus sharoit talab qiladi. Bu ish veterinariya mutaxassislari tomonidan, ambulatoriya yoki davolash xonalarida amalga oshiriladi. Itni ambulatoriya xonasiga olib kelinguncha unga birinchi yordam ko'rsatish, ya'ni qon oqishini vaqtincha to'xtatish lozim, aks holda itning halok bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Qon oqishini vaqtincha to'xtatishda, qon oqqan joyning yuqorisini bosish, jgut yoki bosib turadigan narsa bilan bog'lash choralari ko'riladi.

Qon ketishini vaqtincha to'xtatish usullariga quyidagilar kiradi:

- qisuvchi bog'lam (povyazka) qo'yish;
- tampon yoki barmoq;
- qo'l yordamida bosish;
- gemostatik pinsetlar yordamida qisish;
- jgut qo'yish.

Shundan so'ng qon oqishini batamom to'xtatishga kirishish kerak.

Qon oqishini batamom to'xtatuvchi usullar 4 guruhga bo'linadi: mexanik, fizik, kimyoviy va biologik.

Mexanik usul – qon ketishini mexanik to'xtatish usullariga tomirni yarada yoki undan yuqorida bog'lash, tomir choki qo'yish, bog'lam va tamponadalar kiradi, tomirning uchini qon to'xtatuvchi qisqich bilan burash yo'li bilan qon ketishini to'xtatishning mexanik usullaridan biridir. Qon to'xtatuvchi tamponlarni 48 soatdan keyin olib tashlash tavsiya etiladi.

Fizik usul – bu usul sovuqni va issiqlikni qo'llashga asoslangan. Ya'ni past haroratning tomirlar spazmasini (torayishini) paydo qilishiga, yuqori harorat esa oqsillarni koagulyatsiya qilishga va qon ivishini tezlatishga asoslangan. Buning uchun sovuq suv, qor, muz, qizdirilgan temir, issiq 55-60° suv ishlatiladi.

Kimyoviy usul – bu usulda tomirlarni toraytiruvchi va qon ivishini oshiruvchi preparatlar qo'llaniladi. Ularga quyidagilar kiradi: 3 % li vodorod peroksidi, 1:1000 adrenalin suyuqligi, itlarga 0,01-0,05 gr, mahalliy 2-5 %; Ergetin 10 % suyuqlik teri ostiga, itlarga 0,5-1 ml; vitamin K (vikasol), itlarga 0,01-0,03 gr muskul orasiga; 10 % kalsiy xlorid 5-10 ml vena qon tomiriga.

Biologik usul – qonning ivish xususiyatini oshiradigan moddalar ishlatiladi.

Tashqi omillar ta'sirida xizmat itlarida uchraydigan jarohat turlari va ularni davolash

Veterinariya amaliyotida jarohat turlari ko'p bo'lib, ularga o'z vaqtida zaruriy davolash muolajalari qo'llanilmasa xizmat itlaridan foydalanish imkoniyatlarini kamaytirib, xizmat faoliyatining pasayishiga olib keladi. Xizmat itlari orasida uchraydigan jarohatlarni o'z vaqtida aniqlash, yordam ko'rsatishni to'g'ri tashkil etish, keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noxush holatlarning oldini olinishiga zamin yaratgan bo'ladi

Jarohat – teri, shilliq pardalar va chuqur joylashgan to'qimalarning ochiq mexanik shikastlanishi bo'lib, og'riq, qon ketishi va faoliyatlar buzilishidir

Jarohatlar mexanik kuch va unga qarshilik ko'rsatadigan to'qimaning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan: kuch qancha katta, to'qimaning zichligi va elastikligi esa past bo'lsa, jarohat shunchalik xavfli (yirik) bo'ladi.

Jarohatlar asosan bir-biriga o'xshasa ham ammo oralarida sezilarli farq bo'ladi. Yuzaga kelgan farqlarga ko'ra jarohatlar asosiy turlarga bo'linadi.

Operatsion jarohatlar. Tasodifiy jarohatlar. O'q tekkan jarohatlar

Operatsion jarohatlar asosan kesilgan va aseptik bo'lgani bois ular birlamchi tortilish bo'yicha bitadi.

Tasodifiy jarohatlar esa yana bir necha turlarga bo'linadi:

Sanchilgan jarohat: to'qimaga o'tkir uchli jismning qadalishi yoki

sanchilishidan kelib chiqadi (mix, igna, sim, cho'p). Agar jarohat anatomik bo'shliq bilan birlashgan bo'lsa unga kirib boruvchi jarohat deyiladi. Sanchilgan jarohat chetlari kam ochiladi yoki umuman sezilmaydi. Bunda ichki qon ketishi o'ta xavfli bo'lib u itning o'limiga olib kelishi mumkin.

Kesilgan jarohat – o'tkir kesadigan jism (pichoq, pakki, shisha sinig'i) ta'sirida hosil bo'ladi. Bunday jarohatning chetlari tekis bo'lib, ularning bir-biridan uzoqlashishi va qon ketishi yaqqol ko'rinadi.



1-rasm. Itning oyoq qismidagi sanchilgan jarohat va bosh qismidagi urib olingan jarohat

Urib olingan jarohat – o'tmas og'ir narsa bilan urganda hosil bo'ladi. Bunday jarohatda to'qima va qon tomirlar eziladi, suyaklar sinadi. Avval rivojlangan kuchli og'riq keyinchalik susayadi.

Yirtilgan jarohat – to'qimaga o'tkir uchli narsalar qiya yo'nalishda ta'sir qilishidan kelib chiqadi (temir ilmoq, hayvon tirnoqlari, daraxt shoxi). Jarohatning chetlari va devorlari notekis, og'riq sezilarli, ko'p qon ketishi.



2-rasm. Itning qorin qismidagi yirtilgan jarohat. **3-rasm.** Oyoq qismidagi ezilgan jarohat jarohatga chok qo'yish.

Ezilgan jarohat – katta kuch va bosim (avtotransport g'ildiragi, beton plita) ta'sirida hosil bo'ladi. Bunda to'qimalarning anatomik tuzilishining buzilishi va ular qon bilan shimdirilgan holatni ko'ramiz. Qon ketishi bo'lmasligi mumkin. Og'riq kuchli bo'lmasada, ezilgan to'qimalarda tez fursatda infeksiya rivojlanishi tufayli tezroq jarrohlik amaliyotini o'tkazish lozim.

Tishlangan jarohat – hayvon tishlari ta'sirida kelib chiqadi. Bu jarohat infeksiyon kasallikni chaqirishi mumkinligi uchun ham xavfli.

Zaharlangan jarohatlar (miksitalar) – zaharli ilon, chayon, qoraqurt, arilar chaqirishida va jarohatga kimyoviy moddalar tushgandan hosil bo'ladi. (***Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda;*** jarohat sohasini sovunli suv bilan yuvish, toza aseptik bog'lov qo'yish, jarohat sohasi harakatini cheklash, (immobilizatsiya qilish), og'riq qoldiruvchi dori vositalari berish (*demidrol, diazalin, kaltsiy glyukanat*). Ko'p miqdorda suyuqlik berish, 1 soat vaqt ichida veterinari mutaxassisiga murojaat qilinadi.

O'q tekkan jarohatlar – bunday jarohatda uch zona kuzatiladi:

1. Jarohat kanali (ichidagi ezilgan to'qima, yot jism, mikroblar, qon laxtalari bilan).

2. Travmatik nekroz zonasi. Jarohat kanalini bevosita o'rab turadi.

3. Molekulyar tebranish yoki nekroz rezervi zonasi.

Bu zonadagi to'qimalar o'lmagan bo'lsada hujayralar yadrolari, sitoplazma, kollagen tolalarning tuzilishi va inasabatsiya buzilgan bo'ladi. To'qimalarda ko'psonli qon quyilishlar kuzatiladi.

Jarohatni davolashda yaxshi natijalarga erishish uchun davolash ishlarini iloji boricha ertaroq boshlash zarur va bunda albatta jarohat biologiyasiga ahamiyat berish kerak.

Davolash muolajalarini quyidagicha olib boriladi:

1. Mexanik antiseptika.

Jarohat kanali – jarohat atrofi tozalanadi, bunda jarohat ichiga har xil iflosliklar tushmasligi uchun unga *5% yod eritmasi* bilan ishlov beriladi. Bunda shu eritma bilan namlangan salftka qo'yiladi. Keyin jarohat atrofida junlar olib tashlanadi. Teriga *0,5% novshandil spirti, 5% yodning spirtli eritmasi* bilan jarohatdan chetga qaratilib ishlov beriladi. Teri steril tampon bilan quritilib ikkinchi marotaba *5% yod eritmasi* surtiladi. Jarohat

atrofiga jarrohlik ishlov berilgandan so'ng uning chetlari operatsion ilgaklar yordamida ochiladi, ichi o'lgan to'qima, eksudat, yot jismlardan tozalanadi. Jarohat bo'shlig'i 3% vodorod perikisi, 1:5000 furatsillin eritmasi bilan yuviladi.

Yangi jarohatga jarrohlik ishlov berish. Bu usul birinchi marotaba Charukovskiy so'ng Fridrix tomonidan tavsiya qilingan. Ularning fikricha birinchi 6 soat ichida mikroorganizmlar faqat jarohat devorlarida bo'lib, to'qima ichiga o'tmaydi. B.V. Ognev tajriba o'tkazib, jarohat boshlanishidan 0,5 soatdan so'ng mikroblarni regional limfa tugunlarida topgan. Ammo birinchi 6-12 soat ichida jarohatdan o'lgan to'qimalar kesib olib tashlansa, jarohat birlamchi tortilish asosida bitishi mumkinligini aniqlagan.

Jarrohlik ishlov berish quyidagilarga bo'linadi:

1. Birlamchi jarrohlik ishlov, u esa yana 3ga bo'linadi

a) erta jarrohlik ishlov (6-12 soatda);

b) qoldirilgan (24-36 soatda);

d) kechiktirilgan yiringli yallig'lanish boshlanganda.

Aytib o'tilgan muddatlar ichida jarohatga quyidagi jarrohlik ishlov beriladi:

a) *Jarohatni kesib kengaytirish* – eng oddiy usul bo'lib chuqur, tor, ezilgan to'qimalar, cho'ntaklar, yot jismlar mavjud, anaerob infeksiya rivojlanish xavfi bor jarohatlarda albatta qo'llanishi zarur. Kesish mahalliy og'riqsizlantirish ostida o'tkaziladi. Jarohat kengaytirilgandan so'ng ichi issiq (40°C) gipertonik eritmalar bilan yuviladi va ichiga drenaj qo'yiladi yoki antiseptik kukunlar sepiladi. Jarohat ichiga ishlov berilgandan so'ng, ustiga yengil bog'lam qo'yiladi.

b) *Jarohat to'qimalarini qisman kesib tozalash* jarohatning birinchi fazasini ancha qisqartirishga yordam beradi va infeksiyaning oldini oladi. Bitish ikkilamchi tortilish bo'yicha kechadi. Qisman kesib tozalash anatomik bo'shliqlar, a'zolar, asablarga shikast etkazish xavfi bo'lganda qo'llaniladi.

Jarohatdan yiringning oqishi kamayib granulyatsion to'qimalar yaxshi o'ssa va uni qoplasa jarohatga *ikkilamchi choklar* qo'yiladi. Bunda jarohat birlamchi tortilish bo'yicha bitadi. Ikkilamchi chokni qo'yish uchun tekshirilganda fibroplastlar, makrofaglar, fagotsitozli aktivlik mavjud bo'lishi kerak, ular bo'lmasa chok qo'yilmaydi.

Ikkilamchi choklarni qo'llashdan oldin jarohat 3 marotaba 1:5000 furatsilin eritmasi bilan yuviladi va yaxshi natija berish uchun 0,25% kanamitsin, 4 % gentamitsin applikasiyalar qo'llanadi. Yuqorida aytilgan ishlar chok qo'yishdan 3 soat oldin tugatiladi.

Ikkilamchi choklarning ikki xili mavjud:

Dastlabki ikkilamchi chok – yangi granulyatsion to'qima o'sgan va jarrohlik ishlov berilgan jarohatga qo'yiladi.

Kechiktirilgan ikkilamchi chok – jarohat tubidan chandiqlanish boshlangan, eski jarohatlarda qo'llanadi. Bunda jarohat chetlari asta-sekinlik bilan bir necha kun ichida birlashtiriladi.

d) *Jarohat devorlarini to'liq kesib olib tozalash* yangi tasodifiy, o'q tekkan jarohatlarni aseptik jarohatga o'tkazish uchun eng yaxshi uslub. Bunda jarohat birlamchi tortilish bo'yicha bitadi. Kesishdan oldin qisqa novokain – antibiotikli qamal o'tkaziladi. Yaxshisi *rompun*, *ksilanit* yoki narkoz qo'llash lozim.

Kesayotganda yangi hosil bo'ladigan jarohatga mikroblar tushmasligi uchun ichiga 1:1000 yodli spirt bilan namlangan tampon qo'yiladi. Kesim tirik, sog'lom to'qimalar chegarasida o'tkaziladi. Kesim bo'lgandan so'ng yangi aseptik jarohat ichiga murakkab kukun (*yodoform*) sepiladi va chetlariga choklar qo'yiladi. Agar to'liq kesib olib tozalash 6-12 soatdan so'ng o'tkazilsa unda choklar jarohat chetlarining 4/3 qismiga qo'yiladi va jarohat ichiga *Vishnevskiy* yoki *sintomitsin* malhamlari bilan drenaj qo'yiladi. 3 kundan so'ng yiring va boshqa asoratlar bo'lmasa drenaj olinadi va jarohat butunlay tikiladi. Keyinchalik jarohat atrofida shish kuzatilsa, qo'shimcha qo'yilgan choklar olib tashlanib, jarohatga antiseptik ishlov beriladi.

2. *Fizik antiseptika.*

Bu usulning afzalligi – bog'lovchi materiallar va gipertonik eritmalar hamda gigroskopik kukunlarning (aktivlashtirilgan ko'mir, gips va boshq.) gigroskopik xususiyatlari ta'sirida ular jarohatdagi suyuqlikni tortib so'rib oladi.

Jarohatni drenaj qo'yish usuli bilan davolash. Drenajlar birinchi fazada kechadigan yangi, chuqur, yallig'langan, infeksiya bilan ifloslangan, ichida ko'p miqdorda o'lgan to'qima va cho'ntaklar hosil bo'lgani sababli jarohat ekssudatining chiqishi qiyinlashgan

jarohlarda qo'llanadi. Drenaj dokali va naychali bo'ladi. Birinchi qo'llash usuli kapillyarli hususiyatlarga ega bo'lgani uchun *aktiv* deb hisoblanadi. Ular malhamlar, gipertonik va antiseptik eritmalar yoki proteolitik fermentlar bilan shimdiriladi. Ikkinchisi – *passiv*, eksudatni jarohatdan chiqarish va jarohatga antiseptik moddalarni yuborish uchun qo'llanadi. Jarohat bo'shlig'i granulyasion to'qima bilan to'lganda drenaj qo'llanmaydi.

Drenajsiz davolash – jarohat chetlari bir-biridan ancha uzoqlashgan, sayoz, eksudati yaxshi oqib chiqadigan jarohlarda qo'llanadi.

Aseptik operatsion jarohlarni davolash. Agar jarohat ichi toza va devorlari tekis bo'lib, shikastlangan to'qimalar bo'lmasa va qon oqishi yaxshi to'xtatilsa unda u choklanishi lozim.

3. Kimyoviy antiseptika.

Patogenetik terapiya va antiseptika usullari bilan birgalikda o'tkaziladi. Kimyoviy antiseptikaning mohiyati – jarroh qo'li, operatsion maydon va jarohat maydonidagi mikroblar aktivligini antiseptik va bakteriostatik moddalar yordamida pasaytirishdir. Ammo antiseptiklar turlarini tanlashda ular to'qimalarga yomon ta'sir qilmasligini ham ko'zda tutish zarur.

Antiseptik va bakteriostatik moddalarning aktivligi natijasida jarohat ichidagi yiring tozalanadi va jarohatlarga jarrohlik ishlov berish samarasi ancha oshadi. Antiseptiklar asosan birinchi fazada qo'llanadi, ammo patologik granulyatsiya va nekroz bo'lsa ularni ikkinchi fazada ham qo'llash mumkin.

Kimyoviy antiseptika deganda jarohatni yuvish, fumigatsiya (dudlash) xlrlash, kukun sepish, malhamlar surish va drenaj qo'yishi nazarda tutiladi. Bular hammasi *yuzaki antiseptika* deyiladi. *Chuqur antiseptikada* antiseptik va bakteriostatik moddalar to'qima ichiga yuboriladi. Masalan – novokain qamali. Ammo bunda to'qimada bosim ko'tariladi va limfa – qon aylanishi susayadi. Vena va arteriya ichiga yuborilgan bakteriostatik moddalar mikroorganizmlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilib yaxshi samara beradi.

Antibiotiklar infeksiya bilan ifloslanib og'irlashgan jarohlarda qo'llanadi.

Yarim sintetik penitsillinlar (ampitsillin) og'ir gramm manfiy infeksiyalarda qo'llanadi.

Sefalosporinlar (sefazolin, sefataksim, sefatriakson) organizmdan tezda chiqarilmaydi.

Gentamitsin – og'ir, gramm manfiy infeksiyaga yaxshi ta'sir qiladi. Uni mahalliy qo'llash hamda vena va arteriyalar ichiga yuborish kerak.

Antibiotiklar jarohat ichiga sepiladi. Vena va mushaklarga yuboriladi. Bunda ularni sulfanilamid preparatlar bilan birgalikda qo'llash zarur.

Yopiq mexanik shikastlanishlar-traumalar


Lat yeyishlar – to'qima va organlarning yopiq mexanik shikastlanishlari bo'lib, terining anatomik butunligi saqlanib, uning qon tomirlari va ayrim elementlari strukturasi buzilishiga aytiladi.

Lat eyishlar xizmat itlari tanasining barcha qismlarida xususan, ko'proq oyoqlarda, yelkada ko'krak va qorin devorlarida uchraydi.

O'tmas jismlar bilan har xil kuchda ta'sir qilish: xizmat itlari bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida bosh, oyoqlar, harakatdagi mexanizmlar ta'sirida, yiqilish, qisilish, bundan tashqari bojxona postlarida vagon va avtouloularda xizmat iti bilan ko'rik o'tkazilganda ko'p sonli lat yeyishlar yuzaga keladi. Lat eyishlar yoki shikastlanishlarning og'irligi va chuqurligi, ta'sir qilayotgan mexanik omillarning kuchiga, tezligiga, yo'nalishiga, ta'sirlanayotgan tana maydonining kengligiga, organ va to'qimalarning xarakteriga, funksional holatiga, hamda xizmat itining oriq-semizligiga bog'liqdir. Yumshoq to'qimalar suyak va ta'sir qilayotgan predmetlar oralig'ida qolib qattiq lat eyishi mumkin.

Kasallik belgilari. Lat yegan joy og'riydi, shishib ketadi, funksiyasi buziladi va qon quyilishi ko'rinib turadi.

Lat eyishlar organizmning mahalliy va umumiy reaksiyasi bilan namoyon bo'ladi. Ta'sir qiluvchi kuch, to'qima va organlarda yuzaga kelgan shikastlanishlarga bog'liq holda lat eyishlar 4 ta darajaga bo'linadi.



Birinchi darajali lat yeyishlar.

Strukturasi shikastlanishi bilan kuzatilib, teri va teri osti kletchatkasidagi kichik qon va limfa tomirlarining uzilishi. Teri va teri osti kletchatkasida mayda chegaralangan yoki tarqalgan qon quyilishlari yoki to'lig'icha gemorragik infiltratsiya, keyinchalik travmatik shish hosil bo'lib, aseptik yallig'lanish boshlanadi, asta-sekin eksudat so'rilib ketadi.

Tashqi ko'rinishdan lat yegan joyda uncha katta bo'lmagan kam og'riqli shish, epidermisning tiralishi. Terining pigmentsiz joyida nuqtasimon qon quyilishlar, dastlab qizil rangda, 1-2 kundan so'ng ko'kimtir qizg'ich, 3-kunda malla, keyin sarg'imgir rangga o'tib, 10-20 kundan keyin yo'qoladi.

Ikkinchi darajali lat yeyishlar.

Kuchliroq mexanik shikastlovchilar ta'sirida yuzaga keladi. Teri va teri osti to'qimalarida sezilarli darajada o'zgarishlar kuzatiladi. To'qimalarning bir-biridan ajralishi, uzilishi, katta qon tomirlar butunligining buzilishi kuzatilib, to'qimalar orasiga qon va limfa quyiladi, gematoma valimfoekstravazatlar hosil bo'lishiga olib keladi. Lat yegan joyda travmatik shish paydo bo'ladi, aseptik yallig'lanishga atrofda sog'lom to'qimalar ham jalb qilinadi. Infeksiya tushish xavfi tug'iladi. Regeneratsiya sekin boradi, to'plangan qon va limfa sekin so'riladi. To'qimalar parchalanishidan hosil bo'lgan moddalar so'rilib, autointoksikatsiya boshlanadi. Bo'g'imlarda bo'lsa gemartroz, qorin bo'shlig'ida dabbalar paydo bo'ladi. Har xil kattalikdagi og'riqli shishlar, flyuktuatsiya beradi, terida tiralish, qon qo'yilishlar, oyoqlarda oqsashlar, chiqish, oyoqlar cho'zilishi, funksiya buzilishi,

qisqa vaqt tana haroratining ko'tarilishi 4-6 kunga borib, bu belgilar kuchayib borsa, infeksiya asoratidan darak beradi. Aseptik hollarda gematoma va limfoekstravazat belgilarigina qoladi.

Uchinchi darajali lat yeyishlar.

Kuchli urilishlar oqibatida yuzaga kelib, birgina to'qimalarda ajralishlar, uzilishlar, qon, limfa tomirlar va asab tolalarida uzilishlardan tashqari, qisman va to'liq ezilishlar yuzaga keladi. Bunda teri shikastlanishidan tashqari, suyaklar sinishi, bo'g'imlar chiqishi, chayqalish va ichki organlarda uzilishlar kuzatiladi. Bu darajali lat yeyishlarda manba atrofidagi to'qimalarda ham shikastlanish kuzatiladi. Ezilgan to'qimalar nekrozga uchraydi. Teri orqali tushgan patogen mikroblar og'ir asoratlarga olib keladi. Organlar funksiyasi buziladi, chiqish, sinishlar, terida qon quyulishlar kuchli og'riqli reaksiya, shok yoki falajlanishlar kuzatiladi. Infeksiya tushsa abscess, flegmona, gazli gangrena, intoksikatsiya va sepsis asoratlari kuzatiladi. Boshdagi suyaklar yorilishi, miya chayqalishi va asablar falajlanishi, sodir bo'ladi.

To'rtinchi darajali lat yeyishlar. Mexanik kuch ta'sirida manbadagi yumshoq to'qimalar to'lig'icha ezilgan, suyaklar maydalanib singan, teri butunligi saqlanib qolgan bo'lib, tananing ezilgan joyidan periferiyadagi ayrim to'qimalar o'ladi, og'ir asoratlarga olib keladi.

Davolash.

Lat eyishlarni davolash quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- 1) xizmat itiga barqaror tinchlikni ta'minlash;
- 2) infeksiya asoratining oldini olish;
- 3) shish hosil bo'lishi, qon va limfa qo'yilishining oldini olish.

Barcha holatlarda teriga yodning 5% li spirtli eritmasi, septoneks yoki kaliy permanganatining 5% li suvli eritmasi bilan ishlov beriladi. Ikkinchi darajali lat yeyishlarda dastlabki ikki kunlarda sovuq muolajalari bilan burishtiruvchi suyuqliklar, keyin esa spirt quriydigan bog'lamlar, isituvchi muolajalar, massaj qo'llanadi. Katta qon quyulishlar (gematoma) operativ davolanadi. Uchinchi darajali lat eyishlarda spirt quriydigan bog'lamlar, isituvchi muolajalar, antibiotiklar bilan novokain qamallari; shokda – shokka qarshi vositalar qo'llanadi. Keyinchalik davolash ishlari kasallikning kechish xususiyatlariga bog'liq. To'rtinchi darajali lat eyishlarda o'lgan to'qimalar olib tashlanadi.

Termik va kimyoviy shikastlanishlar

Termik kuyish deb fizik agentlar – yuqori haroratli issiqlik, nurlar va elektr toki ta'sirida to'qimalarning mahalliy shikastlanishiga aytiladi.

Bunda yuqori haroratli issiqlik va kimyoviy moddalar ta'sirida teri, shilliq pardalar va chuqur joylashgan to'qimalarning buzilishi ro'y beradi.

Kuyishlarning quyidagi turlari mavjud: termik, kimyoviy, termokimyoviy va nur ta'siri.

Kuyishni chaqiruvchi sabablar: zich jismlar (qizigan metall), suyuqliklar (qaynoq suv), bug'simon moddalar (issiq suv bug'i), ochiq olov, issiq gazlar. Itlar kuyishi yong'inda, qaynoq suv quyilganda kuzatiladi. Termik kuyishlarning kechishi va asoratlari issiqlik darajasi va ta'sir etish muddati bilan bog'liq.

1. Kuyishning birinchi darajasi aseptik yallig'lanish asosida kechadi. Achchiq og'riq, teri yuza qavatlarining shikastlanishi, qizarish va kichik shish paydo bo'lish belgilari kuzatiladi. Junlar ko'mirga aylanib, teridan faqat 1-2 mm balandlikdagi qismi kuymay qoladi.

2. Kuyishning ikkinchi darajasi – kuzatiladigan belgilar yanada kuchli kechadi – achchiq og'riq, giperemiya, teri so'rg'ichsimon qavatining buzilishi, itlarda har xil kattalikda seroz suyuqligi bilan to'lgan pufaklar paydo bo'ladi. Pufaklar yorilgandan so'ng o'rinlarida yara hosil bo'ladi.

3. Kuyishning uchinchi darajasi – epidermis va terining so'rg'ichsimon qavati shikastlanib koagulyatsion nekroz rivojlanadi. Ochiq olov ta'sirida jun to'liq ko'mirga aylanadi. Kuyishdan so'ng tez vaqtda teri zichlashib, kauchuksimon holatga keladi va tarqalgan shish paydo bo'ladi. Keyinchalik o'lgan to'qimalar ko'chib tushib, joyida sayoz yaralar hosil bo'ladi.

4. Kuyishning to'rtinchi darajasi – jun to'liq ko'mirga aylanib teri, fassiyalar va hatto mushaklar koagulyatsion nekrozga uchraydi. Kuyishdan so'ng tez, qisqa vaqt ichida teri tovonsifat holatga kirib, chuqur shishlar paydo bo'ladi, qon tomirlar va asablarning o'zgarishlari kuzatiladi.

Oqibati. Birinchi va chegarallangan ikkinchi va uchinchi darajali kuyishlarda kuyish jarayoni bitib, itlar sog'ayib ketadi. Yirik

kuyishlarda (tana yuzasining 50 % va kattaroq) kasallik oqibati gumon yoki yomon.

Davolash. *Kuyishlarni davolash kompleksi* maalliy va umumiy tadbirlardan iborat:

1. Og'riqni yo'qotish.
2. Autointoksikatsiyani kamaytirish va yo'qotish.
3. Infeksiyaning oldini olish.
4. Kuygan va o'lgan to'qimalar ajralishini tezlatish.
5. To'qima regeneratsiyasiga yaxshi sharoit yaratish.
6. To'g'ri va to'liq oziqlantirish.

Mahalliy davolash. Birinchi va ikkinchi darajali kuyishlarda soda, borat kislotasi, tanin bilan mahalliy nam yoki quruq sovuq qo'llanadi. Kuygan yuza spirt – rektifikat bilan namlanib turiladi. Og'riqni kamaytirish uchun 0,5% li mentol, lanolin, vazelin yoki sink – vazelin malhamlari suriladi.

Kichik kuyish pufakchalariga tegilmaydi. Katta pufaklar ingichka igna bilan teshilib, suyuqlik so'rib olinadi va ichiga 5% li efedrin yoki 0,25% kanamitsin bilan 1-1,5 ml 5% li novokain eritmasi yuboriladi. Infeksiyaning oldini olish uchun aseptika va antiseptika qoidalariga qat'iy rioya qilinadi. Buning uchun kuyish sohasi sterillangan doka bilan tozalanadi, yuzasi spirt – rektifikat, yod yoki spirt – efir bilan ishlanadi, yorilgan pufaklarning qiyqimlari kesib tashlanadi va furatsilin eritmasi bilan namlanadi. Bu eritma terini zichlashtiradi, dezinfeksiya qiladi, plazmoreyani pasaytiradi va toksinlarni bog'laydi. Burishtiruvchi moddalardan kaliy permanganatidan tashqari 10% li taninning suvli eritmasi, 2% li metilen ko'ki, brilliant ko'ki qo'llaniladi. Kuygan joyni quritish va himoyalash uchun kukunli antiseptik moddalar – kseroform, dermatol, streptotsid bilan penitsillin gips bog'lamlari qo'llanadi.

Kimyoviy kuyishlar. Teri yoki shilliq pardalarga kimyoviy moddalar – kislotalar (azot, sulfat, xlorid, margumush, xrom, karbol kislotalari va boshq), so'ndirilmagan ohak, og'ir metall tuzlari (kumush nitrati, sink xloridi, mis kuporosi va boshq), ishqorlar (natriy yoki kaliy gidrookisi, ammiak) ta'sirida hosil bo'ladi.

Kimyoviy moddalar tirik to'qima bilan bevosita aloqada bo'lib, hujayra protoplazmasi oqsillari bilan birikma hosil qilishi, natijasida

protoplazmaning me'yoriy kolloidli holati o'zgaradi va hujayralar o'ladi. Bunda kislotasi va og'ir metall tuzlari oqsillardan suvni tortib olib, ularning buzilishiga olib keladi. Ishqorlar esa to'qimalarni suvsizlantirib ularni suyuq holatga keltiradi. Kislotasi va og'ir metall tuzlari ta'sirida kuygan joyda jigarrang – qoramtir qoraqo'tir hosil bo'ladi.

Ishqorlar ta'sirida nam nekroz rivojlanadi. Bunday kuyishda zararlangan joyda oqish dog' paydo bo'ladi. Ular kislotasi kuyishga nisbatdan sust va og'ir bitadi.

Davolash. Kimyoviy moddalar ta'siridan kuyishni davolashda eng asosiy vazifalardan biri kuydiruvchi moddaning konsentratsiyasini pasaytirish va neytrallashtirishdir. Buning uchun kuygan joy suv bilan yuviladi va qarshi ta'sir etuvchi moddalar qo'llanadi.

Kislotasi qo'yishda – ishqorlar (2-3 % novshadil spirti, 5-10 % natriy bikarbonati, sut, kul va boshq) qo'llanadi.

Ishqorli kuyishda va so'ndirilmagan ohak ta'sirida – kislotalarning kuchsiz eritmaları (2 % sirka, limon yoki bor kislotasi) ishlatiladi. Asosiy davolash muolajalari termik kuyishlardagiday o'tkaziladi.

Issiq urish alomatlari. Issiq urishi deb yuqori harorat ta'sirida organizmning shikastlanishiga aytiladi. Xizmat itlaridagi issiq urishining asosiy belgilari harakatlanish keskin susayadi ko'z qorachig'i kengayib, qayt qilish, chanqash, nafas qisishi, harorat ko'tarilishi bilan farqlanadi.

Birinchi yordam ko'rsatish: it salqin yoki soya joyga yotqizilib, tanasi sovuq suvda ishqalanadi yoki sovuq suv sepiladi, sovuq kompersdan foydalaniladi, spirt hidlatiladi. Agar u hushini yo'qotmagan bo'lsa 15 tomchi korvalon yoki valokardin berilib veterinariya mutaxassisiga murojaat qilinadi.

Sovuq urishini chaqiruvchi omillar

Sovuq urishga moyillik tug'diruvchi omillar: atrof havo, jun va teri qoplamlarining yuqori namligi (terlash, yomg'ir va qor bilan namlanish), shamol. Bularning ta'sirida jun bilan yaxshi himoyalangan tana qismlarining ham issiqlik o'tkazuvchanligi oshadi. Undan tashqari salbiy ta'sirni oriqlash, gipovitaminoz, toliqish, anemiya, qon

tomirlarning patologik o'zgarishlari va ularni qon ketishda haddan ziyod qisish va boshqa omillardan kelib chiqadigan qon aylanishning mahalliy va umumiy buzilishlari kelib chiqishi mumkin.

Oriqlash, infeksiyon kasalliklar, intoksikatsiya, og'ir ish bajarish va uzoq masofani bosib o'tish, uzoq vaqt sovuqda harakatsiz turishda termoregulyasiya buziladi va natijada organizmning umumiy qarshiligi buziladi.

Sovuq urish patogenezidagi haddan ziyod toliqish to'qimalarda to'liq oksidlanmagan almashinish hosilotlarning to'planishiga va tomirlar spazmi yoki pareziga olib keladi. Organizmning charchash toksinlardan holi bo'lish xususiyatlarini pasaytiradi va shu bilan sovuq urishga moyillik yaratadi.

Umumiy sovqotish uzoq vaqt ta'sir etuvchi past darajali haroratlar ta'sirida hosil bo'ladi. Oldin teri, keyin chuqur to'qimalarda qon aylanish to'xtaydi. Miya anemiyaga uchraydi. Tana harorati 20°C gacha tushadi.

Davolash. Birlamchi yordam sovuq ta'sirini to'xtatish, sovuq urgan qismlarga issiqni ta'minlash, qon va limfa aylanishini tiklash, infeksiyaning oldini olishga qaratilishi lozim. Hayvon tanasini 36°C yoki 50°C darajali issiqlik bilan isitish yaxshi natija beradi. Sovuqqotgan itlarga sun'iy nafas olish usuli qo'llaniladi, og'ziga 30 % spirt – glyukoza eritmasi quyiladi. Teri ostiga kofein yoki efir bilan kamfora (50 x 50) yuboriladi. Spirt bilan kuchli uqalanadi.

Suyak sinishlar

Suyak sinishi deb – suyaklar birligining qisman yoki to'liq buzilishiga aytiladi. Bu turli omillar natijasida yumshoq to'qimalarning shikastlanishi bilan birga kechadi. Bu omillarga xizmat itlari bilan ish jarayonida urilish, yiqilish, toyish, keskin yoki to'satdan muskullarning qisqarishi va otilish kiradi. Bundan tashqari raxit, osteomalyatsiya, osteodistrofiya, gipovitaminoz, suyaklarning mahalliy kasalliklari nekroz, karies, osteosarkoma va boshqa shu kabi omillar ham suyak sinishlarini keltirib chiqaradi. Xususan bu omillar suyaklar qattiqligini yo'qolishiga olib kelishi tufayli ular kuchsiz ta'sirlar natijasida ham sinadi. Suyak sinishlarida mushaklar va kapsulalar yirtiladi, qon va asab tomirlari uziladi.

Suyak sinishlari kelib chiqishiga ko'ra: tug'ma va orttirilgan bo'ladi.

Suyak sinishlari xarakteri jihatidan ochiq va yopiq bo'lib, ochiq suyak sinishlari ancha xavfli hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida bir necha suyaklarning sinishi ko'p suyak sinishlari deyiladi.

Sinishlar joylashishiga qarab yassi, naysimon va yumaloq suyaklar sinishlariga bo'linadi. Naysimon suyaklarda sinishlar epifizar, diafizar va metafizar deb farqlanadi. Suyaklar sinish darajasiga ko'ra to'liq va to'liqsiz bo'ladi.

Sinishlarning klinik belgilari. Oyoq suyaklari singan vaqtda uning funksiyasi buziladi, oqsaydi. Singan suyak uchlari, muskullarning qisqarishi va statik apparatlarning buzilishi oqibatida asab retseptorlari qitqlanib kuchli og'riq yuzaga keladi.



5-rasm. Singan suyak fiksatsiya qilinib gipsli bog'lam qo'yiladi.

Singan suyak uchlarning joylari siljishi yoki to'qimalarga kuchli qon quyulishi natijasida deformatsiya yuzaga keladi. Sog'lom oyoq bilan solishtirib ko'rganda singan oyoqning notabiiy shaklda ekanligi va singan joyda deformatsiya kuzatiladi.

To'liq singan suyakning xarakterli klinik belgisi – uning singan joyidagi harakatchanligidir. Buni aniqlash uchun bir qo'l bilan singan joyning ustidan, ikkinchi qo'l bilan distal qismidan ushlab tomonlarga harakat qildiriladi. Singan joyni harakatlantirganda suyak g'ijirlashi (krepitatsiya) aniqlanadi. Singan oyoqni tekshirganda hayvon kuchli og'riq sezadi va bezovtalanadi. Yumshoq to'qimalarga qon quyulishi, limfa va qon aylanishining buzilishi oqibatida shish paydo bo'ladi.

Davolash. Suyak singanda asosiy maqsad singan suyaklarni o'z joylariga to'g'rilash va shu holda suyak mazoli hosil bo'lguncha,

funksional zo'riqish bermasdan deformatsiya bo'lmaslikning oldi olinadi. Buning uchun operatsiya maydonini tayyorlab, 1 % li novokain eritmasi bilan singan joy va muskullar atrofiga in'eksiya qilinadi yoki muskul orasiga aminazin yuboriladi. Singan suyaklar orasiga 5-10 ml novokain eritmasi yuborilsa, 5-7 minutdan so'ng muskullar bo'shshadi. Suyaklar o'z joyiga qo'yilgandan so'ng shinali yoki gipsli bog'lam bilan fiksatsiya qilinadi. Yordamchi singan joyni harakatlantirmasdan ushlab turadi, gipsli bint pastdan yuqoriga qaratib spiral shaklida o'raladi, 4-5 qavat gipsli bint qo'yilgandan so'ng ustidan gips aralashmasi bilan surtib chiqiladi. (5-rasm) Gipsli bint o'ralishidan oldin iliq suvga botiriladi, so'ngra suvi ozroq siqib tashlanadi va shu hollatda singan joyga o'raladi.

ITLARDA MODDA ALMASHINUVI KASALLIKLARI.

Gipovitaminozlar – organizmda vitaminlarning yetishmovchiligi tufayli kelib chiqadigan kasalliklardir. Avitaminozlar (organizmda vitaminlarning umuman bo'lmasligi) tabiiy sharoitlarda juda kam qayd etiladi. Yigirmadan ortiq vitaminlar va vitaminsimon moddalar ma'lum bo'lib, biologik faol moddalar sifatida hayvonlar organizmida kechadigan turli biokatalitik jarayonlarda qatnashish bilan ularning hayot faoliyatini me'yorda bo'lishini ta'minlaydi.

Gipovitaminozlarning kelib chiqish sabablari ekzogen, endogen va aralash xarakterda bo'lishi mumkin. Ekzogen omillarga vitaminlarning ozuqalar bilan me'yoridan kam miqdorda tushishi misol bo'ladi. Quyidagilar endogen omillar hisoblanadi: a) ayrim fiziologik holatlarda (bo'g'ozlik, sut berish davri) va patologik jarayonlar paytida (kaxeksiya, tireotoksikoz, yuqumli kasalliklar va b.) vitaminlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi; b) hazm tizimi kasalliklari yuzaga kelganda vitaminlar so'rilishining yomonlashishi yoki ularning parchalanishining kuchayishi; d) jigar va oshqozon osti bezi kasalliklarida yog'da eruvchi vitaminlar so'rilishining yomonlashishi. Bulardan tashqari gipovitaminozlar ularning biologik faolligini pasaytiruvchi yoki butunlay yo'qotuvchi ta'sirga ega bo'lgan moddalar – «antivitaminlar»ning ta'sirida ham kelib chiqadi.

Retinolning yetishmovchiligi (A gipovitaminoz, Ahypovitaminosis) – surunkali kechadigan kasallik bo‘lib, epiteliy hujayralarining zo‘r berib shoxlanishi va metaplaziyasi, ko‘rishning, ko‘payish xususiyatlarining va yosh hayvonlarning o‘sishdan qolishi bilan tavsiflanadi. A gipovitaminozi hamma joyda katta yoshdagi va yosh hayvonlarda uchraydi.

Sabablari. A gipovitaminozning kelib chiqishiga A vitaminining yoki karotinning ozuqalar bilan organizmga yetarli darajada tushmasligi sabab bo‘ladi. Bu holat bir xil turdagi ozuqalar berilishi, ratsionda A vitamini va karotinga boy ozuqalar yetishmagan hollarda kuzatiladi. Ma‘lumki ozuqalardagi karotinoidlar yorug‘lik, kislorod, kislotali muhit va yuqori harorat ta‘sirida tez parchalanadi.

Uzoq muddat ratsionda proteinning yetishmovchiligi ham A gipovitaminozga sabab bo‘lishi mumkin. Bu vaqtda karotinning A vitaminiga aylanish jarayoni sekinlashadi.

Sut davridagi yosh hayvonlarning kasallanishiga bo‘g‘oz va sut beradigan hayvonlarni yetarli oziqlantirmaslik oqibatida sut tarkibida A vitamini va karotinning yetarli miqdorlarda bo‘lmasligi sabab bo‘ladi.

Endogen A gipovitaminoz gepatit, jigar sirrozi, gastroenteritlar, yuqumli va parazitar kasalliklar, surunkali zaharlanishlar paytida kuzatilishi mumkin. Tokoferol va boshqa antioksidantlar hamda rux elementi A vitaminini buzilishdan saqlovchi moddalar hisoblanadi.

Belgilari. Barcha turdagi hayvonlar uchun xos klinik belgilar – teri qoplamasining dag‘allashishi, jun yaltiroqligining, teri elastikligining pasayishi, terida burmalar toshmalar va junlar to‘kilgan joylarning paydo bo‘lishi, yosh hayvonlarning o‘sish va rivojlanishdan qolishi, kasalliklarga chidamlilikning pasayishi, qorong‘ida ko‘rishning pasayishi (gernalopatiya), ko‘zdan yosh oqishi, konyunktivit, kseroftalmiya, urg‘ochi va erkak hayvonlarda ko‘payish xususiyatlarining, jinsiy faollikning kamayishi, ona hayvonlarning qisir qolishi, embrion o‘limining ko‘payishi, ulardan yashovchanligi past bola tug‘ilishi xarakterli bo‘ladi.

Tashxisni aniqlashda hayvonlarni karotin yoki A vitaminiga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilishi, klinik simptomlar, qon, (sut) va jigardagi retinol yoki karotinning miqdori hisobga olinadi.

Davolash. Karotin yoki A vitaminiga boy oзуqalar: go'sht va sabzavotli oзуqalar, baliq yog'i beriladi. Kasal hayvonlarni davolashda retinol atsetatning yog'li eritmalari, oзуqabop mikrovit – A, vitaminlashtirilgan baliq yog'i, trivitamin, trivit, aevit, tetromag va boshqa preparatlar qo'llaniladi. Ularning dozasini belgilashda tarkibidagi retinol hisobga olinadi va bir boshga 1 sutkada XB hisobida: itlarga 3000 – 4000. Davolash kursi o'rtacha 15-20 kun yoki ko'proq davom etadi.

Oldini olish. Hayvonlarni to'la qimmatli oziqlantirish tashkil etiladi. Ularning retinol va karotinga bo'lgan ehtiyojlari me'yorlar darajasida qondirilishi lozim. Hayvonlar organizmining karotin va A vitaminiga bo'lgan ehtiyojlarini tabiiy oзуqalar qondira olmaganda ularning preparatlari qo'llanilishi mumkin.

B-guruhi gipovitaminozlari B guruhi gipovitaminozlari ko'p hollarda bir vaqtning o'zida bir necha vitaminlarning yetishmovchiligi (poligipovitaminozlar) bilan kechadi. B guruhi vitaminlari yetishmovchiligi bilan kechadigan kasalliklar yosh hayvonlarda nimjon bo'lib tug'ilish, o'sishdan qolish, alopetsiya va dermatitlar, asab tizimidagi buzilishlar (polinevritlar, falaj, yarim falaj va b.), yurak qon-tomir tizimi, hazm tizimining sekretor, peristaltik funksiyalarining buzilishi bilan kechadi.

Tiaminning yetishmovchiligi (B_1 – gipovitaminozi, B_1 – hypovitaminosis) – asab tizimi, yurak funksiyalarining buzilishi, muskullarning toliqishi va dispepsiyaga xos belgilar bilan tavsiflanib, barcha turdagi hayvonlar kasallanadi.

Sabablari. B_1 – gipovitaminoziga ratsionda tiaminning yetishmovchiligi sabab bo'ladi. Ko'pincha oзуqalar bilan tiaminning ingibitori hisoblangan tiaminazalarning (antivitamin) tushishi B_1 gipovitaminozga sabab bo'ladi.

Belgilari. Ishtahaning pasayishi yoki yo'qolishi, mahsuldorlikning pasayishi, o'sishdan qolish, shilliq pardalarning oqarishi, oriqlash, dispepsiya, taxikardiya, asab tizimi faoliyatining buzilishi xarakterli simptom bo'lib, umumiy holsizlanish, ataksiya, yelka va bel muskullarining klonik-tonik qaltirashi (opistotonus), ko'z olmasining qaltirashi (nistagm), oyoq muskullarining taranglashuvi falaji va yarim falaji kuzatiladi. Qondagi pirouzum va sut kislotasi

miqdori ko'payib, tiaminning miqdori kamayadi, atsidoz va ishqoriy zaxiraning kamayishi qayd etiladi.

Tashxis xarakterli klinik belgilar, laborator va patologomorfologik tekshirishlar asosida qo'yiladi. Tiaminning terapevtik samaradorligi hisobga olinadi.

Davolash. Kasal hayvonlarga teri ostiga yoki vena qon tomiri orqali tiamin bromid yoki tiamin xlorid tavsiya etiladi. Tiamin bromid (xlorid) 1-6 % li eritma holida 5-7 kun davomida quruq modda hisobida: itlarga -1-10 mg yuboriladi. In'eksiya kuniga yoki ikki kunda bir marta takrorlanadi. Yurak faoliyati yomonlashganda kokarboksilaza: itlarga - 20-100 mg muskul orasiga yuboriladi. Og'iz orqali natriy gidrokarbonat, B guruhiga oid vitaminlar, hazm tizimi, jigar va boshqa a'zolarning funksiyalarini yaxshilovchi preparatlar tavsiya etiladi.

Oldini olish. Bir tomonlama oziqlantirish, sifatsiz ozuqalar berilishi, antibiotik va sulfanilamidlarni asossiz ravishda qo'llanilishining oldi olinadi. Ratsionga kobalt tuzlarini qo'llash B₁ vitaminining mikrobial sintezini yaxshilaydi.

Riboflavinning yetishmovchiligi (B₂-gipovitaminoz, B₂-hypovitaminosis) - surunkali kasallik bo'lib, o'sishdan qolish, teri, ko'zning jarohatlanishi, alopetsiya, asab tizimining buzilishlari bilan xarakterlanadi. Kasallik asosan poligipovitaminozlar holida kechadi.

Sabablari. Kasallik uzoq muddat bir xil oziqlantirish oqibatida kelib chiqadi. Riboflavinning endogen yetishmovchiligi hayvonlarda surunkali gepatit, gepatozlar, jigar sirrozi, hazm faoliyatining buzilishi, oshqozon-ichaklar mikroflorasi faoliyatining pasayishiga sabab bo'ladigan antibiotiklar, sulfanilamidlarning og'iz orqali qo'llanilishi hamda ichaklarda gelmintlarning buzilishi oqibatida kuzatiladi.

Belgilari. B₂ gipovitaminozning umumiy belgilari: mahsuldorlikning pasayishi, o'sishning sekinlashishi, ozuqalar sarfining ortishi hisoblanadi. Junlarning tushib ketishi, ayniqsa ko'z atrofida, bel sohasida qayd etiladi, dermatit, yaralar bitishining sekinlashishi yoki tez bitmaydigan yaralarning paydo bo'lishi mumkin. Lablar va og'iz chetlarida yorilishlar bilan kechadigan stomatit rivojlanadi. Og'iz va til shilliq pardasida giperemiya, qovoqlarning shishi, so'lak oqishining

kuchayishi, konyuktivit, yorug'likdan qo'rqish, keyinchalik shox pardaning vaskulyarizatsiyasi va keratit rivojlanadi.

Shuningdek, asab tizimi funksiyalarining izdan chiqishi, ataksiya, muskullar tonusining pasayishi, giperkineziya, orqa oyoqlarning yarim falaji yoki falaji kuzatiladi. Ona hayvonlarda kuyikishning kechikishi, qisir qolish kabi belgilar kuzatiladi.

Tashxis patologoanatomik o'zgarishlar, ozuqalar tarkibidagi riboflavin miqdorini aniqlash, uning preparatlarini qo'llashning terapevtik samaradorligi ko'rsatgichlari asosida qo'yiladi.

Davolash. Hayvonlar to'la qiymatli ratsionlarda boqiladi. Riboflavinga boy ozuqalar: yog'li va yog'i olingan sut, achitqilar, go'sht berish tavsiya etiladi. Kasal itlarga 8-12 kun davomida ozuqalar bilan birgalikda sintetik riboflavin quyidagi dozada 1-10 mg beriladi. Davolashda riboflavin bilan birgalikda tiaminni qo'llash tavsiya etiladi. Chunki tiaminning yetishmovchiligida siydik bilan riboflavinning ko'p miqdorda chiqib ketishi kuzatiladi.

Oldini olish. Hayvonlarning riboflavinga bo'lgan ehtiyojlari-ning qondirilishi nazorat qilinadi. Yuqori konsentrat tipida boqilganda 1 kg ozuqaga 2-3 ml riboflavin qo'shish tavsiya etiladi. Vitaminning tanqisligini kamaytirish uchun ratsionga ozuqabop achitqilar, yog'i olingan sut, ko'kat ozuqalar kiritilishi lozim.

Nikotin kislotasining yetishmovchiligi (PP gipovitaminozi, pellagra, hypovitaminosis – PP) – terining, hazm trakti va asab tizimining o'ziga xos jarohatlanishi bilan o'tadigan kasallik bo'lib, asosan cho'chqalar, itlar hamda kam darajada boshqa turdagi hayvonlar kasallanadi.

Sabablari. itlar faqat qaynatilgan go'sht bilan boqilganda kasallik rivojlanishi mumkin.

Belgilari. PP gipovitaminozga xos klinik belgi – terining quruqlashishi hisoblanadi. Jarohatlanish odatda simmetrik joylashadi. Avvaliga toshmalar, keyinchalik qoramtir po'stloq hosil bo'ladi. Bel, ko'z atrofi, oyoqlarning tashqi yuzasi, ya'ni quyosh ta'siriga uchraydigan tana yuzasida yallig'lanish o'choqlari paydo bo'ladi. Stomatit, glossit, tanglayning giperemiyasi va yaralanishi, tez qonovchan bo'lishi, tilning yuqorigi qismining shoxlanishi, uning qalinlashishi va keyinchalik yorilishi xarakterli bo'ladi. Og'izdan

so'lak oqishi kuchayib, qo'lansa hid keladi. Tilning jarohatlanishi ko'pincha itlarda qayd etiladi. Shuningdek, ularda, qayt qilish, diareya, organizmning suvsizlanishi kuzatiladi. Kasal hayvonlarda taxikardiya, aritmiya, ataksiya, asab buzilishlari, tananing orqa qismining falaji kuzatiladi.

Tashxis boshqa gipovitaminozlardagidek tartibda aniqlanadi.

Davolash. Kasallikning sabablari yo'qotiladi. Ratsionga oqsilga va B guruhi vitaminlariga boy ozuqalardan kepaklar, ozuqaviy achitqilar, go'sht suyak kiritiladi.

Davolovchi vosita sifatida muskul orasiga nikotin kislotasi yoki nikotinamid 0,4 mg/kg dozada 12-16 kun qo'llaniladi. Hazm trakti faoliyati maromlashgach, preparatni 8-12 kun davomida itlarga 30-50 mg og'iz orqali berish mumkin. Davolash majmuasi tarkibiga tiamin, riboflavin, piridoksin, askorbin kislotasi hamda yurak ishini yaxshilovchi va simptomatik terapiya vositalari kiritiladi.

Oldini olish. Hayvonlar ratsionida nikotin kislotasining me'yorda bo'lishi ta'minlanadi.

Piridoksinning yetishmovchiligi (B_6 gipovitaminoz, V_6 -hypovitaminosis) – azot almashinuvining buzilishi, mikrotsitar kamqonlik, terining jarohatlanishi, tutqanoq va qaltiroq bilan xarakterlanib, ko'pincha cho'chqalar, mo'ynali hayvonlar, itlar, parrandalar hamda buzoqlar va boshqa turdagi hayvonlar kasallanadi.

B_6 vitamini hayvonot olamidan olinadigan ozuqalar tarkibida yetarli miqdorlarda bo'ladi.

Sabablari. Bir xil ratsionda boqish, sifatsiz, zamburug'lar bilan zararlangan ozuqalarning berilishi, antibakterial preparatlarni nazoratsiz ravishda qo'llash oqibatida piridoksinning sintezining buzilishi.

Belgilari. Kasallik sekinlik bilan rivojlanadi. Semizlikning pasayishi, yosh itlarda o'sish va rivojlanishdan qolish, shilliq pardalar kamqonlik kuzatiladi. Kasal itlarda ataksiya, epileptik tutqanoq, qaltirash va konvulsiya kuzatiladi.

Mikrotsitar gipoxrom kamqonlikka xos belgilar sifatida eritrotsitlarning kichiklashishi (mikroeritrotsitlar), va tarkibidagi gemoglobinning kamayishi qayd etiladi. Yog'li gepatos hamda jigar sirroziga xos belgilar kuzatilishi mumkin.

Davolash. Ratsiondagi B₆ vitaminiga boy ozuqalar ko'paytiriladi, etiotrop davolash vositalari sifatida piridoksin saqllovchi preparatlar og'iz orqali yoki muskul orasiga: itlarga – 20-80 mg, kuniga 1 marta 10-12 kun davomida. Davolashda shuningdek, nikotin, folat kislotasi va boshqa vitaminlar qo'llaniladi.

Oldini olish. Me'yorda vitaminli oziqlantirish tashkil etiladi. Uzoq vaqt bir xilda oziqlantirish, sifatsiz ozuqalar berishga yo'l qo'yilmaydi.

Syanokobalaminning yetishmovchiligi (B₁₂ gipovitaminoz) – kuchayib boruvchi kamqonlik, oriqlash, o'sishdan qolish bilan xarakterlanadi.

Sabablari. B₁₂ vitaminining ichaklar devori orqali faol so'rilish uchun oshqozon suyuqligida o'ziga xos oqsil-mukoproteid (transkorrin) bo'lishi lozim. Shuning uchun oshqozon yarasi, surunkali gastrit B₁₂ gipovitaminozga sabab bo'lishi mumkin. Itlar esa go'shtli ozuqalar kam berilganda kasallanadi.

Belgilari. Ko'z, og'iz bo'shlig'i va boshqa a'zolar shilliq pardalarining oqarishi hamda kuchsiz sarg'ayishi, ishtahaning pasayishi, oriqlash, o'sishning sekinlashishi kuzatiladi. Teri elastikligining pasayishi, oqarishi, teri qoplamasining dag'al, yaltiroqligining pasayishi kuzatiladi. Kasallangan hayvonlarda ishtahaning o'zgarishi kuzatilib, devorlarni yalaydi, qayt qilish va diareya kuzatiladi. Ataksiya, teri reflekslarining pasayishi, orqa oyoqlarning falaji qayd etiladi.

Davolash. Ratsionga yog'li va yog'i olingan sut, tvorog, quritilgan sut, sut zardobi, go'sht, jigar, sut go'sht-suyak uni kiritiladi.

Muscul orasiga syanokobalamin preparati yuboriladi. Shuningdek, kobalt xlorid, metionin tavsiya etiladi. Temir saqllovchi preparatlar (alimantar kamqonlik bo'limiga qaralsin) qo'llaniladi.

Oldini olish. Ratsionida hayvonot olamidani olinadigan ozuqalar yog'i olingan sut, sut zardobi, go'sht, suyak uni kabi ozuqalar yetarli darajada bo'lishi lozim.

Raxit – yosh itlarning surunkali kechadigan kasalligi bo'lib, D vitaminining yetishmasligi, organizmda kalsiy va fosfor almashinuvining, suyak to'qimasi hosil bo'lishi jarayonining buzilishi hamda gavda suyaklarining deformatsiyasi bilan xarakterlanadi.

Sabablari. Kasallikning asosiy sababi organizmga ozuqalar bilan D vitaminining kam miqdorda tushishi va uning endogen sintezining pasayishi hisoblanadi.

Yosh itlar uchun D₂ vitaminining manbai uviz sut va yog'i olingan sut hisoblanadi. Bo'g'oz itlarni yetarlicha oziqlantirmaslik, faol ratsionning yetishmasligi ular suti tarkibida D₂ vitaminining kamayishiga sabab bo'ladi. Yosh hayvonlarda organizmining vitamininga bo'lgan ehtiyojining qondirilmashligi kasallikka olib keladi. Ratsionda kalsiy, fosfor va boshqa elementlarning yetishmasligi, ayrim radioaktiv zonalarda stronsiy-90 ning ortiqchaligi ham ma'lum darajada etiologik ahamiyatga ega. Shuningdek, qalqonoldi bezlari faoliyatining buzilishi, ratsionda kalsiy va fosfor tuzlarining yetishmasligi, ular o'zaro nisbatining buzilishi, ratsionda kislotalik darajasi yuqori bo'lgan ozuqalarning ko'pligi, hazm tizimidagi buzilishlar oqibatida kislota-ishqor muvozanatining kislotalik tomonga o'zgarishi kabi omillar ham raxitning kelib chiqishida asosiy sabab bo'ladi.

Organizmida kobalt va marganetsning yetishmovchiligi, nikel va temirning nisbatan ortiqchaligi endemik raxitning rivojlanishiga sabab bo'ladi. A vitamini va oqsillarning etishmasligi kasallikning rivojlanishini kuchaytiradi.

Belgilari. Yosh itlar o'sish va rivojlanishdan qoladi, harakatlanish og'riqli, oyoqlar va umurtqa pog'onasi qiyshaygan, ko'krak qafasi deformatsiyaga uchragan va qorin pastga osilgan bo'ladi. Ishtahaning pasayishi va o'zgarishi kuzatiladi.

Keyinchalik holsizlanish, zo'riqib harakat qilish, ko'p yotish, yotgan joyidan qiynalib qo'zg'alish, oqsash, bo'g'inlar va suyaklarning og'riqli bo'lishi kabi belgilar yuzaga keladi.

Suyaklarning jadal o'sadigan va gavdaning og'irligi eng ko'p tushadigan joylari deformatsiyaga uchraydi. Oldingi oyoqlarni chalishtirib turish, bo'g'inlarning qiyshayishi yoki to'liq bukilmashligi kuzatiladi. Suyak to'qimasi tarkibidagi fosfor kislotasi va kalsiy tuzlari miqdori keskin kamayadi. Oldingi oyoqlardagi naysimon suyaklar va umurtqa pog'onasi qiyshayadi. Karpal bo'g'inlar shishadi, qovurg'alar ichkari tomonga bukiladi. Ko'krak qafasi yon tomondan torayib, qorin pastga osiladi va hajmiga kattalashadi. Tulash kechikadi,

hazm jarayonlarining buzilishi, ich ketishi kuzatilishi mumkin. Tana harorati me'yorlar chegarasida saqlanadi.

Raxit paytida ko'pincha asab tizimida buzilishlar, uyqusirash holati yoki bezovtalanish, laringospazm, to'satdan yerga yiqilib tushish, qisqa vaqtli qaltiroqlar yoki tana muskullarining uzoq davom etadigan klonik va tonik qisqarishlari namoyon bo'ladi. A gipovitaminoz, alimentar kamqonlik kabi kasalliklar bilan birgalikda uchraydi. Shuning uchun davolash muolajalari tarkibiga retinol, temir, kobalt va boshqa elementlarni ham kiritish kerak.

D vitamini saqlovchi preparatlar sifatida D vitaminining yog'li eritmasi (0,125 – 0,5%), spirtli eritmasi (0,5%), suvda eriydigan xolekalsiferol – lipovid preparati, kompleks preparatlardan trivit, tetravit, tetramag, multivit, baliq yog'i kabilar tavsiyanomasiga asosan qo'llaniladi.

Vitaminoterapiyadan tashqari mineral moddalar saqlovchi preparatlar, suyak, go'sht – suyak uni, suyak kuli, ozuqabop pretsipitat, monokalsiyfosfat kabilar tavsiya etiladi. Mineral qo'shimcha sifatida faqat kalsiy karbonatni (bo'r) tavsiya etish maqsadga muvofiq emas. Chunki uning tarkibida faqat kalsiy bo'lib, organizmning boshqa osteogen mineral moddalarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirmaydi.

ITLARNI SAQLASH, PARVARISHLASH VA OZIQLANTIRISH TARTIBI

Saqlash

Itlarni saqlash uchun maxsus volyer qurish maqsadga muvofiq bo'lib, qishki va yozgi qismlarga ajratilgan bo'lishi kerak. Qishki volyerning kengligi 2,5x2,5 metrga teng, devorlari poldan 2 metr balandlikdagi qismi esa kafel bilan qoplanadi. Beton polga yog'och so'ri qo'yilgan bo'lib, uning ustida 100x90 sm. o'lchamli yog'och uycha joylashtirilishi lozim. Volyerlarning ikkala tomonini tuynukli devor birlashtiradi.

Yilning sovuq kunlarida qishki volyer tuynuk temir to'siq bilan berkitiladi. Eshiklari panjarali va yaxlit ikki qismdan iborat. Yozgi qismining uch tomoniga kafel terilgan, bir tarafiga temir eshik va

to'r (setka) o'rnatilgan, beton poliga yog'och so'ri qo'yilgan. Yozda volyerni shamollatish uchun qishki va yozgi tomonlar o'rtasidagi tuynukning temir to'sig'i hamda qishki volyerning yaxlit temir eshiklari ochiladi. Beton poldagi ariqchalar orqali xonalarni tozalashda quyilgan suvlar kanalizatsiya tarmog'iga oqib ketadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, itlar chiqindisida inson uchun zararli bo'lgan moddalar mavjud. Ular (ammiak, gelmint, oshqozon-ichak kasalliklarini keltirib chiqaruvchi bakteriyalar) inson organizmini, ya'ni nafas yo'llari, o'pka, og'iz bo'shliqlari xastaliklarini keltirib chiqaradi. Itlar siydigidan ajraladigan «Ammiak gazlari» insonning ko'rish organlari, og'iz va burun bo'shliqlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ana shu kasalliklarning oldini olish uchun bloklar, volyerlar atroflariga zararli gazlarni o'zlashtirib oluvchi daraxtlar, turli o'tlar, archalar ekiladi. Ular zararli, ya'ni karbonat angidrid gazini o'ziga yutib, kislorod ajratadi. Bu esa yozning jazirama kunlarida havo haroratini va namlik darajasini bir me'yorda bo'lishini ta'minlaydi.

Parvarishlash

Itlarga kerakli shart-sharoit yaratish, itning sog'lig'i va ish qobiliyatini saqlashda tashqi muhitning qaysi omillari ijobiy, qaysilari salbiy ta'sir ko'rsatishini bilish lozim. Bunda it nafas olayotgan havoning ahamiyati katta. Chunki itlarni uzoq vaqt kichik, shamollatilmagan xonalarda saqlash, ularning avtotransport vositalari chiqaradigan zararli gazlar, chang-g'ubor, suv bug'lari bilan to'yingan havodan nafas olishi ko'pgina kasalliklarni keltirib chiqaradi. Itning tanasiga tuproq ham sezilarli ta'sir etadi. Jumladan, havo va suvni yaxshi o'tkazadigan, qor va yomg'irdan keyin tez quriyadigan qumli hamda qumloq yerlar it organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, sertuproq, loyli yer zarar yetkazadi. Chunki bunday tuproq nam va sovuqni o'zida uzoq vaqt saqlab turadi. Shu sababli sertuproq yerga itlarning volyerlari, uychalarni joylashtirmaslik kerak.

Itning sog'lig'iga iqlim ham muayyan ta'sir ko'rsatadi, chunonchi qish qattiq sovuq bo'ladigan joylarda itning badani qalin va uzun jun bilan qoplanadi, xuddi shu nasldagi itlarning tanasidan issiq iqlimli hududlarda kaltaroq va siyrakroq jun o'sadi va mayin juni bo'lmaydi.

Ob-havoning ham ahamiyatini hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash lozimki, itlar sovuq va namgarchilikda o'zidan ko'p miqdorda issiqlik chiqaradi. Agar ular shunday sharoitda ochiq joyda uzoq vaqt jismoniy harakatsiz ushlab turilsa, shamollab qolishi, hatto sovuq urishi ham mumkin. Havo harorati oshib ketib, shamolsiz yuqori darajadagi namgarchilik paytlari itlarni oftob urishi holatlari kuzatiladi.

It tanasining kasalliklarga bo'lgan chidamliligi ko'p hollarda, ularni saqlash joylariga bog'liq. Jumladan, hovli va pitomniklarda boqilgan itlar chidamliroq bo'ladi.

Ularni jazirama oftob, qahraton sovuq va boshqa zararli narsalardan saqlash zarur. Nemis, Kavkaz, O'rta Osiyo ovcharkalari, qora terer, rotveylerlar kabi zotli itlar noqulay iqlim sharoitlariga eng chidamlilardir. Itlarni keskin, tez o'zgaruvchan shart-sharoitlarga asta-sekin o'rgatish lozim.

Xonalar odatda har kuni ertalab tozalanadi va shamollatiladi. Volyerlarni yig'ishtirish uchun supurgi, temir kurakcha va chelaklar qo'llaniladi.

Yozda volyerning it yashaydigan qismi suv bilan yaxshilab yuviladi. Haftada bir marta veterinariya shifokorining ko'rsatmasiga muvofiq bloklar dezinfeksiya qilinadi. Kemiruvchilarga qarshi qog'oz xaltachalarga solingan maxsus zahardan foydalaniladi. Bu xaltachalar volyerdagi yog'och pol ostiga qo'yiladi. Bu ish deratizatsiya guruhlarini mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi. Chunki zaharli xo'raklardan noto'g'ri qo'llanish itlarning o'limiga olib keladi. Xonalar qishda tartibga solinganda har gal poxol, xashak to'shamalar yaxshilab qoqib tashlanib, tozalanadi. Namlangan, muzlagan va ifloslangan to'shamalar yangisiga almashtiriladi.

Ularni bir kecha-kunduz ikki marta – ertalab va kechqurun sayr qildirish tavsiya etiladi. Shuni esda tutish zarurki, itlar bir martada qovuqlarini siydikdan bo'shata olmaydilar, ular bunga vaqti-vaqti bilan, ko'p marta ehtiyoj sezadilar. Sayrdan keyin dressirovka mashg'ulotlari o'tkaziladi. Agar tabiiy hojatdan to'liq bo'shalmagan bo'lsa, chalg'ib, buyruqlarni to'g'ri va aniq bajara olishmaydi. Bundan tashqari, bir kunda kamida ikki marta o'ynab, yugurishga imkon berish shart. Uni volyerdan kalta tasmada olib chiqib «O'ynab

kel!» buyrug'i beriladi va tasmadan bo'shatilib, uzoqqa ketishiga yo'l qo'yilmaydi.

Xizmat safarlarida va uzoq davom etuvchi naryadlarda kinologlar o'zlariga birlashtirilgan xizmat itlarining yonidan uzoqqa ketib qolishlari man etiladi. Itlar barcha transport vositalarida tashilishiga tez moslashadilar, biroq, metroda tashish taqiqlanadi. Jamoat transportining har qanday turlarida ular faqat tumshuqbog' va kalta tasmada olib yurilishi shart.

Milliy kinologiya markazida itlarni tashish uchun maxsus jihozlangan avtoullov ajratilgan. Xalqaro yo'llar orqali temir yo'l, dengiz, daryo va havo transportida tashish uchun it egalarida emlaganlikni tasdiqlovchi belgilar va muhr qo'yilgan veterinariya pasporti bo'lishi talab etiladi. Itlar samolyot yukxonasida qafaslarga solingan holda, dengiz va daryo kemalarida esa tovar palubasida yoki tryumda tashiladi. Agar avtoullovda tashilsa, yo'lga chiqishdan bir soat oldin ularni oziqlantirish lozim. Aks holda ular yo'lda qayt qilib tashlashlari mumkin. Aksariyat itlarning guruhlari yo'lovchi vagonlarda maxsus plastmassa va temir qafaslarda tashiladi. Ortish va tushirishda ehtiyot choralariga amal qilib, ularga shikast etkazmaslik zarur.

Volyerlarni tozalashdan oldin it sayrga olib chiqilib, diqqat bilan ko'zdan kechiriladi. Bunda itning umumiy holatiga, to'laligiga, yungiga va ayrim a'zolariga e'tibor qaratiladi.

Ko'zlar, ko'zlarning holati (quvnoq yoki g'amgin nigoh, shilliq parda rangi) bo'yicha umuman it tanasining ahvoli haqida so'z yuritish mumkin. Ko'z burchaklarida to'planib qolgan shilimshiqalar har bir ko'z uchun turlicha bo'lgan dorilangan paxta yordamida tozalanadi. Paxtalar qaynatilgan suvda ivitiladi. Ko'zdagi yashil ko'kimtir ajralmalar yallig'lanish belgisidir. Bunday hol faqat bitta ko'zda kuzatilsa, demak, bu – ko'zning ifloslanganligidan darak beradi. Bordi-yu bunday ajralmalar ko'p miqdorda ikkala ko'zni qoplagan bo'lsa, veterinarga murojaat qilish zarur.

Quloqlar. Ularni muntazam ravishda ko'zdan kechirish hamda har haftada bir marta nazorat tekshiruvidan o'tkazish va tozalash uchun veterinarga olib borish maqsadga muvofiqdir. Quloqlari ochilib turuvchi itlarga alohida e'tibor berish lozim, chunki bunday quloqlarda

ko'pincha yaylov kanalari, jigarrang quloq kirlari (sera), kichikroq payrahalar, boshhoqlar, hasharotlar to'planib qoladi. Kasallanganda quloqlar hidi yoqimsiz bo'ladi. Jigarrang va kulrang ajralmalar paydo bo'lishi mumkin. Bunda it boshini silkitib, quloqlarini qashiydi, bunday paytda, darhol veterinarga murojaat qilish zarur. Agar u o'z vaqtida davolanmasa otitga, og'ir hollarda esa karlikka olib keladi.

Oyoqlar (panjalar). Itlar ochiq havoga sayr qildirish uchun olib chiqilgach, har doim sayrdan so'ng ularning oyoqlari diqqat bilan ko'zdan kechiriladi. Chunki panjalariga shisha parchalari, tikan, boshqoqcha, zirapchalar kirib qolishi va kichik yaralar paydo qilishi mumkin.

Uzun junli itlar oyoqlarining ostki tomon barmoq do'mboqchalari orasidagi va yuqorida barmoqlar o'rtasidagi junlarni, qaychi bilan har oyda bir marta qirqib turish zarur. Shuningdek, juda uzun tirnoqlar itlarning erkin harakat qilishiga xalal berishi sababli, agar o'z-o'zidan charxlanmasa ularni ham vaqti-vaqti bilan olib turish lozim.

Burun. Burunda yuqumli kasalliklarning belgisi bo'lgan shilimshiq va yiringli ajralmalar uchrab turishi bois, tez-tez ko'zdan kechirib turiladi.

Og'iz bo'shlig'i. Og'izdagi tishlarning holati, yoqimsiz hidlar, qadalib qolgan mayda suyakchalar, tashqaridan kirib qolgan narsalar bor-yo'qligini nazorat qilib borish shart.

Jun qoplamasi. Itning ko'plab ichki kasalliklari teri va jun qoplamasida hosil bo'ladi. Shuning uchun it juni muntazam ko'zdan kechirib turish talab etiladi. Sog'lom itning juni yaltiroq va hidsiz bo'ladi. Basharti jun xiralashsa yoki va tez-tez to'kila boshlasa, darhol tegishli chora-tadbirlar ko'rish zarur.

It terisidagi turli-tuman iflos narsalar – changlar, qazg'oqlar va boshqalarni ketkazish maqsadida, uni har kuni bir marta yuvintirib turish darkor. Tozalik esa terini kasalliklardan saqlaydi, qon aylanishi va modda almashinuvi jarayonlarini yaxshilaydi.

Tozalash ishlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi: it o'ng tomonda turadi, o'ng qo'lga maxsus taroq olinib bosh, bo'yin, dum va oyoqlarning juni (ayniqsa, uzun junli itlarni tez-tez tarab turish zarur) taraladi keyin maxsus taroq va ho'l latta bilan tozalanadi. Ko'z va quloqlar toza latta, dorilangan paxta yoki doka bilan, zarurat

tug'ilganda esa, ular toza suvga botirilib, yaxshilab siqib tashlanib artiladi.

Jahldor va tajovuzkor itlarni asta-sekin, muloyimlik bilan tozalash zarur: avvalambor, u ehtiyotkorlik bilan silanadi, erkanadi, tasalli beriladi va it o'rganib, xotirjam bo'lgach, mehr bilan tozalashga kirishiladi. Ish nihoyalangach, to'kilgan junlar, qillar, axlatlar supuriladi, maxsus asbob anjomlar yuvilib, joy-joyiga qo'yiladi.

Yuvintirishdagi tozalik darajasi – ularni saqlash sharoiti va jun turiga bog'liq. Itlar volyerlarda yashaganda, yilning issiq (iliq) oylarida yuvintiriladi: ko'p hollarda yuvinishga tez o'rganib, oladilar. Bu ishni bajarish uchun maxsus yuvintirish xonasi ajratiladi. Yuvintirishdan oldin quloqlarga suv kirmasligi uchun ularga paxta tamponi tiqiladi. It bilan inson terisi o'rtasidagi farq – katta it terisida yog' bezlari rivojlangan bo'lib, ter bezlari yo'q. Ajralib turuvchi yog' terini qurish va yorilishdan saqlaydi hamda jun qatlamiga suv o'tkazmaydi. Agar tez-tez yuvintirilsa, tabiiy ravishda terini moylab turuvchi yog'lar yuvilib, teri qurib qoladi, qazg'oq paydo bo'lishi, oqibatida u beixtiyor qichinadi.

Yuvintirish quyidagicha amalga oshiriladi: itning juni 34-36 darajali iliq suv bilan ho'llanadi, sovun bilan ko'pirtiriladi (ko'pik qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi) va ko'pik yuvib tashlanadi. Bu ish ikki marta bajariladi, so'ngra junlar suv bilan yaxshilab chayilib, quruq latta bilan artiladi. Jun to'liq qurigunicha itni yerga yotishga yo'l qo'ymasdan, uning tasmasidan mahkam ushlab, yetaklash lozim. Yilning iliq va issiq davrida cho'miltirish foydalidir. Ularni odamlar yuvinmaydigan, uy hayvonlari suv ichmaydigan, toza va oqar suv, yotiq, tekis qirg'oqli suv havzalarida cho'miltirish mumkin. Itlarni cho'miltirish vaqti quyidagilarga bog'liq: yil fasli, it zoti, terisining o'ziga xos tomonlari, yashash sharoitiga ham bog'liq. Faqat veterinar shifokorgina bu masalani to'g'ri hal qilib beradi.

Ularni saqlash uchun bo'yinbog', kalta tasma, tumshuqbog' va qattiq temir bo'yinbog' kabi anjomlar zarur.

Bo'yinbog' itning bo'yniga kiydirish va tasmani mahkamlash uchun mo'ljallangan. U teri, teri o'rnini bosuvchi material, maxsus tasma hamda temirdan yasaladi. Bo'ysinishi qiyin bo'lgan itlarga temir bo'yinbog' kiydiriladi.

Kalta tasma (1m-1,5m.) bo'yinbog'ga mahkamlanib, yonma-yon olib yurish va dressirovka qilishda foydalaniladi. Tasma teridan, teri o'rnini bosuvchi material maxsus to'qilgan tasmadan tayyorlanadi. Tasmaning bir uchida bo'yinbog'ga mahkamlanadigan karabin, ikkinchi uchida qo'lga kiyiladigan halqa mavjud.

Uzun tasma (10m-12m) bo'yinbog'ga mahkamlanib, itni o'rgatuvchidan 10 metrgacha bo'lgan masofada olib yurish uchun mo'ljallangan. U kalta tasmadan faqat uzunligi bilan farqlanadi.

Tumshuqbog' begona kishilarni qopib olishdan saqlaydi. Teridan ishlangan yaxlit tumshuqbog' eng ko'p ishlatiladi. Bundan tashqari, to'rsimon, halqasimon va temir tumshuqbog'lar mavjud. Temir, odatda tajovuzkor itlarga kiydiriladi. Har bir itga yakka tartibda shunday tumshuqbog'ni tanlash lozimki, toki u xalaqit bermasin va tashlab yubormasin. Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'rgatuvchilar har bir itni o'ziga mos maxsus asbob anjomlar bilan ta'minlashlari kerak.

Oziqlantirish

Itlarning bir maromda hayot kechirishi va ish qobiliyatining yuqoriligi ularni to'g'ri oziqlantirishga bevosita bog'liq. To'g'ri oziqlantirish deganda – oziqlantirish tartibiga rioya qilgan holda, to'yimli moddalarga bo'lgan ehtiyojning fiziologik jihatdan asoslangan me'yorlari hamda sifatli va muvofiqlashtirilgan ratsion bo'yicha oziqlantirish tushuniladi. To'g'ri oziqlantirish – itning sog'lig'i, o'sish sur'ati, rivojlanishi, gavda bichimi, vazniga ijobiy ta'sir etib, hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. U it kuchi va ish qobiliyatini saqlashning muhim omilidir.

Oziqlantirish qoidalarini buzish – dressirovka va ulardan foydalanish sifatini keskin pasaytirib yuboradi. Ko'p hollarda og'ir kasalliklarga chalinish, ozib ketishga, ba'zida esa itning nobud bo'lishiga olib keladi. Tanada kechayotgan jarayonlarning bir maromda bo'lishi, asosan, ularni oziqlantirish sifatiga bog'liq. To'g'ri oziqlantirishni tashkil qilish – faqat itlarning to'yimli moddalarga bo'lgan fiziologik ehtiyojini hisobga olgan holda, berilayotgan ozuqaning miqdori va sifati tartibga solingandagina mumkin bo'ladi. Itlarni kam oziqlantirish ham, keragidan ortiq oziqlantirish ham

zarar keltiradi. Jumladan jinsiy hujayralar, homilaning embrional rivojlanishi va nasl sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

It yirtqich hayvon turkumiga kirib, asosan go'sht iste'mol qiladi. Noto'g'ri oziqlantirish organizmga salbiy ta'sir qilmasligi uchun ovqat hazm qilish tizimining o'ziga xos fiziologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Tana kerakli moddalarni turli kimyoviy – biologik jarayonlarga to'xtovsiz sarflaydi. Organizm o'z faoliyatini davom ettirishi uchun sarflanayotgan moddalarning o'rni to'liq qoplanishi shart. Bunday manba vazifasini fermentlar ta'sirida tanaga kelib tushadigan moddalar bajaradi.

Ozuqa moddalari deb – modda almashinuvi jarayonida it tanasiga singiydigan va itning hayot faoliyatini ta'minlash uchun foydalaniladigan ozuqaning kimyoviy moddalari (oqsil, yog', mineral tuzlar, uglevod, vitaminlar va suv)ga aytiladi. Ozuqa mahsulotining qiymati itlarning sog'lig'i va ish qobiliyatini ta'minlash uchun ozuqa moddalari, quvvat bo'ladigan ehtiyojini qondirish xususiyati; to'yimlilik bilan ajralib turadi. To'yimlilik-uning ozuqa, biologik va energetik qiymatiga bog'liq.

Mahsulotning ozuqa qimmati oqsil, uglevodlar yog'lar, mineral tuz va vitaminlarning miqdoriy tarkibi bilan aniqlanadi.

Ozuqaning biologik qiymati – uning tarkibidagi sifatli oqsillar va yog'larning miqdori bilan belgilanadi. Hayvonot olamiga oid mahsulotlar: go'sht, baliq, sut va sut mahsulotlari oqsillarga juda boy bo'lgan manbalar sirasiga kiradi. Bu mahsulotlar tarkibidagi oqsillarda o'rnini almashtirib bo'lmaydigan barcha aminokislotalar mavjud bo'lib, oshqozon-ichak yo'lida oson parchalanadi va yaxshi hazm bo'ladi. Oqsillar o'simlik oqsillariga nisbatan biologik jihatdan 1,2 marta qiymatli va samaraliroqdir.

Oqsil itlarga tanadagi ishdan chiqqan to'qimalarni yangilash hamda emizikli urg'ochi itlarning sutida oqsil hosil qilishi uchun kerak. Ratsionda oqsil yetishmasligi kuchuklar o'sishi va rivojlanishining sekinlashuvi, urchish funksiyasining buzilishi, ozuqadagi to'yimli moddalarning qiyinchilik bilan hazm bo'lishi, organizmning kasalliklarga qarshi kurashining pasayishiga olib keladi. Ratsiondagi ortiqcha oqsil ham itga zarar keltiradi. Oqsillarga bo'lgan ehtiyojning eng maqbul miqdori 1 kg tirik vazn uchun katta yoshli itlarga

4,5 gramm, kuchukchalarga esa 9,0 grammni tashkil etadi. Xizmat itlari o'rtacha ish bajarganda oqsilga bo'lgan ehtiyoj taxminan 30 foizga ortadi. Katta yoshli urg'ochi itlar bo'g'oz, emizikli bo'lsa yoki erkak itlar va boshqalarning ish hajmi keskin oshsa, oqsillarga bo'lgan talab ham ortib boradi.

Ozuqaning energetik qiymati yoki kaloriyaliligi biokimyoviy oksidlanish jarayonida ajraladigan oqsil, uglevod va yog'larda mavjud bo'lgan quvvatlar miqdoridan tashkil topgan quvvat (energiya) ichki a'zolarning ishlashi, muskullar va harakat tonusi, shuningdek, tananing muayyan haroratini saqlash va boshqalar uchun zarur. Quvvat-oqsil, yog' va uglevodlar hisobidan ishlab chiqariladi hamda oziqlantirishning umumiy darajasini belgilaydi va kilo joulida ifodalangan umumiy (ya'ni) quvvatning miqdori bilan tavsiflanadi. Shu narsa aniqlanganki, tanadagi bir gramm oqsil oksidlangan: 16,7 kj; 1 gramm yog'dan-37,7 kj va 1 gramm uglevoddan-15,7 kj quvvat ajraladi: 4,186 kj 1kal quvvatga teng. Quvvatga bo'lgan ehtiyoj it vazniga, atrof-muhit harorati, jun qatlamining holati, jinsi, yoshi, tana tuzilishi, muskullarning ishi, itning fiziologik holatiga va bo'g'oz urg'ochi itlarga bog'liq. Ularning quvvatga bo'lgan bir kecha-kunduz ehtiyoji yozda pasayadi, qish faslida esa, o'rtacha 15 foizga ko'payadi. Shu bois erkak itlar urg'ochilar, katta yoshli va kichik yoshdagilar, ozg'in muskulli itlar va xomsemiz itlar, jahldor itlar sovuq aloqa qilayotgan erkak va urg'ochilarga, bo'g'oz va emizikli urg'ochi itlarga berilayotgan ovqatning kaloriyasini oshirish lozim. Bajarilayotgan ishlar og'irlashgan sari quvvatga bo'lgan ehtiyoj ham ortib boradi. Masalan, itlar bajarayotgan o'rtacha ish quvvati sarfini 20 dan 30 foiz ga oshiradi. Ishga sarflanayotgan quvvat miqdori itning tayyorgarlik darajasi va nasliga bog'liq. Ratsiondagi quvvatning yetishmasligi uning ozib ketishi, keragidan ortig'i esa semirib ketishiga sabab bo'ladi.

XIZMAT ITLARI UCHUN O'TKAZILADIGAN UMUMIY PROFILAKTIK TADBIRLAR

Xizmat itlari saqlanadigan volyerlarda har xil yuqumli kasalliklarni tarqalishini oldini olish maqsadida quyidagi tadbirlar olib boriladi. Bu tadbirlar xizmat itlari orasida kasalliklar yo'q vaqtida qo'llaniladi:

1. **Karantin tadbirlari.** Karantin tadbirlari xizmat itlarini bir necha kun boshqa joyda bo'lganda, yangi it olib kelinganda 21-30 kunga qadar olib boriladi. Unda har kuni itlar veterinariya nazorati ostida bo'ladilar.

2. **Kunlik ko'rik.** Kunlik ko'rikda xizmat itlarning umumiy ahvoli, tuklari, ko'rinishi, bir vaqtini o'zida xizmat itlarni saqlanish joyining sanitariya holati ko'zdan kechiriladi.

3. **Vaksinatsiya tadbirlari.** Yuqumli kasalliklarni oldini olish va immunitetini oshirish maqsadida (*quturish, o'lat va boshqa yuqumli kasalliklariga bir yilda bir marotaba*) xizmat itlariga qo'llaniladi. Vaksinatsiya tadbiri faqat sog'lom va baquvvat xizmat itlariga qo'llaniladi.

4. **Degelmintizatsiya.** gelmintlarni barcha rivojlanish fazalarida yo'qotishga qaratilgan davolash-profilaktika tadbirlari majmui. Gelmintlar yuqqan itlar degelmintizatsiya qilinadi. Bu jarayon farmakologik antgelmintiklar yordamida (Prazitabs, Azinoks) amalga oshiriladi. Itlarni davolash (yilning har qanday davrida gelmintozlarning birdan tarqalishi yuz berganda), profilaktik (rejali ravishda gelmitozlar klinik ko'rinishlarining oldini olish uchun yilning ma'lum davrida); diagnostik (gelmintozlarning bor-yo'qligini aniqlash maqsadlarida) degelmintizatsiya o'tkaziladi. Gijja va qurtlarga qarshi tadbir bo'lib, mazkur tadbir har 3-oyda qo'llaniladi. (faqat belgilangan qo'llanma asosida). Yosh kuchuk bolalariga har oyda bir marta qo'llash tavsiya etiladi.

Xizmat itini kasallanishini oldini olish maqsadida majburiy o'tkaziladigan tadbirlar

1. Itlarni ichiga qurt, gijja tushmasligi uchun ularni xom baliq bilan va hayvonlarning ichki a'zolari bilan boqish mumkin emas.

2. Xizmat itiga doimo kanaga va burgaga qarshi dori vositalari bilan ishlov berish va cho'miltirib turish lozim.

3. Xizmat itini boshqa daydi itlar va hayvonlar bilan aloqada bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

4. Xizmat itlarida kasallik alomati sezilsa (axlatda qurtlar ko'rinishi, orqasini yerga ishqalashi) u holda veterinariya xizmatiga ko'rsatish lozim.

5. Har doim xizmat itini saqlanadigan joyini dezinfeksiya qilish va shamollatish hamda maxsus anjomlarni toza saqlash lozim.

6. 3 oyda bir marta degelmintizatsiya o'tkazish, vaksinadan 10 kun oldin degelmintizatsiya qilinadi.

5. Dezinfeksiya. Tashqi qo'zg'atuvchi kasalliklarni yo'q qilish tadbiri (bakteriya, virus kasalliklarining oldini olish maqsadida).

Dizinfeksiya qilishda ishlatiladigan kimyoviy moddalarning ba'zilari ma'lum turdagi infeksiya agentiga ta'sir etish vaqti katta ahamiyatga ega. Har bir dezinfektor modda ayrim infeksiya agentini ma'lum konsentratsiya va vaqt ichida o'ldirish qobiliyatiga ega. Dezinfeksiya qilinuvchi obyekt qancha toza bo'lsa, moddaning ta'siri shuncha oshadi. Shu sababdan dezinfeksiya qilishdan oldin obyektni yaxshilab tozalash zarur.

6. Dezinfeksiya – yuqumli kasallik qo'zg'atuvchilarni tarqatadigan zararkunanda bo'g'imoyoqlilarni yo'qotish uchun qo'llaniladigan chora-tadbirlar majmui. Bu choralar odam va hayvonlarda turli yuqumli kasalliklarni tashib yuradigan bo'g'imoyoqlilar (kana, pashsha, bit, chivin, iskabtopar), shuningdek, itlar saqlanadigan pitomniklarda suvarak, burgalarni qirish uchun o'tkaziladi. Dezinfeksiya profilaktik va qiruvchi kabi turga bo'linadi.

Profilaktik dezinfeksiya shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish, chiqindilarni vaqtida chiqarib tashlash, itlar saqlanadigan volyerlar hamda uning atrofidagi binolarni ozoda saqlash, hovuz va ariqlarni tozalash, hasharotlar paydo bo'lishi va ko'payishining oldini olish maqsadida o'tkaziladi.

Qiruvchi dezinfeksiya – fizik, kimyoviy va biologik usullar bilan amalga oshiriladi. Ko'proq kimyoviy vositalar (jumladan, insektitsidlar) qo'llaniladi. Ular ta'sir etish mexanizmiga ko'ra teri orqali ta'sir etadigan (xlorofos, tryxlofos va boshqalar), ichak orqali ta'sir etadigan (bor kislotasi, bura, butadion va boshqa(lar)) va fumigant – hasharot organizmiga nafas yo'llari orqali ta'sir etadigan vositalarga bo'linadi. Biologik dezinfeksiya usuli zararkunandalarni «bir-biriga yedirish»ga (masalan, patogen Mikroorganizmlar, gelmintlar, viruslar va h. k.), fizik dezinfeksiya esa yuqori yoki past bosim bilan ta'sir etishga asoslanadi. Bu usullar yordamida hasharotlarning ko'payishiga ancha chek qo'yiladi.

Dezinseksiya va dezakarizatsiya turli zararli hasharotlarni va o'rgimchaksimonlarni ko'payishining oldini olish va yo'q qilish maqsadida qo'llaniladi. Hasharot va kanalarning o'zi kasal tarqatuvchi hisoblanadi, boshqa hasharotlar zararli kasallikni qonso'ruvchilar va tarqatuvchilar (kana, chivin, burga va boshqalar).

7. Deratizatsiya – yuqumli kasalliklarni tarqatadigan hamda iqtisodiy zarar keltiradigan kemiruvchilarni qirish. Profilaktik va qirib yo'qotish tadbirlarini o'z ichiga oladi. Profilaktik tadbirlar zararkunanda kemiruvchilarning uya qurishi, ovqatlanishi hamda ko'payishiga imkon beradigan sharoitlarni yo'qotishga, itlar saqlanadigan volyerlar hamda atrofdagi binolarini, omborxonalarni ular kirishidan himoya qilishga qaratilgan bo'ladi. Buning uchun don, un, sabzavot, go'sht va boshqa(lar) mahsulotlarni kemiruvchilar tegmaydigan joylarda saqlash; uy va hovlilarga, oziq-ovqat, yem-xashak saqlanadigan binolarga kemiruvchilar kirmasligi uchun ularni doim ozoda tutish, qolgan ovqatlar solinadigan chelaklar va axlat yashiklarini o'z vaqtida bo'shatib turish kerak. Kemiruvchilarni qirishni (biologik, mexanik va kimyoviy) profilaktik tadbirlar bilan birga qo'shib olib borish zarur. Biologik usul bilan yo'q qilishda mushuk, it, ba'zan tipratikandan foydalaniladi. Mexanik vositalarga qopqon, tuzoqlar kiradi. Kemiruvchilarga qarshi kurashishning kimyoviy usulida turli xil zaharli moddalar qo'llaniladi. Bunda tarkibida rodensidlar bo'lgan zaharli xo'raqlardan foydalaniladi, ular kemiruvchilar chiqadigan teshikka sepiladi. Zaharli moddalar bilan ishlaganda ehtiyot choralariga qat'iy rioya qilish kerak.

8. Xizmat itlarini ko'rikdan o'tkazish – mazkur ko'rik xizmat itlariga qo'yilgan vazifa va talablarni o'z yo'nalishlari bo'yicha bajarilishiga tayyorgarligi hamda uning umumiy ahvolini bilish maqsadida amalga oshiriladi.

MILLIY KINOLOGIYA MARKAZI ISH FAOLIYATIDA VETERINARIYA XIZMATINING O'RNI VA AHAMIYATI

Milliy kinologiya markazining Ixtisoslashtirilgan veterinariya xizmatida markaz hisobidagi va hududiy bojxona boshqarmalar hisobidagi mavjud xizmat itlariga veterinariya tadbirlarini o'tkazadi.

Veterinariya xizmatida aholidan sotib olingan va hududiy bojxona boshqarmalaridan yuborilgan xizmat itlarini saqlash uchun karantin bloki, markaz va hududiy bojxona boshqarmalari hisobidagi og'ir kasallikka chalingan xizmat itlarini davolash uchun izolyator bloki, degelmintizatsiya tadbirlarini sifatli amalga oshirish uchun mo'ljallangan xonalar va maydoncha hamda veterinariya xizmati ma'muriy binosi mavjud.

Shu bilan birga, xizmat itlariga muolaja o'tkazish xonasi, jarrohlik xonasi, laboratoriya rentgen xonalari mavjud bo'lib, xizmat itlariga veterinariya tadbirlarini amalga oshirish uchun zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan.

Veterinariya xizmati mutaxassislari kasal itlarga birinchi yordam ko'rsatadi, davolaydi, turli kasalliklarni oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqadi. Markazga olib kelinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining veterinariya-sanitariya holatini, shuningdek, sifatini tekshiradi hamda to'g'ri saqlanishi uchun kompleks tadbirlarni o'tkazadi.

Bundan tashqari Markazda zotdor xizmat itlarini ko'paytirish maqsadida, urchitilgan xizmat itlarning bo'g'ozlik davrini kechishi, homilaning to'g'ri rivojlanishi va it organizmida kechayotgan patologik o'zgarishlar maxsus Ultra tovushli tadqiqot (UZI) aparatida tekshirish ishlari amalga oshiriladi.

Veterinariya xizmatida laboratoriya xonasi ham mavjud bo'lib, xizmat itlarining klinik, biokimyoviy qon tahlillari, siydik tahlillari, gelmintokaprogik, teri soskobi, shilimshiq parda mazogi va boshqa tekshiruvlarni aniqlash uchun maxsus asbob-uskunalar bilan jihozlangan. Shu bilan birga, xizmat itlarining suyagi to'g'ri o'sishi hamda mexanik ta'sir natijasida yuzaga keladigan suyak sinishlari va displaziya kasalligiga tekshirish uchun rentgen aparati ham mavjud.

Xizmat itlarini saqlash ularni hisobini yuritish, veterinariya tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazilishini nazorat qilish maqsadida, xalqaro tajriba va standartlarga muvofiq bojxona organlari hisobidagi xizmat itlariga elektron indentifikatsiyalovchi mikrochiplar o'rnatilib, undagi ma'lumotlar «Kinologiya xizmati» avtomatlashtirilgan axborot tizimi dasturiga kiritilmoqda.

Bundan ko'zlangan maqsad, Davlat bojxona xizmati organlari hisobidagi xizmat itlarining hisobini yuritish, xizmat itlari uchun veterinariya profilaktik tadbirlarni o'tkazish, kinolog tomonidan xizmat iti yordamida aniqlangan holatlarni tahlil qilish, bojxona ko'rigida xizmat itlarining ishtirokini ta'minlash, amaliy mashg'ulotlarni oylik rejalariga asosan o'z vaqtida o'tkazilishini nazorat qilish hamda statistik hisobotlarni yuritish imkonini bermoqda.

XULOSA

Ushbu qo'llanma orqali yoritilgan kasalliklardan tashqari ekologik muhitning dunyo miqyosida o'zgarishi barcha tirik organizmlar qatori hayvonot olamiga ham o'zining sezilarli salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Buning natijasida itlar orasida kelib chiqishi noma'lum bo'lgan turli xil yangi kasalliklar paydo bo'lishi veterinar mutaxassislari oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shu boisdan itlarning kasalliklarini ertangi bosqichlarda aniqlashda ilm-fan yutuqlaridan oqilona foydalanib, davolash hamda kasalliklarning oldini olishning eng samarali usullarini ishlab chiqish, shuningdek, amaliyotga joriy qilish zaruriyati tug'ilmoqda. Albatta bunday natijaga erishish uchun veterinariya mutaxassislaridan it kasalliklari bo'yicha ulkan tajriba va doimo izlanishda bo'lishlari talab etiladi.

It tabiatiga ko'ra, mustahkam sog'ligi, o'ta chidamliligi, parvarish va sharoitining o'zgarishiga tezda moslashishi bilan ajralib turadi. Itning sog'lig'i, ishchanlik qobilyati qay darajada bo'lishi ko'p jihatdan egasi yoki o'rgatuvchiga bog'liq. Chunki ovqatlantirish, parvarish qilish, ishlatish qoidalarining buzilishi itning kasallikka chalinishi, uzoq vaqt ish qobilyatini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, sog'lom itni kasal itdan farqlash hamda veterinar kelguniga qadar birinchi to'g'ri tibbiy yordam ko'rsata olishi lozim. O'z vaqtida aniqlangan kasallik va to'g'ri ko'rsatilgan birinchi yordam itning tezda sog'ayib ketishiga sabab bo'ladi yoki, aksincha, kasallikning o'tkazib yuborilishi itning o'limiga olib keladi.

Xizmat itlariga birinchi yordam ko'rsatish qutisida bo'lishi zarur bo'lgan dorilar va materiallar

1.	5% yod eritmasi – 1 flakon	Jarohatlangan joylarga ishlov berishda ishlatiladi
2.	Vodorod peroksidi – 1 flakon	Ifloslangan jarohatlar va yaralarni yuvish uchun
3.	Furatsilin – 1 blister	Antibakterial tozalovchi vosita
4.	3% bor kislotasi – 1 flakon	Ko'z va quloq kasalliklarida ishlatiladi (otit, konyuktivit)
5.	Ko'k dori – 1 flakon	Teri ustki jarohatlarini davolashda ishlatiladi
6.	Vishnevskiy malhami 1 tuba	Antiseptik ta'sir ko'rsatadi, reginratsiya jaryonini tezlashishiga yordam beradi
7.	Ixtiol malhami 1 tuba	Yallig'lanishga qarshi va mahalliy og'riq qoldiruvchi antiseptik ta'sir ko'rsatuvchi vosita
8.	Vazelin 1 tuba	Terining kichik shikastlanishlarida foydalaniladi
9.	Levomitsetin yoki furazalidon 1 blister	Oshqozon-ichak ish faoliyati buzilganda ishlatiladi
10.	Regidron yoki smekta – 1 paket	Surunkali diareya gastroentirit, qorin dam bo'lishida qo'llaniladigan dori vosita
11.	Streptotsid – 1 blister	Ochiq yaralarni qotishda yordam beradigan antiseptik preparat
12.	Paxta – 1 dona	Yordamchi material
13.	Bint (dokadan tayorlangan) – 1 dona	Jarohatga bog'lam qo'yish uchun
14.	Elastik bint – 1 dona	Jarohatga bog'lam qo'yish uchun
15.	Kompress yoki bog'lash uchun kleyonka – 1 dona	Bo'g'im va suyak sinishlarida ishlatiladi
16.	Ko'z uchun pipetka – 1 dona	Ko'zga suyuq dori vositasini tomizish uchun ishlatiladi
17.	Purkagich – 1 dona	Klizma qilishda foydalaniladi
18.	«Esmarx» rezina idishi – 1 dona	Esmarx krujkasi yordamida oshqozon-ichak yo'li yuviladi
19.	5 gr. Shprits – 2 dona	Kam miqdordagi suyuq dori vositalarini organizmga yuborishda ishlatiladi
20.	Issiq o'lchagich – 1 dona	Tana haroratini o'lchashda ishlatiladi
21.	Qaychi – 1 dona	Yordamchi material
22.	Jgut – 1 dona	Qon tomirlardan ko'p miqdorda qon oqishini to'xtatish uchun

Atamalar

Etiologiyasi – kasallik qo'zg'atuvchi sabablar va sharoitlarning yig'indisini o'rganuvchi ta'limotdir. Kasallik qo'zg'atuvchi tashqi sabablarga – mexanik, fizik, kimyoviy omillar kiradi. Kasallikni kelib chiqishi, ta'sirini ta'minlovchi sabablarga – sharoit deyiladi. Bu sharoitlarga zoogigienik talablarni, oziqlantirish qoidalari hamda hayvonlarni ishlatish qoidalarini buzilishi kiradi.

Patogenez – kasalliklarni rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Bunda kasallik sababi, darvozasi va kasallikning organizmda tarqalishi o'rganiladi.

Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va me'yorlari – veterinariya sohasidagi talablarni belgilovchi, davlat organlari va boshqa organlar, yuridik va jismoniy shaxslar rioya etishi shart bo'lgan hujjatlar.

Veterinariya dori vositalari – kelib chiqishi tabiiy va sintetik bo'lgan dori moddalaridan (substansiyalardan) yoki dori moddalarining (substansiyalarning) aralashmasidan olingan, hayvonlar kasalliklari profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek hayvonlar organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun mo'ljallangan vositalar.

Kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot – go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, baliq va baliq mahsulotlari, tuxum va tuxum mahsulotlari, shuningdek asalarichilik mahsulotlari.

Ozuqa – hayvonlarni oziqlantirish uchun foydalaniladigan, kelib chiqishi o'simlik va hayvonotga mansub mahsulotlar.

Ozuqabop qo'shimchalar – hayvonlar ratsionida yetishmaydigan ozuqaviy va mineral moddalar hamda vitaminlarning manbalari sifatida foydalaniladigan, kelib chiqishi organik, mineral va sintetik moddalar.

Cheklovchi tadbirlar (karantin) – hayvonlar yuqumli kasalliklar o'choqlarining doirasi kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka va ularni tugatishga, ular tarqalishining oldini olishga qaratilgan, xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatning alohida tartibini, aholi, transport vositalari, yuklar va (yoki) tovarlar harakati cheklanishini

nazarda tutuvchi ma'muriy, epizootiyaga qarshi chora-tadbirlar hamda boshqa chora-tadbirlar.

Epizootiya – tegishli hududda hayvonlarning o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi.

Epizootiyaga qarshi tadbirlar – epizootiyaning oldini olishga, uni aniqlashga yoki tugatishga doir tashkiliy va maxsus veterinariya tadbirlar tizimi.

Hayvonlarning yuqumli kasalliklari – paydo bo'lishiga hayvonlarga kasalliklarning qo'zg'atuvchilari ta'siri sabab bo'ladigan, tarqalishi hamda boshqa hayvonlarga va odamga o'tishi ehtimoli mavjud bo'lgan kasalliklar.

Patologiya – hayvon organizmida uchraydigan kasalliklarning paydo bo'lishi, rivojlanish qonuniyatlari hamda oqibatini o'rganadigan fandır.

Ekzema – terida tez-tez uchrab turadigan yuqumsiz kasalliklardan biri. U har xil ko'rinishda uchrashi mumkin, ammo ekzema uchun teri epidermisi zararlanishi xarakterlidir.

Kasallikning oqibati – ba'zan organizm funksiyalarining tiklanishi va batamom sog'ayishi bilan kasallik tugaydi. Lekin ayrim o'zgarishlar organizmda saqlanib qolmaydi. Ayrim kasalliklarda organizmda immunitet ya'ni qayta kasallanmaslik holati paydo bo'ladi. Organizm o'zgargan yashash sharoitiga moslasha olmaganligi uchun moslashish kuchi kamayib ketadi, bundan keyin yashashga imkon bo'lmaydi va hayvon nobud bo'ladi. Yurak urishi va nafas olishni to'xtab qolishi ham o'limga olib keladi.

Immunitet – lotincha (tozalangan) kasallik paydo qiluvchi turli mikroorganizmlar, viruslar, zamburug'lar va ularning mahsulotlariga, shuningdek infeksiyon moddalar ta'siriga berilmaslik xususiyati bo'lib umumiy rezistentlikning maxsus ko'rinishini tashkil etadi.

Anafilaksiya – reaksiyalarning paydo bo'lishida organizm suyuqliklarida aralashib yurgan «reagen» deyiladigan antitanachalar, sekin rivojlanadigan mahalliy allergik reaksiyalarning paydo bo'lishida esa «T-limfotsitlar» ishtirok qiladi. Anafilaksiya ko'pincha vaksina yoki zardob yuborilganda paydo bo'lib itni og'ir (shok) holatga yoki o'limga olib kelishi mumkin.

Nekroz – deb organizm tirik chog'ida biror qismidagi hujayra va to'qimalarning o'lishiga aytiladi. U kelib chiqishiga ko'ra fiziologik va patologik nekrozlarga bo'linadi.

Regeneratsiya – organizmda to'qimalarning shikastlanishi yoki biror ta'sir kuchidan vujudga kelgan, uni batamom yoki qisman tiklash imkoniyatiga ega bo'lgan to'qimalarning o'sishi regeneratsiya deyiladi.

Yallig'lanish – bu organizmning har xil kasalliklarni paydo qiluvchi turli zararli ta'sir kuchidan nisbatan murakkab patologik himoya reaksiyasi bo'lib, tomir to'qimalarining morfologik tuzilishi va funksiyalarining o'zgarishi bilan xarakterlanadi.

Termometriya – diagnostik maqsadda barcha kasalliklarda majburiy qo'llanadigan usuldir. Tana haroratini o'lchash uchun qulay joy tug'ri ichakdir.

Antiseptika – Mexanik, fizik va kimyoviy omillar bilan yaralarni kasallik qo'zg'atuvchi mikroblardan tozalash (anti-qarshi va septic-mikrob) hamda yaralarning yiringlab zo'rayib ketishining oldini olishga antiseptika deyiladi.

Aseptika – yaralarni davolashda ishlatiladigan hamma asboblarni fizikaviy omillar ta'sirida zararsizlantirishga aseptika deyiladi. Bunda asbob-uskunalar qaynatiladi va bug' bosimi ostida aktoklavlarda qizdiriladi

Shikastlanishlar (Travmatizm) – mexanik, fizik, kimyoviy hamda biologik sabablar ta'siridan paydo bo'lgan jarohatlar shikast (travma) lar, ularning yig'indisi esa shikastlanishlar (travmatizm) deb ataladi.

Fizikaviy shikastlanishlar – To'qima va organ yuqori darajali issiq, sovuq, elektr toki, energiyasining ortiqcha miqdordagi rentgen nurlari ta'siridan paydo bo'ladi. Kimyoviy shikastlanishlar – to'qima va organ, kislota, ishqor, ayrim ilon, hasharot va shu kabilarning zahari ta'siridan rivojlanadi.

Biologik shikastlanishlar – To'qima, organ va organizmga patogenli bakteriya, virus, zamburug, gelmint va protozooatoksini, shuningdek modda almashinuvida paydo bo'ladigan indol, skatol, krezol, peptid kabi zaharlar ta'siridan paydo bo'ladi.

Dezinfeksiya – tashqi muhit sharoitida kasallik tarqatuvchi mikroblarga qarshi kurash tadbirlaridir. Bu profilaktik, majburiy va yakuniy turlarga bo‘linadi.

Dezinseksiya – hasharotlarga qarshi kurash chora-tadbirlari.

Degelmintizatsiya – organizmdagi gelmintlarni haydab chiqarish chora-tadbirlari.

Deratizatsiya – kemiruvchilarga qarshi kurash chora-tadbirlari. Bu mexanik, kimyoviy va biologik usullarda o‘tkaziladi

ADABIYOTLAR

1. Narziev D.X., «Hayvonlar anatomiyasi». «Mexnat», Toshkent – 1986.
2. Shopo'latov J.Sh., «Veterinariya asoslari», «Mehnat», Toshkent – 1993.
3. Rustamov X.K., Oqbo'taev Ya.O., Narziev B.D. «Operativ xirurgiya», Samarqand – 1997.
4. Н.Г. Аркадьева-Берлин «Лечение собак» «Вече» Москва – 2005.
5. Norboev Q.N., Bakirov B.B., Eshbo'riev B.M., «Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari» Samarqand – 2013.
6. Niyozov N.B., Davlatov N.Sh., «Umumiy va xususiy xirurgiya», Samarqand-2014.
7. B.Saytqulov, H.Salimov, A.Oripov, K.Norboyev «Veterinariya mutaxassisleri uchun qisqacha ma'lumotnoma», Toshkent – 2015
8. «Kinologiya asoslari». A.Tursunovning umumiy tahriri ostida. Uslubiy qo'llanma. Toshkent – 2016.
9. Bazarov X.K., Abdulakimova A.B., «Veterinariya virusologiyasi», Samarqand – 2018.

MUNDARIJA

Kirish	3
IT ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI	4
ITLARNING YUQUMLI KASALLIKLARI	19
Itlarning viruslar tomonidan chaqiriladigan kasalliklari	
Quturish	20
Itlar o'lati	22
Itlarning bakteriyalar tomonidan chaqiriladigan kasalliklari	
Itlarning salmonellyoz kasalligi	26
Tuberkulyoz – Sil kasalligi	28
ITLARNING INVAZION KASALLIKLARI	29
Itlarning gelmintoz kasalliklari	29
Itlarning exinokokkoz kasalligi	31
Toksokariz va toksoskaridoz	32
ITLARNING YUQUMSIZ KASALLIKLARI	33
Davolash usullari	35
Hazm qilish organlari kasalliklari	36
Stomatit	36
Qizilo'ngachning yallig'lanishi	37
Gastroenterit	38
QULOQ KASALLIKLARI	42
Quloqning yallig'lanishi (otit)	42
Itlarda quloq kasalliklarini jarrohlik yo'li bilan davolash.....	43
KO'Z KASALLIKLARI	44
TERI VA TERI OSTI KASALLIKLARI	52
ITLARDA UCHRAYDIGAN TURLI XILDAGI SHIKASTLANISHLARNING TURLARI VA ULARNI DAVOLASH	58
Itlardagi shikastlanishlarda qon ketishi va ularga birinchi yordam ko'rsatish.....	58

Tashqi omillar ta'sirida xizmat itlarida uchraydigan jarohat turlari va ularni davolash	60
Operatsion jarohatlar. Tasodifiy jarohatlar.	
O'q tekkan jarohatlar	60
Yopiq mexanik shikastlanishlar-travmalar	66
Termik va kimyoviy shikastlanishlar	69
Sovuq urishini chaqiruvchi omillar	71
Suyak sinishlar	72
ITLARDA MODDA ALMASHINUVI KASALLIKLARI	74
ITLARNI SAQLASH, PARVARISHLASH VA OZIQLANTIRISH TARTIBI	82
Saqlash	82
Parvarishlash	83
Oziqlantirish	88
XIZMAT ITLARI UCHUN O'TKAZILADIGAN UMUMIY PROFILAKTIK TADBIRLAR	90
Xizmat itini kasallanishini oldini olish maqsadida majburiy o'tkaziladigan tadbirlar	91
MILLIY KINOLOGIYA MARKAZI ISH FAOLIYATIDA VETERINARIYA XIZMATINING O'RNI VA AHAMIYATI	93
Xulosa	95
Xizmat itlariga birinchi yordam ko'rsatish qutisida bo'lishi zarur bo'lgan dorilar va materiallar	96
Atamalar	97
ADABIYOTLAR	101

**ITLARDA UCHRAYDIGAN
KASALLIKLARNI OLDINI OLISH
VA DAVOLASH**

Uslubiy qo'llanma

*Muharrir: A. Ahmedov
Musahhih: N. Pirnazarova
Sahifalovchi: Sh. Rasulov*



<https://t.me/yuridikadabiyotlar>



**Yuridik
Adabiyotlar
Publish**

«Yuridik adabiyotlar publish» МЧЖ.

Nashr. lis. AA № 0042, 27.01.2020.

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Muqimiy ko'chasi, 100/25.

Telefonlar: +99899 554-70-70,

+99893 554-63-70.

Elektron manzil: yuridiknashr@mail.ru

Bosishga ruxsat etildi 07.10.2021-y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/16.

«AntiquaUz» garniturası.

Ofset usulida chop etildi.

Bosma tabog'i 6,5.

Nashriyot hisob tabog'i 5,85.

Adadi 600 nusxa. 85-buyurtma.

«Yosh avlod matbaa» MCHJ bosmaxonasida

chop etildi. Toshkent sh., Olmazor tumani

Beshqo'rg'on 2-mavze, 9-uy.

ISBN 978-9943-6393-9-3



9 789943 639393